

BAQIOR Yoxud Jahannamga aldanganlar

Muallif: *MADFIYAROVA DILSHODA*

BAHOR - Qalbi dengiz havosidek, sof va dengiz havosidek musaffo bo'lgan qiz hikoyasi.

BAHOR - Ismi jismiga mos ko'klam qizi

**ASARDA BARCHA VOQEA VA PERSONAJLAR O'YLAB TOPILGAN BO'LIB
REAL HAYOT BILAN O'XSHASHLIK BU SHUNCHAKI TASODIFDIR.**

Muqaddima ; Soʻz boshi

Aziz kitobxon qoʻlingizdagi moʻjazgina kitobcha aynan XXI asr hayotidagi fojialarga bagʻishlangan boʻlib , bu fojia kerak boʻlsa hozirgi kunda butun dunyo fojiasiga aylanib kelmoqda.

XXI asr texnologiya va internet asri boʻlib, shunday rivojlangan davrida millatdoshlarimiz diniy ekstremizm va terorizm guruhlariga aldanib qolishmoqda. Qoʻlingizdagi kitob esa aynan manashu fojialarga aldanib qolgan bir oila haqida boʻlib oila azolarining hayotlarini tubdan oʻzgarib yuboradigan voqealarni oʻz ichiga oladi.

Ushbu asarni yozishga boʻlgan ishtiyoq esa menga televideniya orqali efirga uzatilgan « Mehr operatsiyasi» doirasidagi « Bir kaft tuproq» loyihasini kuzatib oʻtirganimda kelgan . Menday oddiy bir qishloqda yashaydigan qiz uchun bu loyiha jaroyonida vatanga qaytarilgan insonlar bilan suhbatlashish imkonyati yoʻq boʻlganidan ular haqida iloji boricha voqealarni toʻqib chiqarishimga toʻgʻri kelgan.

Vatanga qaytgan insonlarni oyna y jahon orqali kuzatar ekanman koʻzimga beixtiyor yosh kelgandi oʻshanda oilasidan qoʻrgʻonidan jondan aziz farzandlaridan ayrilgan onalar va erlaridan ajralralgan qanchadan qancha yosh ayollarni koʻrsatishgandi. Aynan shular haqida qisqacha yozishga qaror qilgandim. Mana niyyatimga ham yetdim.

Hurmatli kitobxon asarni oʻqish jarqayonida oʻzingizga tegishli hulosalar chiqarasizlar degan umiddaman. Sizlarga maroqli mutolaa tilab qoluvchi adibingiz Madiyarova Dilshoda.

O'zbekiston Respublikasi. Andijon viloyati. Toshmang'it tumani. Tuman markaziga yaqinroq bo'lgan El-yurt mahalasi. SHu mahalada ancha yillar avval solingan ko'p qavatli uylarni uchinchi qavatida(o'zi to'rt qavatli) Muslimovlar oilasi istiqomat qilishadi. Oila boshlig'i Abdulla aka 45 yoshlardagi, uzun bo'yli, tanasi yirik bo'lmagan, qotmadan kelgan kishi, xullas mehnat odami. Ayoli Gulnora yanga, ko'rinishi yoshiga mos 40 yoshdan oshgan, lekin Abdulla akaga qaraganda o'zini yaxshi saqlagan ko'xlikkina ayol bo'lib uni ko'rgan odam hayotda uncha muncha narsani ko'rgan, uch farzandni onasi deb o'ylamaydi. Oiladagi farzandlarga kelsak ikkita qiz va bitta o'g'il. Kattasi endi ko'llej o'quvchisi Bahor, ikkinchisi maktabda 7- sinf ismi Farangiz, kichigi kenjatoy o'g'il Umarbek maktabda 5- sinf. Umarbekdan keyin oilada yana ikkita farzand dunyoga kelgan, bitta o'g'il va bitta qiz Munisa va Abrorjon deb ism qo'yishgandi lekin ular ko'p yashamay halok bo'lishgan. Munisa bir yoshga yetay deganda Abrorjon esa chillasidan chiqmay turib tuproq ko'rishgan. Sabab sifatida yetarlicha ishonchli gaplar yo'q u deyishgan bu deyishgan, shifokorlar qattiq shamollash desa folbinlar ko'z teggan duoibat qilingan deb har baloni gapirishgandi.

Muslimovlar oilasi ancha yillar tinch yashashdi, lekin, o'tgan yili qishni ilk kunlarida yomg'ir aralash yog'gan qordan asfalt sirpanchiq bo'lib qolgan ekan, kirakashlik bilan oila tebratadigan Abdulla aka ham rulda muvozanatni yoqotib ustunga urildi. Mashinani old qism ancha pachiq bo'lgandi, shuning uchun qismlarini arzon garovga sotib yuborishdi. SHundan keyin oila faqat bog'cha opa bo'lib ishlaydigan Gulnora yanganing qo'liga qarab qolishdi. Abdulla aka bahor kelgandan keyin qarama qarshi domga ko'chib kelganiga ko'p vaqt bo'lmagan Abduvahob amakini yo'l yo'riqlari bilan xususiy firmaga yuk mashinasi haydovchisi bo'lib ishga yollandi. SHundan keyin oila boroz o'zini tiklab oldi. Yana Abdulla aka yakshanba kunlari firma ishchilari uchun uyishtiriladigan Qori domla o'git nasihatlarini tinglash uchun borib halol va haromni farqlaydigan bo'ldi. Bahor bu yili maktabni 9-sinfni tamomlab pedagogika sohasida kollejga o'qishga kirdi. Aslida Bahor turizmga qiziqar edi lekin buning uchun poytaxtga borishi kerak bunga esa oila kattalari rozi bo'lmaydi. Bundan tashqari onasi ham qizini pedagogika sohasida o'qishini hohlaydi. SHunday qilib Bahor ertaga o'qishga

jo'naydi kollej viloyat markazida joylashgani uchun yotoqxonada yashashga ariza bergandi, endi yotoqxonaga joylashish uchun o'qishdan ikki kun avval yo'lga chiqyapdi. Bahor ertangi hayajonli damlarni eslab oldidagi uch hil doridan birin ketin bittadan yedida uyquga yotdi. Bahor uyquga yotar ekan ertaga katta hayotga qadam qo'yishi haqida o'ylardi. Bahor haqida biroz to'xtaladigan bo'lsak aynan bahorning ilk kunida dunyoga kelgani uchun unga shu ism berilgan. O'rta bo'yli ozg'in unchalik chiroyli deb bo'lmaydiyu lekin istarasi issiq qiz. Qo'shni mahalla hududida joylashgan maktaniga 9 yil qatnagan bo'lsa ham unda birorta dugona yo'q edi. Uni yillar davomidagi suyanchig'i do'sti, sirdoshi shu birgina singlisi Farangiz bo'ldi, lekin singlisi hali yosh bo'lgani uchun unga ko'p ham ochila olmasdi. Do'sti yo'qligi sababi esa tashqi ko'rinish. Bahorda g'alati teri kasaligimi, allergik reaksiyami mavjud bo'lib, mavsumlar almashganda yani yozdan kuzga, kuzdan qishga o'tganda yuzida allaqanday dog' va yaralar paydo bo'ladi. Ayniqsa bahor va kuz mavsumlarida bu juda avj oladi. Faqatgina yuzda emas qo'llarida yelka va ko'ktak sohasida ham shunaqa yaralar uni bezota qilardi. Bu yaralar uni jismoniy va ruhiy og'riqsiz qoldirmaydi. May oyida Abdulla aka ishga kirganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsayam ishlayotgan firmasi tamonidan moliyaviy ko'mak berildi. O'sha firmada ishchilarni moliyaviy qo'llab turish doimiy holat ekan, hatto oddiy haydovchi bo'lsayam. Bundan quvongan Gulnora opa darrov katta qizini davolatishga tushdi, klinikalarga borib qizini obdon tekshirtirdi sababi aniqlangach unga bir qancha dorilar yozib berishdi. SHu dorilar sabab Bahor odamga o'xshab boshqalarga qo'shila oladi endi. Dorilar hammasi 100% samara bermasa ham ancha foydali bo'lgandi. Yuzdagi mavsumiy dog'lar ancha kamaygan ustiga biroz upa surtsa bilinmay ketardi. Endi unga hech kim alvastiga qaragandek qaramaydi. Ertadan yangi kun, yangi hayot va yangi muhit boshlanadi.

Ertalab barvaqt uyg'ongan Bahor uydagilarga nonushta tayorladi. Hamma bir dasturxon atrofida o'tirib ovqatlanishdi, keyin dadasi uzundan uzoq duo o'qib ishga ketdi. Gulnora yanga bugun ishdan ruxsat olgan qizini yotoqxonaga joylashtirib kelishni o'z bo'yniga oldi. Hamma narsa taxt qilinib shaharga yo'lga otlanishdi. Ko'llejga hamma hujjatlar topshirilib yotoqxonaga Bahor joylashtirildi.

"Ehh bu nimasiyaa shuncha 28 o'quvchidan birortasi pedagogika kollejiga topshirmagan bo'lsa, shunaqasiyam bo'ladimi endi bitta o'zim bu yerda nima qilaman, to'g'ri ular bilan opoq-chapoqmasdik lekin ular baribir sinfdoshda" deb

ho'rsinib qo'ydi Bahor narsalarini xonaga olib kelar ekan. Ha haqqatdan ham sinfidagi undan boshqa hech kim pedagogika sohasini tanlamagan. Aytgancha anu egizak Paula Polinalar topshirishgandi lekin ular kira olishmabdi. Ular aslida egizak emas shunchaki yaqin qo'shnilar bolaligidan birga o'sgan dugonalar edi. Paula Polinani esa yoshlikdagi Horij serialidan ko'rgan sochlari shunaqa kesilgani uchun o'zlarini shunaqa atashgan. Hozir sinfdoshlarini birortasini yodida seryal yoki obraz haqida malumotlar yo'q lekin bu nom haliyam bor. Hullas testdan o'ta olmagan, lekin kollejda testdan o'ta olmadi degani yana bir yilni kutadi degani emas ikkinchi tanlagan o'qishiga to'g'ridan to'g'ri qabul qiladi. Bahor shu narsalarni o'ylab turganda orqasidan kelgan odamni payqamay qoldi, mehmon, tomog'ini qirib qo'yganda cho'chib tushdi.

- UZR seni qo'rqitmoqchi emasdim, hayolga berilib qolibsan kelganimni sezmading.
- dedi.- Seni senlab yuborganimga hayron bo'lyapsanmi? O'zi shunaqa o'zim bilan tenglarni yoki kichiklarni sizlay olmayman, g'alati-da, axir.- dedi, Bahorni gapirtirmay.- Birinchi kurs bo'lsang kerak a? Men ham birinchi kursga keldim. Endi xonadoshingman, ikkalamiz yashaymiz.- tirjayib qo'ydi qo'lini cho'zib, - Ismim Dilshoda, senikichi?

- Bahor, faqat ikkalamiz turamizmi bu xonada- o'ylandi Bahor atrofga qarab.

- Isming ajoyib ekan. Ha kiravatlar ikkitaku. O'zi ortiqcha odam kerak emas.

- Rahmat. Ha to'g'ri. – jilmayib qo'ydi Bahor ham.

Dilshodani tariflaydigan bo'lsak Bahorga nisbatan bo'yi kichikroq va to'lacharoq qiz ekan. Ismi jismiga mos kulib yuradi doim. Dili shod. SHundan so'ng ikkalasi xonani o'zlari yashaydigan xolatga keltirib olishdi. Kechagacha bir biriga o'zlari haqida aytib berishdi. Albatta buni Dilshoda boshladi o'zini markazga uzoqroq tumanda turishini, oilada 5 ta farzand bo'lib u kichigi ekanligini. Pedagogika sohasiga qiziqishini bolaligida ham o'yin o'ynashsa har doim ustoz bo'lishini kulib aytib berdi. Bahor ham aslida turizmga qiziqishini aytdi o'zi haqida batafsil aytishni qistagandan keyin kasalligi haqida ham aytdi. Do'sti umuman yo'qligini eshitgan Dilshoda vay endi men bo'lamanda seni do'sting dedi. Savollar almashinib mavzu borib yigitlarga taqaldi.

- Yigiting bormi, - so'radi Dilshoda.

- Yo'g'ey, qayoqda aytimku hatto do'stim ham yo'q deb. Lekin senda borgan o'xshaydi a? - qiziqdi Bahor.

- Qo'ysangchi ko'rmadingmi o'g'il bolaga o'xshaymanku men bilan bolalar jo'ra bo'lishga gaplashishi mumkun halos, xa xa xa xa xaaaa.- miriqib kuldi Dilshoda.

So'ng ikki dugona ertangi kun hayajoni bilan uyquga yotishga tayorlandi. Bahorning uch dorini birdan ichib yuziga tanasiga surma surayotganini ko'rgan Dilshoda hayron qolib savol berdi.

- Aytdimku allergiyam sabab agar dori ichmasam ertaga meni ko'rib qochib ketasan. Ayni avij oladigan vaqt hozir kuz kelgan. - tushintirdi Bahor.

Haa deb qo'ydi Dilshoda keyin uyquga ketishdi.

Ertasi ertalab kollejda birinchi o'qish kuni boshlandi.

SHovqin-suron, g'ala- g'ovurni ichida ularni Bahor va Dilshodani oldiga orqasidan yana 4 ta 5 ta o'quvchi ergashtirib kelayotgan bir yoshgina qiz kelardi ko'rnishdan 25 yoshlar atrofida tashqi ko'rnishi ajoyib va boshqa o'qtuvchilar kabi kiyinib olgandi. Demak u o'qtuvchi.

- Salom, qizlar, familyangiz va ismizngini ayting.- dedi o'qtuvchi ularga qarab.

- Musabekova Dilshoda

- Muslimova Bahor

Qizlar o'zini tanitdi.

- Asatova Asal. - ovoz keldi qizlarni ortidan.

- Asal sen meni guruhimdan emassan. Lekin siz ikkingiz meni guruhimdansizlar. Ismim Davlatova Munira. Hali bafurja tanishib olamiz. Men qolgan o'quvchilarni bir joyga to'plashim kerak. Hozir tadbir ham bo'ladi. Yani o'quvchilarni saralab guruhlar bo'yicha taqsimlab ajratib chiqamiz. Guruhimiz a'zolari shu payt to'planishadi.

Qizlar ho'p deyishdida o'qtuvchini o'rqasidan kelgan qizlar bilan bir chekkaga turishdi. O'qtuvchilar tashqariga chiqib kelishdi va birin ketin guruh nomi bilan o'quvchilarni aytib chaqirishdi. Har guruh 30 ta odamdan. Nihoyat navbat Bahor

va Dilshodani guruhiga keldi. Ular 12 - guruh ekan. Hamma birin ketin familiyalari bilan chaqirilyapdi. Bahorni chaqirishdi, u borib zina kafeliga oyog'i bilan tepip solsa bo'ladimi hamma unga birdan qaradi yaxshiyam hamma narsa juda yangi emasdi, o'qituvchi biroz unga chalg'idida keyingi N harfidan keluvchi familyaga o'tib ketdi. Guruh o'quvchilari yig'ilib bo'lgandan keyin Dilshoda bitta o'zi ochiq joyda qolib ketdi. Unu familyasi chiqmagan edi.

- Ustoooooz! - dedi Dilshoda iltijoli ovozda.- Menchiii!?

Voy deb daftarga qaradi Munira ustoz qarasa bitta o'quvchini ismini aytmadan ketishibdi.

- Musabekova Dilshoda. deyilgandan keyin Dilshoda ham jilmayib hammaga qo'shildi. Birinchi kun tanishish bilan o'tdi hamma o'z o'rniga o'tirib olgach Munira ustoz kelib o'zini tanitdi so'ng guruhdagilar bilan tanishdi. Birinchi partadan boshlab har bir o'quvchi turub o'zini ism familyasi va tumani, maktabini aytib chiqdi. Bazilar bitta tumandan bazilar esa aynan bitta maktabdan kelgani aniq bo'ldi . Qo'ng'iroq vaqtida biroz suhbatlar qurishdi. Guruhda o'g'il bolalarda nisbatan qizlar ko'proq edi. Birinchi kundan hammani ismini eslab qolish qiyin buning uchun biroz muddat kerak. Bahor va Dilshoda kollejdand chiqib yotoqxonatamon ketishdi ularga guruhdoshlaridan yana anchasi ergashib kelishardi, demak ular ham uzoqroq tumandan kelishgan shekilli. Guruhdoshlar birgalikda ichkariga kirishdi endi o'qish avjida chiqadi...

Fevral oyi. Andijon viloyati Pedagogika kolleji yotoqxonasi.

Bahor karavatini ustida hayol surib jimgina o'tirardi. Uni hayol olamidan eshikning sharaqlab qattiq ochilgan sug'irib oldi

-Voy qo'rqitib yubording shunaqayam kelasanmi? - ovozini ko'taribroq gapirdi Bahor.

- Qanaqa kelay boshqa? Har doimgi kelishimku! Namuncha kapalaging uchmasa?

- Dilshoda qovog'ini uyib qo'ydi Bahorga. - Ho'sh nima haqda bunchalik hayol qilyapsan kelganimdan shuncha qo'rqadigan? -- savolga tutdi qizni.

- Hechnima o'zim shunchaki. - indamay qo'ymoqchi bo'ldi Bahor.

- Ey qiz qani menga qara? Nima gap bilib turibmanku bir nima bo'lgan. - qistadi Dilshoda.

Undan qutila olmasligini bilgan Bahor paysalga solib gapirishga tushdi.

- Anavi borku hmm...

- Kim? Nima? Qachon? Qayerda? Nima bo'ldi? Nima gap? CHO'zmasdan gapirsangchi. - biddiladi Dilshoda Bahorni gapirishga undan. - Bilasan gap cho'zganni yoqtirmayman.

- Ha ho'o'o'p e. Anu uchinchi kursdagi Botir borku. Uzuuun orriqchi. - dedi dugonasini tushinmagan ishorasini ko'rib. - O'sha menga sevgi ishor qildi.

- Nimmma? Qiltiriq, naynov, suyuq Botirmi? - so'radi Dilshoda burnini jiyirib.

- Ha huddi o'zi.

- Nima deding?

- Miyyang aynib qolibdi dedimda ketib qoldim.

Dilshoda biroz o'ylanib jim qoldi.

- Nima endi shunga siqilib o'tiribsanmi?! - jahillanib so'radi Bahordan.

- E yo'q, lekin nega menga gapiradi shunga hayronman. Hech kimni etiborini tortmasam, anavi birinchi qavatda o'qiydiganlarga o'xshab eshikni oldida turmasam. - o'zicha hayron qoldi Bahor.

- Vay tentakkina-yeyyy! SHunday chiroyli qizsanku axir. O'g'il bola bo'lganimda gap otish u yoqda tursin uylanib olardim senga! - baralla kuldi qizlar.

- Ee Dilshodaaa aytganmanku senga qanaqaligimni. - Bahor boroz mayuslandi.

- Nima bo'libdi shunga, sen juda go'zalsan va albatta aqilli. - tavassum bilan gapirdi Dilshoda.

- Mayli mayli - jilmayib qo'ydi Bahor ham. - Nima qilsam ekan?

- Nima qilsam ekan?! SHu ham savolmi anu Naynovga YO'QOL deysan tamom. - chimirildi qiz.

- Vee ungamas. Hozir nima qilsam ekan deyman.
- Nima qilarding albatta dars qilasan, ertaga Tarix bo'ladiyu Bilol ustozni darsi, ular senga Ahmad ustoz emas sabr bilan indamay o'tiradigan. Yana Geografiya bor Abduqodir ustoz, ular ham topshiriq bergan, ertaga tayorlanmasdan borib yarim soat o'tiradigan stulingni ko'tarish yoki 50 marta o'tirib turishni hohlamassan a? Ingiliz tili ham bor hali Sora ustozni darsi...
- Mohira ustoz. - gapini bo'ldi Bahor, - Bizni guruhga Mohira ustoz beradiyu darsni.
- Ha sizlarga Mohira ustoz. Qanday dars o'tadi?. Bizda Sora ustoz kulib hamma vazifani tushintiradi qiziqarli o'yin o'ynaydi. Agar darsni tayorlab kelmasang yuzingga kulib ha mayli mayli deydida buyog'dan baho bilan siylaydi!
- Yo'q bizni Mohira ustoz qunt bilan tushintiradi ular ham qiziqarli o'tkazadi darsni, vazifalarniyam yaxshilab har bir o'quvchi bilan shug'illanadi.
- Ha yaxshi ekan. Bugun Jismoniy tarbiyada ko'rdingmi Orifjon ustoz bilan Asadbek ustozni ikkalasi ikkita guruhni arashtirib rosa mazza qilishdida. Orifjon ustoz bizda berish kerak edi 02 - guruhga qarab ketti ko'proq, qovog'ini solib olgan yetmaganiga.
- Nima qilibdi Asadbek ustoz ham yaxshi dars o'tdiku. - o'zini fikrini bildirdi Bahor. - Ular ham yaxshi o'qituvchi ahir. Baribir ikkalasi bitta zalda o'tgandan keyin unisi o'tdi nima bunisi.
- Muhimi guruh jurnali kimdaligida. Jurnalni Asadbek ustoz olib yuruvdi. Baribir ham Orifjon ustozni darsimi ular o'tish kerak.
- Ha ho'p shunga shunchami. - Bahor jim bo'lib qo'ya qoldi. Dilshoda bilan bahslashib bo'larmidi. - SHu nimaga bizni Yoshlarni chaqoriqqa tayyorlash darsi doim o'tilmas ekan a? - so'rab qoldi o'ychan Bahor.
- Nimaga bo'lardi qizlarga u fan o'tilmaydiku. Lekin bizni Dildora ustozimizni deb o'g'il bolalar bilan dars o'timishizga to'g'ri kelgan. - darrov serjavoblik qildi Dilshoda. - O'zi nega so'rayapsan?

- O‘zimda Eldor ustoz zo‘r dars o‘tadida. Rosa yoqadi menga o‘sha ustoz. O‘ziyam harbiy hizmatda bo‘lgan a?
- Ha harbiy aslida. Menga ham yoqadi. Bir marta Noyabrda darsi esingdami? "Qurol olib kelaman hozir lekin qizlar sizlarga ushlatmayman bir marta bitta o‘qtuvchi guruhga qurol olib kelib qizlarda bergan ekan ustozni otib qo‘yibdi" degandi. Men o‘sha gapga ishonuvdim!
- Ha nimasini aytasan, - qaysi voqea haqida gap ketganini bilib darrov tabassum qildi Bahor. - O‘shanda qurolni rasmi tushirilgan plakat olib kelgandi. Rosa hammamiz kulgandik.
- Voy haaa! Men nega haqiqiy qurol olib‘ kelmaysiz deganimda bolalar meni ustimdan kulgan Kollejda qurol nima qiladi yana pedagogika kollejida deb. - peshonasiga kafti bilan urib qo‘ydi Dilshoda.
- Bizga yana qachon Psixologik pratseslar o‘tgaziladi?
- Bilmadim Xonzoda ustoz dars vaqtida iloj qilsam bo‘ladi degandi lekin hozir ularni vaqti tig‘iz shekilli ikki safardan beri faqat indamay mavzu o‘tamiz. - gapirdi Dilshoda.
- Men eshitgandim uchinchi kusrlarda bir ikkita muammo paydo bo‘libdi o‘sha bilan avvora ekanlar. - ohista gapirdi Bahor. - Bundan tashqari bugun Iqtisodiyot fani ham bo‘lgan. Barno ustoz negadir bugun tjangroq ko‘rindi. O‘zi ular bank sohasida ishlar ekan a.
- Uchinchi kusrlarda nima muammo bor ekan a? Bilish kerak. Barno ustoz iqtisodiyot fanidan dars beradi o‘zi Bankda ishlaydi. Endi qara iqtisodiyot bu moliya moliya bu bank. Barno ustoz avval ham kollejda ishlagan keyin bankka ketgan. Kollejda esa o‘qtuvchilar kamayib ketganligi sababli Barno ustozni qaytarib olib ‘kelishgan.
- Dilshoda?
- Hov.
- Boyachi Najmiddin ustoz borki Algebra o‘qtuvchisi o‘shalarni chizmachilkdan dasr beradigan Yahyo ustoz bilan gap tashyotganini ko‘rib qoldim. Yahyo ustozga

hayronmanda nima qiladi Najmiddin ustozni guruhini ishiga aralashib qachon qarama shunaqa qiladi. Najmiddin ustoz ham yaxshigina gapirdi. Ularni o'quv ishlari bo'yincha direktor o'rinbosari Sayyora opa kelgani ajratdi ikkalasi sekin tarqalishdi ko'rsang huddi o'quvchi deb o'ylaysan.

- Haa shu ikkalasi uncha chiqishmaydi deb eshitgandim. Katta hamkasblar bo'lsa ham ikkalasi orasi yaxshi emas. Masalan Najmiddin ustoz Abduqodir ustozga yoki Orifjon ustozga bunaqa gap gapirmaydi. Yana ular musiqa ustoz Mavlonbek bilan juda yaqin. Yahyo ustoz bo'lsa Eldor ustoz va Bilol ustozlar bilan yaxshi.

- Dilshoda, shu musiqa o'qtuvchini ilk darsida aytganing yodingdami? - so'radi Bahor Dilshodani nima deyishini taxmin qilib.

- Albatta esimda - darrov kuldi Dilshoda. - Biz maktab o'quvchilarimizmi musiqa o'tamiz degandim. Keyin ularni ovozi juda yoqib qolgan. - kulib gapirdi qiz.

- Menichi siyoyiy sharxlar fanidan bahoyim pastlashibdi G'anisher ustoz nega bunaqa qildi ekan. - so'radi Bahor.

- Nega bo'lardi bir marta darsidan ruxsat so'ragandingku ular javib bermasa ham Munira ustozdan so'rab ketgansa bu o'shani javobi. Men esa Mohigul ustozdan gap eshitdim. Ohirgi darsda rosa ko'p chalg'igandim ohiri asabi tugadi.

- Rus tilidanmi? Bizga Sarvinoz ustoz dars beradi doim kulib turadi. Samiymiy insonlar. - gapirdi Bahor. Aytgancha kollej yoshlar yetakchisi Diyora opa borku o'sha yangi tanlov o'tgazyotgan ekan qatnashasanmi?

- Yo'q bilasanku tanlovlarni hushlamasligimni.

- Tanlavlarnimi Diyora opanim?

- Tanlovlarni albatta. Diyora opani yaxshi ko'ramanku. SHunchaki birinchi o'rinni olmasam qiziq emas. - kulib qoydi Dilshoda. - Bahor, biologiya daftaringni chiqar o'tgan kuni Durdona ustoz nima berganini ko'r. Hozir esimga tushib qoldi yozganmidim yoki yo'q. - daftarni yaxshilab tekshirib qaragach yengil tortdi. - Yozgan ekanman. Durdona ustozni xafa qilgim kelmaydidaa. Yaxshi ko'raman ularniyam!

- O'zi kimni yaxshi ko'rmaysan uni aytsa ham yaxshi ko'raman buni aytsa ham yaxshi ko'raman. Hatto hazilkash darsiga juda kam kirgan Eldor ustoz ham yaxshi sen uchun. Har doim kam gap bo'lgan din tarix ustoz ham yaxshi sen uchun. Ham maktab direktori o'rinbosari ham geografiya o'quvchisi Abduqodir ustoz ham yaxshi sen uchun. Ayol kishi ustozlarku aytmas ham bo'ladi hamma birdan yoqadi.
- qiziqdi Bahor.

- Yaxshiku hammasi. Hatto senga unchalik yoqmaydigan fizika o'qtuvchisi Diyorbek ustoz ham yaxshiku.

- Vay, nimasi yaxshi ekan!

- Nimasi yaxshi bo'lardi odamga o'xshab dars o'tadi. Anu 04- guruhni rahbariga o'xshab topshiriq berib chiqib ketmaydi tashqariga. Ko'rdikku ularniyam darsini Albatta yaxshi Diyordek ustoz.

- Bo'bdi bo'di biram qaysarsan ee. Ey shu bizga nega Psixologiya tez tez o'tiladi ekan a? Xonzoda ustoz bilan ham ko'p trening o'tkazamiz.

- Pedagogika degani yarim psixologiyaku axir biz bolalar bilan ishlashamiz. SHuning uchun bizga psixologiya tez tez o'tiladi. Tushinarlimi Muslimbekova?

- Tushinarli ustoz tushinarli. Endi darslarimizni qilaylik.

- Ho'p. O'zichi Bilol ustoz nega to'lig'i bilan o'zi aytib bermaydi mavzuni nuqul keyingi varaqdagi mavzu deyida partalarni aylanib yuradi. - ikki daqiqa jim turgandan keyin yana gapirdi Dilshoda

- Bilmasam, men. Darsingni qilgin.

- Ho'p. Endi aytamanda darsni munodoog' tushintirmaydimi? Azginch shovqin chiqsa ham partaga taraqlatib urishni biladi. - yana biddiladi qiz jim o'tira olmay.

- Dilshoda dedim. Dars qilamiiiiz. Jim o'tir.

Dilshoda Bahorga qarab og'zini quliflagan ishora qildida jim bo'lib qo'ya qoldi. Yarim soatlardan keyin Bahor g'imirlay boshladi.

- Dilshoda? Hoy Dilshoda. - deb turitdi javob bo'lmagach.

- Nima deysan? Hozirgina jim bo'1 deyotgandingku. To'xta endi, qiziq joyiga keldim. Ikkinchi Jahon Urushida Gitler Rossiyanı qanaqa oson bosib olishni o'ylagan joyiga keldim.
- Ho'p. Sendan bir narsa so'ramoqchi edim.
- Hmm - dedi Dilshoda javob o'rniga ikki ko'zini kitobdan uzmay.
- Eee eshityapsanmi o'zi? Nima balo jim bo'1 deb jim qilomaysan gapir deb gapitira olmaysan? - qovog'ini soldi Bahor.
- Nima deysan a nima deysan? - ko'zini kitobdan olib Bahorga qaradi Dilshoda.
- Sen bizni Munira opani ukasi haqida bilasanmi? - sekin beparvo so'radi Bahor.
- Ha bilaman. Bizdan uch yosh katta lekin bir yil avval o'qishga borganmi bilmadim. Hullas hozir u Harbiy xizmatda. Harbiy maktabda ham o'qigan bo'lishi mumkin.
- Qayerdagi harbiy bazada ekan? - yana savol berdi Bahor.
- SHimoli-g'arbiy Harbiy okrugda. - beparvo javob beri Dilshoda.
- Qayer u?
- Voy dod bu gapingni Eldor ustoz eshitmasin. Nima shimoli- g'arb qayer ekanligini bilmaysizmi?
- Men qayerdan bilaman. - hayron qoldi Bahor.
- Ha ha, qayerdan bilasan. Bu gapingni esa Abduqodir ustoz eshitmasin, teppa sochi tikka bo'ladiya. Jilla qursa bizga eng uzoq hudud qayerligini bilarsan.
- Eng uzoq? Qoraqalpog'istonmasmi? - o'ylab javob berdi Bahor.
- Voy rahmate, yetib borishi qiyin bo'ldiya.
- SHuni darrov Qoraqalpog'iston desang bo'lmaydimi? Yo'q bu o'zini aqilli ko'rsatib gapirishi kerak.
- Haa albatta shunaqa. Ho'sh seni nega Munira opani ukasi qiziqtirib qoldi? - so'radi Dilshoda bir narsani tushingandek qo'shini qoqdi.

- Hech nima shunchaki qiziqdim. - javobdan qochdi Bahor. - Qara Gitler nima qilgan deganding qaysi varaqda u.
- Qo'ysangchi Gitlerni, u o'lib ketgan, meni chalg'ita olmaysan. - Bahorni mavzuni o'zgartirmoqchi bo'lgani o'xshamadi.
- Ha ho'p aytaman. - gapirishga kirishdi Bahor. - Kecha jismoniy tarbiyada Munira opa meni olib kettiku esingdami?
- Hada esimda bor sport kiyimingni kiymaganing uchun Orifjon ustoz seni yugirtirayotgan edi. Ho'sh?
- Keyin Munira opa olib ketib qog'oz yozdirdi. O'zi o'qtuvchilar majlisiga borar ekan. Menga telefondagi narsasini kamyuterga ko'chir dedi.
- Voy shuni kamyuterga shundog' tashlab qo'ysa bo'lmasmikin?
- Yo'q! Telefondagi xato ekan o'sha xatoni to'g'irlab kamyuterga joylaysan dedi.
- Ho'o'o'sh. - gapni jo'zmaslikka undadi Dilshoda.
- Ustoz ketti keyin 10-15 daqiqalar o'tib telefonga video qo'ng'iroq keldi. Hozir shunaqasiyam bo'larkanda.
- Ha yangi telefonlarda bo'ladi u video qo'ng'iroq.
- Olib yuboribman o'shani. - dedida biroz jim qoldi Bahor.
- Eee kim ekaaaan?!
- Ekranga Azamat deb yozilgan ekan. Telefonni naryog'ida esa bitta yigit turibdi harbiy kiyimda. Meni ko'rdida "kimsiz?" dedi, telefonni egasini so'radi, yuzimga qaraab turib yo o'g'irladizmi desa bo'ladimi?
- Iyee, - deb yubordi Dilshoda.
- Men jim turuvdimdaa telefonga qarab turaveribman indamay u bo'lsa tez gapirib tez hulosa chiqardi. O'g'riga chiqib qolmaslik uchun darrov kimligimni aytdim. Ismimni ham so'radi javob berdim, opasini so'radi. Aytishicha oila a'zolari bilan aloqaga chiqish oson emas ekan, bir oydan beri qo'liga telefon tegmayotgan ekan. Opasiga oz vaqtdan ko'rishishini va qattiq yaxshi ko'rishini aytib qo'yishimni

so‘radi. Ohiriga esa ko‘rishguncha go‘zal qiz dedida telefonni o‘chirdi, men esa og‘zimni ochganimcha qolaverdim. - hikoyasini tugatib Dilshodaga qaradi Bahor. Qiz og‘zi qulog‘ida shubhali tarzda jilmayardi. - Nega bunaqa jilmayyapsan? - so‘radi Bahor qoshini chimirib.

- Yo‘o‘o‘q o‘o‘o‘o‘zziim. - ataylab so‘zlarni cho‘zib aytdi Dilshoda. Bahorni qavog‘ini solib Dilshoda deganiga parvo qilmay jimlayib qoshini qoqib turaverdi. Bu qilig‘i Bahorni asabiga tegishni bilardi ohiri Bahor qo‘liga yostiqlik olib Dilshodaga otdi, bo‘ldi deyapman senga deb labini burdi.

Yostiqlikni tutib olib bag‘riga bosib o‘tirgan Dilshoda gapirishga tushdi.

- Ko‘rishguncha Go‘zal qiiiiz. - takrorladi Qiz. - Go‘zal qiiiiz. Hoy sen unga yana nima deding a. - ko‘zlari yonib so‘radi Dilshoda.

- Nima debman, Tovbaa! Hech nima demadim. SHunchaki kim ekanligimni opasi majlisga ketganini aytdim halos. Bo‘ldi qilasanmi yo‘qmi?

- Vay mana ho‘o‘o‘p. Buncha jaxl qilasan eee. Go‘zal qiz. - qo‘shimcha qildi Dilshoda. - Sen Munira opa bilan ketganda zalga Kamolotchi opa keldi Holida. - mavzuni burdi. Bahorni nimaga ekan deganidan keyin davom etdi. - SHuu zakovat deydimi tadbir deydimi. Hullas o‘quvchi kerak ekan. Diyora bilan Munisa darrov rozi bo‘lishdi. Diyora bilan qo‘shilib borsam bo‘lardi deb o‘ylab bo‘lmasimdan Munisa ham chiqdi, so‘ng bormay qo‘ya qoldim. Diyora yaxshi qiz, doim menga ham senga ham yordam bergan darrov chiqishib ketgan biz bilan, lekin Munisa haqida bunday deya olmayman, sal tannozroq qiz bilasanku tannozlarni unchalik yoqtirmayman. Tinib tinchimas Holida opamiz bir narsalarni boshladi yana. Opa zo‘rda doim yangi g‘oya va xush kayfiyat bilan yuradi. Ishiga yordam kerak bo‘lsa, direktor o‘rinbosari Abduqodir ustoz, algebra o‘qtuvchisi Najmiddin ustoz, musiqadan Mavlonbek yordam so‘raydi. Yangi narsasini aniq aytmadi nimaligini lekin boramiz a birga? Nima deding. - deb Bahordan fikriga qo‘shilishini so‘radi.

- Albatta. - deb qo‘ydi Bahor. So‘ng ikkalasi ham dars qilishga tushdi.

O‘qishlar bir maromda davom etar bizni qizlar esa o‘qish bilan band edi.

Bahorning ikki oyini ham ortta qoldirishdi, buyog'iga yillik imtihonlarda tayorgarlik boshlanib ketdi.

Bahorni ilk kunida Bahorning tug'ilgan kuni o'tgazildi. Avval ko'llej va yotoqxonadagi do'stlari bilan keyin uyiga ketib oilasi bilan nishonlashdi. Onasini iltimosi bilan yangi telefon olib berishibdi. Umuman olganda avval ishlatilgan telefon edi, lekin avvalgisiga qaraganda yangi madel ekan. SHu bilan Dilshodani qistovi orqasida telefon raqamiga telegram ochib oldi. Aytarli hech kim bilan gaplashmaydi lekin telegrami bor.

Mayni issiq kunlarini birida ikki dugona o'qishdan kelib endi tushlik qilishga o'tirishgan edi Bahor telegramini tekshirib ko'rishga yoqdi qarasa xabar kelgan. "Salom, go'zal qiz" darrov Dilshodaga yuzlanib gap qotdi.

- Manavini qara! Kimdir yozibdi.

- Kim ekan? - beparvo so'radi Dilshoda.

- Ismimi ham rasmi ham yo'q faqat "Askar Davlatov" deb yozilgan va ikkitagina rasm qo'yilgan harbiycha statuslar. - Dilshodadan bir gap kutub qarab turdi.

- Nima bo'libdi yozsa? ko'pchilik shunaqa yozadiku o'zi. - beparvo javob berdi qiz . - To'xta!!! Davlatov dedingmi? Yana askar? Vaaay Bahoor, rahbarimizni ukasi bo'lsayaaa? - ko'zlari yonib ketdi Dilshodani.

- Ee qiziqmisan? Nega yozadi u? Keyin meni qaydan topadi??? - ishongisi kelmadi Bahor.

- Qaydan topardi raqamingni yozsa chiqib kelasanku, qiyin emas. Raqamingni topish ham oson Rahbarimizni telefonini bir marta olsa bo'ldi, yo o'zidan so'raydi. Yo'o'q o'zidan so'ramagan bo'lsa kerak chunki o'qtuvchi o'zini o'quvchisini raqamini ukasiga berib yubormaydi. Bunday bo'lganda hozir may u xizmatdan qaytgan keyin seni qidirgan opasini telefonini biror bahona bilan olgan yoki shunchaki quvvatda turganda ochib ichidan seni raqamingni olgan, sen unga ismingni aytgandingku topish qiyin bo'lmagan qarabsanki senga yozib turibdi. Manaa sengaaa tomoshaaa. - dediyu ikki qo'lini qars etib urdi.

- Voy Dilshoda nima ekstrasens bo'ldingmi yo folbin? SHuncha gapni qayerdan olding? Umuman bo'lishi mumkin emas. - har qanday yo'l bilan telefondan tezroq

u odamni xabarini o'chimoqchi bo'ldi. Lekin u odam yana yozgandi. "O'qiganingizni ko'rdim javob bering go'zal qiz. Qandaysiz"

- Xabar keldi qani? Voy yozz nega yozmayapsan Salom de ey yo'q Assalomu alaykum de kattaku sengan. - bidirladi Dilshoda.

- Uff mana Assalomu alaykum bo'ldimi? - asabiylasha boshladi Bahor.

- Mendan nega so'raysan bo'ldimi deb? Unga yozyapsanku Xaxaxaxa - mazza qilib kuldi qiz. Bundan Bahorni battar asablari taranglashdi

- E bo'ldi qiz, asabim buzulyapdi yozmayman umuman hech kimga o'chiraman xabarniyam - dedida o'chirib yubordi hammasini.

- Nega o'chirasaan yozishmaydigan bo'lsang o'zim yozardim. Men gaplashardim, shunaqa jaxl qilishing shartmidi. - tanbex berdi darrov Dilshoda.

- Dilshoda bo'ldi asabimga tegma. Nima bitta xabar yozgani uchun bo'yniga osilib olamanmi toshini tersin. Keyin u aynan Azamat deb kim aytadi? Boshqa birov bo'lsachi?!

- Ha shu kimligini bilishing uchun ham yozishing kerak ediku Inson!

- Kerak emas o'zi umuman Telegram kerak emasdi. Qaydan ham qo'shildim?

- Qo'ysangchi endi qaysarlik qilmasdan. E bo'bdida nima bo'lsayam. Lekin bilish kerak edi kimligini?

- Dilshoda dedim! - ovoz ko'tardi Bahor.

- Bo'ldi bo'ldi. Mana jimman. Men uchinchi qavatga chiqib kelay. Kecha bizdan lagan ogandi bittasi shuni olib kelaman. CHoyingni ichib turaver. - ketishga chog'landi Dilshoda.

- Ha gapirib gapirib qochyapsanmi? - ming'illadi Bahor.

- Ha, meni bilasanku gapiramanu quyon bo'laman.

- Ko'p qolib ketma ey. - orqasidan gapirdi Bahor.

- Ko'ramiz - qo'lini siltab ketti Dilshoda.

Kechqurun ikkalasi ham darslarini qilib bo'lgan, uxlashga yotishdi. Dilshoda biroz telefonini qarab yotib uxlab qoldi. Bahor esa negadir uyquasi kelmay kitob titindi Dilshodani uxlayotganini ko'rgach chiroqni o'chirdi. " Ehh qizeeey telefon qo'lida uxlab qolibdi" deb borib telefonni olib qo'ydi. O'zi ham telegramni yoqib ko'rdi qarasa yana xabar kelgan o'sha "askar" dan. " Vaaleykum assalom. Nega xabarlarni o'chirdingiz? Haliyam sizni saqlab qo'ygan ekanman kantaktlarga. Havotr olmang yomon niyatim yo'q shunchaki tanishmoqchi edim. Ismim Azamat. Siz bilan video qo'ng'iroqda gaplashganmiz Munira opamni telefonida.

"B: " Ha sizmidingiz o'sha uzr tanimabman"

A: Uzr shart emas men avvalroq kim ekanligimni aytmagandim.

B: Uzrimni qaytib oldim.

A: Mayli mayli.

Siz bilan shunday yozishib tursak maylimi?

B: Qanday maqsadda?

Do'st sifatidami?

A: Maqsad bo'lishi kerakmidi?

Aslida men sizdan 3-4 yosh kattaman, lekin siz do'st bo'lishni hohlasangiz mayli.

B: Men shunchaki yozib tursak mayli deganizga aytuvdim.

A: SHunchaki siz bilan yaqindan tanishmoqchiman. Meni bilasiz kimligimni yomon niyatim ham yo'q havotr olmang. Hol ahvol so'rab turaman maylimi? Iltimos!

Bahor nima deyishni bilmay qoldi. Birinchi ko'rganidayoq yani birinchi marta video qo'ng'iroqda gaplashgandayoq o'zini boshqacha xis qilgandi. Go'zal qiz deganida telefonni o'chirib jilmaygandi. Telefonda yozganda ham Go'zal qiz degandan uligini sezgan lekin buni Dilshodaga bildirmagandi. Qalb amri bilan mayli deb qo'yaqoldi. Azamatdan esa javob keldi.

A: Rahmat. Hayrli tun ancha kech bo'lib qoldi yaxshi dam oling.

B: Rahmat sizga ham hayrli tun.

Lekin Bahorni ko‘ziga uyqu kelarmidi??? Anchagacha shiftga tikilib yotdi. Ertalab uni Dilshodada uyg‘otdi. O‘zini qachon uxlab qolganini ham bilmaydi.

Bahor va Dilshoda kechki ovqatni yeyish uchun harakarda edi. Dilshoda tashqariga chiqib ketdi. Biroz o‘tib Bahorni telefoniga xabar keldi.

" Hayrli kech ovqatlanyapsizmi? " tepasiga esa Azamat deb yozilgan.

B: Hayrli kech sizga ham. Ha ovqatlanyapman sizchi?

A: Men bo‘ldim ovqatlanib. Qachon telegramga kirasiz

B: Yaxshi. Biladim hali darslarimni qilib bo‘lib kirarman.

A: Kutaman, go‘zal qiz.

- Kutaman, Go‘zal qiz?! Seni aytyapdimi Azamatmi? Voy buni qaranglaar aaa. - qanaqasiga Bahor Dilshodani kelganini sezmay qoldiyaa. Indamasdan kelibdi Dilshoda ham. - Voy sen pismiq ee qachondan beri gaplashasizlar siz u bilan. Menga aytmasdan, indamasdan, lol lum demasdan gaplashib yuribsanmi? - hayron qoldi Dilshoda.

- Nega pismiq bo‘larkanman shunchaki gaplashyapmiz. - o‘zini oqlamoqchi bo‘ldi Bahor.

- Haa menga aytmay. Indamasdan.

- E bir gapni takrorlayverma. Ko‘p vaqt bo‘lmadi, ikki kun halos. Keyin biz shunchaki yozishib turibmiz halos.

- Ha ha ko‘ramizda buni hali. - indamay qo‘ya qoldi Dilshoda.

Oradan biroz vaqt o‘tib, imtihonlar tugadi. Ikki dugona ikki yog‘ga tarqaladigan bo‘lishdi. Bahor Toshmang‘it tumaniga Dilshoda esa o‘zini tumaniga ketdi. Boshida ikkalasi tez tez gaplashib turishdi keyinroq ishlari ko‘payib ketdi shekili kam gaplashadigan bo‘lishdi. Avgust oyini yarmiga kelganda Bahorni telefoniga qo‘ng‘iroq keldi.

- Alo, Bahor!

- Assalomu alaykum.
- Vaaleykum assalom. Salom beradigan bo'libsammi, ahvollaring yaxshimi, mundog' telefon qilay ham demaysan. Tuzukmisan?
- Salom berish farzku. Ahvollarim yaxshi o'zingchi?
- Mayli, Mayli. Yaxshiga o'xshamayapdi. Nega shuncha paytdan beri hech bo'lmasa telegramdan yozmading. Nima bo'ldi o'zi.

"Bu Qizdan gap yashirib bo'lmaydi" - o'yladi Bahor.

- To'g'risi hozir telefonimda pul yo'q. Yana vaqtim ham. Dadam avvalgidan juda o'zgargan. Tasavvur qilyapsanmi Dilshoda shuncha yil har hil hayotda yashagan dadam endi juda diniy gapiradigan bo'lgan. Meniyam rosa tergaydilar, kim bilan gaplashyapsan, nima qilyapsan, nima qo'yyapsan, bu nima, u nima. Deb rosa savolga tutadilar.
- Nima bo'libdi tergasaxshiku.
- Ha lekin haddan ziyot tergayapdilar. Nomoz ham o'rgatdilar 5 vaqt o'qiyapman.
- Voy bu ajoyib ku. Juda zo'r. Men borsam yani kollejga borsak menga ham o'rgat dugosh maylimi?! - quvonib ketti Dilshoda.
- O'rganishni hohlatsanmi?!
- Albatta hohlayman. Nima qilibdi. Negadir ovozingdan bunga xursand emassan shekilli.
- Aytyapmanku Dilshoda dadam juda o'zgarib qolgan juda juda. Yana hozir menga hijob o'raysan deydilar.
- Ho'sh. - so'radi Dilshoda
- Kollejda bizga mumkinmasku eshitmaganmisan?
- Eshitmaganman rostan mumkinmasmi?
- Hada. Mumkinmas. Umuman dadamni bunaqa o'zgargani yoqmayabdi.

- Menga qara Bahor! Dadang o'rgatsa yaxshi amallarni o'rgatyapdi. To'g'ri yo'lga boshlayapdi. Yana seni dadang ajoyib ekan. Bilasanmi meni sinfdosh qo'shnim bor oilada bitta qiz bitta o'g'il. Otasi g'irt alkash piyanista, uyiga qamalib olmaydiyu, ko'chaga chiqib topganiga bo'kib ichadi. Yana ayoli va bolalariga zug'im o'tkazadi. Sinfdoshimni bizdan ikki yosh kichiksinglisibor. – haliyam Bahorga tushintirishga harakat qilardi Dilshoda.

- Endi u qiz ham o'smirlik davridaku yomon tasir qiladi. Bundan tashqari nuqul xo'rlashlar nosog'lom oila sharoyiti qiz bechoraga rahmim keladi. Abror sinfdoshimku o'qishni qo'yib oila boqish bilan ovora kelajakda qanaqa odam bo'ladi. Endi 17 ga to'lgan bola. Seni otang bo'lsa qaytanga seni foydangni ko'zlayapdi. Dinimizga o'rgatyapdi, kelajagingni o'ylayapdi, sizlarga g'amxo'rlik qilyapdi. Bunday otang borligidan qaytanga hursand bo'lmaysanmi Bahor!

- Hursandman albatta. Otamni boriga shukur. Lekin Ahmad ustozni darslaridan o'rganlarimiz bilganlarimizga o'xshamaydida dadamni aytayotgani. Esingdami ustoz Islom haq din degan edilar. Bu dinda majburlash yo'q degadilar, zulim yo'q degandilar. Inson hayoti yurt tinchligi aziz degandilar. Lekin dadamni aytayotgan so'zlarini eshitsam kim xato gapirganini bilmay qolaman. O'z dadamga ishonaymi yo ustozgami? Nima qilishimni bilmayman Dilshoda,

- Mayli Bahorim nima qilsang ham dadangni xafa qilib qo'yma ho'pmi?

- Ho'o'o'sh, dedi Dilshoda mmm ovozi o'zgarib boshqa mavzuga o'tib. Azamat nima qilyapdi gaplashib turibsizlarmiaa?

- Ha, lekin kam gaplashyapmiz ular ishga kirgan.

- Qayerda ishga kiribdi? - darrov savol berdi Dilshoda.

- Aniq bilmayman. O'zini harbiylik sohasi bo'yincha hozir faqat Farg'onada ekanligini bilaman halos. Dilshoda?

- Ha.

- Bazan o'ylab qolaman, Azamat bilan gaplashib to'g'ri qilyapmanmi yo'qmi?

- Nima deysan?

- O'zi o'rtanglarda kattaroq nimadir bormi? Kattaroq deganda oila qurishga moyil munosabatlar? Bormi?

- Bilmayman to'g'risi hech narsani o'ylaganim yo'q. U bu mavzu haqida gapirmaydi lekin, maslahatlar beradi to'g'ri yur o'zingni asra o'g'il bolalar hatto do'st ham tuninma deydi.

- Haa tushinarli. Demak seni himoya qiladi ortiqcha gapirmaydi va albatta sevadi. - ovoziga ayyorona tus beridi qiz. - Sen hali yoshsan kollejda o'qiysan shunga halitdan bunaqa gapirmay deydida endi. Tushinsa bo'ladi. Har qalay tarbiya ko'rgan yigit.

- Dilshoodaaaaa!

- Nimaa?

- Bazan yoshi katta kampirga o'xshab ketasanee.

-Yaxshi bo'bdi yaxshimi?

-Voy yaxshi yaxshi.

Ikkala dugona biroz vaqtgacha gaplashishdi keyin Bahor onasi chaqirgani sabab telefonni o'chirishga majbur bo'ldi.

Kuz fasli ham kirib keldi. O'qish boshlandi ikkala dugona yana birgalikda bitta xonaga joylashishdi. Darslar boshlandi ikkalasi ham darslarga berilib ketishdi. Ikkinchi kurs bo'lgan boshqachada, ko'llejga endi kelgan o'quvchilardek atrofga alanglamaysan. Hullas endi ulg'aygandilar! Sentyabr oyini ohirlarida Bahorni telefoniga notanish raqamdan qo'ng'iroq bo'ldi.

- Kim? - so'radi Dilshoda.

- Bilmasam kecha ham qo'ng'iroq qilgandi shu raqam. – ekranga qarab gapirdi Bahor

- Balki Azamatdir. Yo'q ular faqat o'zini raqamidan qo'ng'iroq qiladi.

- Qayerdan bilasan olib ko'rmasdan. Qara yana chiqayapdi. Menga ber. –telefonni olib qo'ydi Dilshoda. - Alo.

- Alo.
- Alo.
- Assalomu alaykum Alo.
- Vaaleykum assalom Alo
- Alo. Buncha ko'p aloladingiz? - sabri chidamadi Dilshodani.
- O'zingizchi?
- Men maqsadga o'tsin dedim. Kim siz tanimadim
- Tanishamizda hozir.
- Men ovqatga qarab kelaman, yana meni sharmanda qilib o'tlab ketma Azamat qo'ng'iroq qilsa ol darrov. – deb pichirlab gapirib ketdi Bahor.
- Aha.- keyin telefonga gapirdi. - Nima? Kim bilan tanishmoqchii siz?
- Siz bilaman albatta. – ovozi sokin eshtildi bolani.
- Nega tanishasiz?
- Tanishmaslik kerakmi?
- Sizdan ko'p narsa o'rganishim kerak shekilli.
- Masalan?
- SHallaqilikni. Betka choparlikni. Yana indamay sal kam eri bor qizga gapirishni.
- Indamayapman yana gapiryapmanmi? Zo'rku. Xullas tanishsak bo'ladimi? - yana shu savolni berdi yigit. Dilshodani esa asab tolalari tugayotgan edi.
- Hoy kim siz deyapman men. Birinchi marta telefon qilishizmas bu. Qayerdan oldiz raqamni? Gapiring!
- Voy asabiylashmang yaxshi qiz shunchaki tanishaman halos nima bo'bd i shunga, tanishsangiz osmon uzilib yerga tushadimi?

Bahor ham ichkadiga kirib kelib Dilshodani telefonini oldi. Dilshodaning asabiylashyotganini ko'rib o'zini - telefonini olishni ham hohlamadi, dugonasini raqamidan qo'ng'iroq qilsa olarmikin, deb o'ylab Azamatga qo'ng'iroq qildi...

- Alo. Azamataka Assalomualaykum. Men Bahorman. Bir necha qisqa gudokdan keyin telefon olingan gapirdi Bahor. – Vaaleykum assalom yaxshi rahmat. Zo'rku aka deb qolibsizmi? Bahor o'zizmisiz rostan?

- Ha o'zimman Bahorman. Endi murojat qilish uchun aka dedimda.

- O'ziz bo'lsangiz sizni telefonizda kim gaplashyapdi? Yana boshqa raqamdan qo'ng'iroq qilyapsiz.

- Bu Dilshodani raqami. Meni telefonimga kimdir qo'ng'iroq qilayotgan edi o'sha bilan gaplashyapdi.

- Qayerdan oldiz deyapman sizga raqamni? Bir gapni qaytaravermay savolinga javob bering! - Dilshodani ovozi borgan sari ko'tarilib borardi. – Dilshodamini

-Saloh qo'y telefonni naryog'Iga baqirdi Azamat.

- Kimga gapiryapsiz? - so'radi Bahor.

- Qo'y deyapman u Bahormas. Buyoqqa kel mana Bahor. - haliyam naryog'iga gapirardi yigit.

- O'chirib qo'ydi yaramas gapni aylantirib faqat tanishaylik deydiya, to'nka, shunaqayam bo'ladimi.

- Ey Bahor meni telefonimda gaplashyapsanmi? – Dilshoda telefon o'chirganch asabiy to'ng'illadi.

- Ha to'xta Azamat bilan gaplashyapman. Alo Azamat akaa. Nima bo'ldi.

- Hullas Bahor meni bitta sal yaramasroq do'stim bor...

- Ovozini ko'tarib qo'y.- dedi Dilshoda suhbatni eshtish ilinjida. Ovoz ko'tarildi.

- Ismi Salohiddin. - tanishtirishda davom etdi Azamat. - Bugun bir o'tirib qoluvdik do'sting bilan tanishib ko'ray deb jonimga tegdi telefonimdan

Raqamingni ham olibdi, keyin senga qo'ng'iroq qilibdida.

- Haa demak sinab ko'rmochi bo'lgan sizlar Bahor duch kelgan o'g'il bola bilan gaplashadimi yo'qmi shundaymi? O'sha do'stingiz ham g'irt to'nka ekan.- Chidab tirolmay gapirdi Dilshoda. Uni Bahor turtkiladi.
- Nega turtasan jinni. Ular seni o'yin qilib ko'rmoqchi bo'lgan shuni ham bilmaysanmi? Ustingdan kulmoqchi bo'lgan.
- Menga qarang yaxshi qiz birov birovni ustidan kulmoqchi emas tushinarlimi - go'shakni nargi tamonidan ovoz keldi. Bahor u ovoz Azamatniki emasligini bilsa ham kim ekanligini bilmasdi. Boyadan beri u bilan gaplashgan Dilshoda ovoz huddi o'sha to'nkaga tegishli ekanligini bildi.
- Unda bu qilg'izni nima deb tushinish kerak ekan??? - Haliyam Bahorni o'rniga Dilshoda gapirardi.
- Do'stimni sevgan qizi bilan tanishib ko'rmoqchi edim. – Saloh gapirib yubordi.
- Sevganqizi??? - buyog'dan Bahor va Dilshoda baravariga gapirishdi.
- Boblading Saloh. - Azamatning norozi ovozi eshtildi.
- Ee hali qo'rqqoqlik qilib aytmay yurganmiding yana gapirdi Saloh.
- Odamlar andisha nima ekanligini tushinmasa kerak a? - Dilshoda kesatdi.
- Shu odamlar birovlarini gapiga aralashmay tursada. - Saloh ham gapirishdan qolmasdi.
- Odamlar gapirgan gapiga o'zlari ham amal qilsada, birovga gapirib o'tirmasdan. – kesatish borasida Dilshodaga teng keladigani yo'q.
- Dilshoda bo'ldi qilaqol iltimos.- sekin gapirdi Bahor.
- Mana ketyapman pastga tushib kelaman. Bazi birovlariga o'xshab bez emasman gapga aralashaveradigan.- Ohirgi gapini ataylab baland gapirdida paski qavatdagi ishni bahona qilib chiqib ketdi. Buyerda tursa gapirib tinmasligi aniq edi.
- Men tashqariga ketdim orqamdan borma Saloh. - gapirayotgan Salohiddinni gapiga parvo qilmay tashqariga chiqib ketdi Azamat.
- Uzr Bahor! Bunaqa tarzda is'hor qilaman deb o'ylamagan edim. - Tashqariga chiqib bemalol gapirishni boshladi Azamat. – Men rostan ham sizni sevaman. Buni

o'zingizga ayta olmayotgan edim. Birinchi marotaba gaplashganimizdayoq sizga nisbatan iliqlikni his qilganman. Siz bilan do'stlashib yurishga ham rozi edim. Hech bo'lmasa kollejni tugatsin keyin jiddiyroq gapiraman degandim. Juda g'alati bo'ldida o'ziyam. Bahor nega jimsiz?

Bahor nima deyishga ham hayron Dilshoda bilan bu mavzu haqida gaplashganda ham munosabatlari aynan qanday ekanligini bilolmay qiynalardi, dugonasi yigit uni sevishini

- Bahoor? Eshtyapsizmi? Bahorim!

Ohirgi so'zdan Bahor ingrab yuboray dedi.

- Eshityapman. - dedi zo'rg'a nafasini yutib.

- Sizni sevaman. Menga imkon berasizimi?

Imkon deyapdimi qanaqa imkon mendan yigit qiz bo'lib gaplashib yurishimizni so'rayapdimi? Hammaga meni yigitim bor deb maqtanamanmi? Keyin nima bo'ladi? SHunday yigit qiz bo'lib yuraveramizmi? Hozir nima dedi o'zi? Imkon berasizmi dedimi? Men nima demoqchi edim? Ha esimga tushdi. Ha desam o'lib turgan ekan demaydimi? Ha desammikin yoki o'ylab ko'ramiz deymi? Nimani o'ylab ko'raman o'zi. Ha bo'lsa ha da.

- Mayli. - dedi zo'rg'a Bahor. Miyyasidagi g'ala g'ovurdan chalg'ib. Fikrlarini bir joyga jamlashi qiyin bo'layotgan edi. Miyya va yurak bir varakayiga ishlasa odam nima qilishini bilmayqolar ekan. Miyyada o'ylar g'ujg'on qaynamoqda, yuragi esa bir narsani hohlab qattiq urmoqda.

- Nima mayli? - so'radi ataylab Azamat.

- Mayli sizga imkon beraman. Ko'ramiz ishonchimni oqlaysizmi yo'qmi. Yana imkon berdi deb o'zingizdan ketib qolmang maylimi. - o'zicha qattiq gapirib qo'ydi Bahor.

- Ho'p bo'ladi Bahorim. Haa seni shunday atasam qarshi emasmisan? Yana sizlab o'rtamizga devor urmaylik to'g'rimi? - darrov o'ziga qulay uslubga o'tib oldi Azamat.

- Darrov senlab yuborasizmi shunaqa? - sal hayron qoldi Bahor.

- Ha men o'zinga yaqin olgan odamlarini sizlay olmayman. To'g'ri endi yoshi kattalarni sizlashim mumkin, lekin sendan kattamanku axir.

- Mayli nima bo'lsa ham shu Dilshodaga o'xshab gapirdizda. - kulib qo'ydi Bahor.

- Ha ho'p. Bahorim men ichkariga kirishim kerak va ovqatlanib olishim kerak birozdam keyin telegramda gaplashamiz maylimi chunki hozir yonimda xonadoshlarim bo'lar ekan yaxshi gaplasha olmayman ayniqsa Saloh bo'lsa. O'zi yaxshi bolayu lekin shu tilini tiymaydi. - kulib qo'ydi Azamat.

- Mayli aslida biz ham ovqatlanishimiz kerak edi. Dilshoda ham shunaqa. Bor bo'lishsin bular.

Ikkalasi ham tentak do'stlarini o'ylab kulib qo'ydi. Go'shakni qo'ygach ikki daqiqaga qolmay Dilshoda kirib keldi. U kelishi bilan Bahor bo'yniga osilib mazza qilib sakradi. O'zi bo'yi kichikroq bo'lga Dilshoda Bahorni quchog'ida nima bo'lganini tushinmay turardi.

- Jinni bo'ldingmi tentak qiz, nima qilyapsan meni bo'g'ib o'ldirish payiga tushdingmi?

- Meni sevarkan, sevarkan. - hursand bo'lib gapirdi Bahor.

- Voy tentaaak ha men senga nima degandim sevadi dedimku, shunga shunchami. To'xta endi odamga o'xshab ovqatlanaylik hamma ovqatlanib bo'lishgan biz o'tiribmiz faqat tentakka o'xshab.

- Dilshodaa Xafasmisan? - so'radi ovqatga o'tirayotib Bahor.

- Nimadan? - so'radi Dilshoda hayron bo'lib.

- Haligi Azamatni do'stidanda.

- Ey yo'g'ey. Arzimaydi xafa bo'lishga. Ovqatingni ye undan ko'ra.

Ovqatlanib bo'lgach telegramda Azamat bilan gaplashib o'tirdi Bahor. Endi ular sevishganlar. Yosh juftlik.

14-oktyabr. Kollej yotoqxonasi.

Dilshoda va Bahor ko'chaga otlanishmoqda bugun yakshanba va Dilshodani tug'ilgan kuni ertalab u uyidan qaytib kelgan. Uyidagilar bilan tug'ilgan kunini kecha o'tgazgan edi. Bugun esa tug'ilgan kunni bahona qilib Bahor uni tashqariga olib chiqmoqchi o'zi esa Azamat bilan ko'rishishni niyat qilgan.

- Qani buyoqqa qara. - Dilshoda Bahorni o'ziga o'girdi. - Ha yaxshi yarashibdi ko'ylaging. Ochilib ketding.

- Nega sen shim kiyib olding? - qoshini chimirdi Bahor Dilshodaga qarab?

- Eyy menga kim ham qarardi muhimi qulaylik yur ketdik.

Ikkalasi ham xonadan chiqib ketishdi. Bahor egniga chiroyli ko'ylak kiygan qo'liga Dilshodani qistovi bilan kastyum ham olgandi, sovuq tushib qolishi mumkin ekan. Dilshoda esa shim va kofta kiygan egniga esa uzunroq kardigan ham ilib olgandi. Ikkalalari o'zlaricha uchrashuvga otlangan. Yo'l bo'yi Dilshoda to'ng'illab bordi.

"Menga nima bor o'zi" shu jumlani hech qo'ymasdi. Bahor esa hursand anchadan buyon gaplashib yurgan sevadigan insonini nihoyat endi ko'rmoqqa otlanishyotgandi. Belgilangan joyga, bog'ga, ikkala qiz yetib kelishdi.

- Nega aynan meni tug'ilgan kunimda Bahor. - haliyam gapirardi Dilshoda.

- Dilshoda bas qilsangchi o'zi boshqa payt doim ishda bo'ladilar kecha uch kunga uyiga kelgan ko'rishib olishimga qo'yib bersangchi.

- Ho'p menga nima bor deyaрман senga.

- Senga balo bor meni yonimda turasanda nima qilarding boshqa bitta o'zim shumshayib yurmaymanku. Gapga tushinasanmi o'zi nechchi marta aytyapmanku senga. - ohiri Bahorni ham sabri tugadi u ham qizisha boshladi.

- Hoy uchunchi odam ortiqcha degan gapni eshitgansanmi? Oranglarda yuramanmi qora botir bo'lib.

- Dilshoda...

- Kim aytdi uchunchi odamsiz deb ortiqcha emassiz hech ham. - Bahorni gapini orqadan kelgan yigitni ovozi bo'lib qo'ydi.

Dilshoda yigitlarga orqa o'girib turgandi shuning uchun ko'rmadi. Lekin Bahor o'sha tarafga qarab tursayam Dilshodaga chalg'ib yigitlarni kelganini ko'rmay qolibdi. Oldinga kelishgan basavlat yigitlar turardi. Ikkalasini ham bo'ylari baland lekin bittasi ikkinchisiga nisbatan sal novcharoq edi uni Bahor tanimadi. Unga ortiqcha etibor ham bermadi Bahorni bor etibori, egniga pidjak kiygan ko'zida qora ko'zoynagini olib jilmayob turgan yigitda edi. Ha bu Azamat biram kelishgan yigit ekanki hayotda avval faqat rasmda ko'rardi u ham uzoqdan olingan rasmlar yaqinlashtirsan hiralashadi. Hozir esa uni to'lig'icha ko'rib turibdi.

- Qaleysizlar qizlar. - dedi Azamatni yonidagi egniga jemfer pastiga esa jensiy shim kiygan ko'zidan esa haliyam ko'zoynagini olmagan yigit qizlarni o'ziga qaratib shundagina ikkala qiz ham salom berishmaganini esiga olishib Assalomu alaykum deyishdi. Yigitlar javob bergach Azamat kimni o'zi bilan olib kelganini aytdi u Salohiddin edi. Azamatga qaraganda bo'yi biroz novcharoq jiddiy qiyofa yasab olgan yelkalari keng yigit labini bir uchuni ko'tarib jilmayib qo'ydi. Azamat esa hayajondanmi Bahorni ko'rganidanmi hech ham tabassumini tashlay olmasdi. Jimlikni yana Salohiddin buzdi.

- Yuringlar aylanmaymizmi?

- Albatta yuringlar. - dedi Dilshoda. Bahor va Azamat gapirishi amrimahol edi. Ular baravariga yurib ketishdi o'rtada Azamat va Bahor, Bahorni naryog'ida Dilshoda, Azamatni naryog'iga bo'lsa Salohiddin.

- Yaxshimisiz? - sekin so'radi Azamat Bahordan bu orada Salohiddin qadamini sekinlatdi buni darrov sezgan Dilshoda yigitga qaradi. Yigit ham boshini burib biroz sekinlash degan ishora qildi. Dilshoda ham telefonini titgan bo'lib qadamini sekinlatdi.

- Yaxshi rahmat. O'ziz qandaysiz? - javob berdi Bahor.

- Juda yaxshida. - kulib qo'ydi yigit. - Nima yangiliklar? - yana so'radi.

- Deyarli yangilik yo'q. Hayot bir maromda. - qiz ham nima deyishini bilmay gapirib qo'ydi.

" Voy tovbaaaaa! Bular bu turishda yursa ular bilan zerikib o'lamanku. Yaxshisi ularni holi qo'ygan maqul. Eyyy tug'ilgan kunimda shu ham bormidi manavi

to'nka bilan alohida o'tishimizga to'g'ri keladi shekilli. Uf boshqa kun qurib qolganmidi uchrashuvga" Bu Dilshodani o'ylari edi. Nima qilishni o'ylab ohiri bir qitmirlik qiladigan bo'ldi. Sekin Salohiddinga qarab ko'zini qisib qo'ydi. Yigit nima deysan degan ishorani qilganda qiz dugonasini chaqirdi.

- Bahor. Meni oyog'im og'rib qoldi. Kecha qayirib ogandimu bir joyga borib o'tirmasam bo'lmaydi. Menga Salohiddin aka hamrohlik qilib turadi, sizlar bemalol aylanaveringlar ho'pmi? - yarim yolg'on, yarim chin gapirdi. Rostan kecha qayirib olgan oyog'i biroz og'rishni boshlagan lekin bemalol yursa bo'lardi Dilshodani nazlida.

Unga qarab Bahor. Nima bo'ldi qaytaylikmi dedi. Dilshoda esa unga o'qrayib

- Sizlar aylanaveringlar men, - atrofga qarab o'tiradigan joyni topip, - anaviyerda o'tirib turaman. Yonimda Salohiddin aka bo'ladi to'g'rimi? - dedi Salohiddinga qarab.

- Ha albatta. Azik sen boraver biz Dilshodajon bilan bir chekkada qahva ichiib o'tiramizda. ~ takidladi Salohiddin ham.

O'zini ismini bu tarzda aytilganiga hayron bo'lib qo'ydi Dilshoda lekin indamadi. Ular biroz nariroqdagi ochiq qahvaxonaga yo'l oldi.

Azamat va Bahor esa yana bog'ni aylanib ketishdi. Azamat sal ochilishay deb qolgandi undan bundan gapirib ko'rdi qisqa qisqa jumalardan keyin bu urinish ham yakunlandi. Qarasa Bahor juda chiroyli bo'lib yonida ketyapdi, anchadan beri tiliga chiqara olmagan gapini lop etib aytib yuborsa bo'ladimi!

~ Judayam chiroylisan Bahor, menimcha senga qop kiysang ham yarashadi. ~ yigit bu gapni aytishga aytdiyu uyatdan yonib ketdi.

Bu so'zdan Bahor biroz sergak torti uni hamma ham bilmaydigan siri bor edi. Bu ham bo'lsa, yuzi, bo'yin va yelka sohalaridagi, allergiya.....

Allergiya. Bahor bu haqida avval ham aytishni o'ylagan lekin nimadan boshlashni bilmay indamasdan yurgandi. Bugun Azamatni o'zi bu haqida aytib qoldi. CHiroy haqida gap ketgan ekan, o'zini bu qusiri haqida aytmasa bo'lmaydi.

- Azamat aka, sizga bir narsa so'rasam maylimi?

- H a bo'ladi.

- Meni rostan chiroyli deb hisoblaysizmi?

- Bo'lmasamchi. Nega so'rayapsan? - so'radi Azamatga ham qiziq tuyilib birdan unday degani.

- SHunchaki agar chiroyli bo'lmasamchi. Umuman meni ko'rinishim siz o'ylamagandek bo'lsachi? Masalan yuzimda, bo'ynimda har xil dog'lar, yaralar bo'lsachi? – ming bir hayajon bilan ovozi titrab gapirdi Bahor.

- Xo'sh qani o'sha dog' vayaralar? - pinagini ham buzmay so'radi Azamat.

- Hozir yo'q lekin surtma va dorilarimni bir haftaga to'xtatsam yana paydo bo'ladi bir oyni ichida esa hamma joyimni qoblab oladi. - uyala-uyala aytdi Bahor.

- Muammo nimada o'zi? - Bu Azamat hechnarsani tushinmayapdi yo o'zini jinnilikka solyapdi. Men unga o'zimning nuqsonli tarafimni aytsam u nima deydi menga ustimdan kulyapdimi o'zini beparvolikka solib. - o'yladi Bahor shugaplarni tiliga chiqarib aytib yuborishiga sal qoldi. Bir past Azamatni yuziga qarab turib

- Nima ustimdan kulyapsizmi – deb yig'lab yubordi. Uni yig'layotganini ko'rgan Azamat nima qilishini bilmay qoldi. Bahor o'grilib ketib qolmoqchi edi uni to'xtatib qoldi. Yig'layotganda yuzini yopgan qo'llarini pastga tushirib ko'z yoshlarini artib qo'ydi.

- Bilasanmi Bahor bir rivoyatda aytilishicha, er va ayoli avtohalokatga uchrab ayol tashqi go'zalligidan ayriladi va ajrashmoqchi bo'ladi, bilasanmi shunda qanaqa voqea sodir bo'ladi. Erini ko'z nuri yoqolib qoladi, u ko'r bo'lib qoladi. Ayoli erimni ko'zi ko'rmayapdi meni nuqsonimni ham ko'rmaydi yana uni bu holda tashlab ketmayman deb u bilan ajrashishdan voz kechadi. Ancha yillardan keyin ayolini qazo vaqti yetib vafot etadi. Ayolni tuproqqa qo'yganda hamma birin ketin uyiga tarqalib ketishadi shunda erni bir oshnasi do'stimni ko'zi ko'rmaydi ku uni uyiga olib borib qo'yay deb yoniga boradi, yur do'stim seni uyingga olib boraman deydi. SHunda er do'stiga aniq qaraydi, rahmat o'zim yetib olaman deydi. Do'sti esa hayron bo'lib savol beradi nega bunday qilding deb, shunda er aytadi. Men Ayolimni o'ylab shu ishni qildim u o'zini tashqi go'zaligini yoqotdim deb men bilan ajrashmoqchi edi, men uni juda sevardim usiz yashashni hohlamay o'zimni ko'rga

solib yurdim, ayolim meni ko'rmayapdi deb hijolat bo'lmasdi menga etibor va mehr berardi, deb aytdi. Tushindingmi Bahor bir erkak ayoli uchun nimalar qilmagan, men sen uchun o'sha dori va surtmalarni vaqtida olib bera olmaymanmi. - dedi shuncha gapni jiddiy tarzda aytib ohirini hazilga burib kulib yubordi. Bahor yaramas deb uni sekin qo'liga urib qo'ydi. Azamat ham aktyorligi tutib voy voylashga tushib qoldi. Bahorni qo'rqib kattarib ketgan ko'zini ko'rib yana kulib yubordi va jiddiy ohangda qo'shib qo'ydi. - Bahor hazil o'z yo'liga ammo senga haqiqatni atysam sen menga qanday bo'lsang shundayliningcha yoqasan seni sevaman va sevgimga esa hech narsa to'sqinlik qilmaydi na seni shu aytayotgan yara chaqalaring va na hayot so'qmoqlari. Seni doim sevaman. Bu gaplardan keyin Bahor ham mamnun jilmayib qo'ydi. Birdan Azamatni nimadir esiga tushdi chog'I hozir kelaman sen o'tirgichlarni biriga o'tirib tur deb o'zi orqasiga o'grilib tez tez yurib ketti. Bahor ham unga bir qarab qo'ydidida aytilgan o'tirgichga borib joylashdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Bahor Azamatni qaytib kelyotganini ko'rdi qo'lini orqaga qilib olgandi nega bunday kelyapdi deb ikki ko'zini undan uzmay qarab turdi. Azamat Bahorni yoniga kelib, - Buni aslida kelganimda qilishim kerak edi yani kelyotgan paytib olib kelishim kerak edi, sovg'a qilishim, ko'tarib kelishim, ee hullas. Bu gullar senga. - dedi Azamat orqasidan chiroyli buketni uzatib. Bahor esa boyadan beri nimalar deyotganini tushinmay angrayib turgan edi keyin u tushindi avvalroq kelishida sovg'a qilishi kerak bo'lgan narsa bu gullar ekan. Gulni ko'rib Bahor hursand bo'lib ketti, chunki unga gul sovg'a qilishmagan. Dilshoda o'tgan tug'ilgan kuni bilakka taqadigan sovg'a olgandi lekin Bahorni bilagiga to'g'ri kelmagani uchun o'rtasidagi qoshini olib bo'ynidagi zanjirga taqib olgan edi. Bu esa birinchi marta buketdagul sovg'a qilishlari. Gullar ham rostan ajoyib ekan. Dilshoda va Salohiddin Azamat va Bahorni yolg'iz qoldirib shu joylardagi o'tirib qahva ichsa bo'ladigan kafelarni tashqaridagi kursilariga joylashishga yurdilar.

- Oyog'inggiz rostan og'riyapdimi? - so'radi Salohiddin.

- Unchalik emas kecha jismoniy tarbiya darsida qayirib olgandim, o'zimni qo'polligimda bu. - o'zini oqlaganimi bu yo qoralaganini hullas biroz tariflab qo'ydi.

- Demak hozir ham og'riyotgan ekanda. Bahor bilan birga o'qiysizlarmi? - biroz suhbat uchun mavzu qidiryapdi shekilli Salohiddin yana savol berdi.

- Ha kusrdoshmiz.

- Yoshingiz ham teng bo'lsa kerak a 17 damisiz? - yana so'radi yigit

Buncha savol beradiya bu ensasini qotirib o'yladi Dilshoda.

- Ha bugun 17 ga to'lyapman. - birdan aytib yubordi Dilshoda. O'zi tug'ilgan kunini aytmoqchi emasdi, lekin savol bermasin deb aytib tashadi.

- Rostan bugun tug'ilgan kunizmi nega menga aytishmadi? - hayron qoldi Salohiddin.

- Kim aytish kerak edi sizga?

- Azamat yoki Bahor. Aytishi kerak ediku. - haliyam hayron qolyotgandi Salohiddin.

- Voy nima qilardiz bilganiz bilan. Buncha hayron qolasiz tug'ilgan kun bu oddiy!

- Dilshodaga Salohiddinni bunday hayron qolayotgani yoqmay boshladi.

- Men hozir kelaman siz qahva buyirib turing, ha menga qora qahva. - dedida telefoniga qarab ketib qoldi. Dilshoda esa hayronligicha qoldi. Stolga o'tirib buyitma berish uchun odam chaqirmasdan, ofitsiant yigit o'zi keldi.

- Nima buyurasiz yaxshi qiz. - Dilshoda uni darrov kelib oganiga hayron qoldi.

- Menga oddiy uchasi bittada qahva. Yana birozdan so'ng qora qahva ham olib kelasiz faqat hozirmas sovib qolishi mumkin. Rahmat. - buyirmasini berdi Qiz. Ofitsiant yigit jilmayib jo'nab ketdi.

Menga shu kerakmidi o'zi nima qilib yuribman a? Nima bor ko'chada menga tug'ilgan kunimda odamga o'xshab uyda o'tira olmasam a? Dilshodaga bu joylarda birinchi marta ko'rgan yigiti bilan aylanib yurish umuman ko'chaga chiqish yoqmayotgan edi. Ofitsiant yigit ham yana tirjayib qahvasini olib keldi. Qahvani endi ichayotgan edi yoniga kollejini bitirib ketgan, sevgi isxor qimagan deyarli birorta qiz qomagan Babur uni yoniga joylashib o'tirib oldida gapira ketdi.

- Qandaysan Dilshodaxon avhollar yaxshimi? Nega bu joylarda bitta o'zing yuribsan jon Dugonang Bahoroy qani?

- Yaxshiman, birovning ishga burnini suqadiganlarni joyiga o'tirg'izib qo'yishga qurbim yetadigan darajada yaxshiman. O'zing nimalar qilib yuribsan bu yerlarda. - Dilshodaning bir yomonroq odati bor edi o'ziga yaxshi tanish bo'lmagan odamlarga o'ziga o'xshab muomila qiladi yani senlasa senlaydi sizlasa sizlab javob beradi. O'zi ko'chaga chiqqani yoqmayotgan bu qizni yoniga bu shilimshiq kelib battar asabni buzyapdi.

- Eh Dilshoda Dilshoda buncha qo'polsan, nima yoningga odam yaqinlashtirmaysanmi? Sen bilan munday gaplashib bo'ladimi o'zi?

- Bo'maydi yonimga odam yaqinlashtirmayman to'g'ri topding barakalla. Endi bu yerdan jo'naganing yaxshi. - asab tolalari butkul to'kilib tushmasdan bu to'nkani yoqotish kerak.

- Quvyapsanmi? - biroz qarab turdida bu qiz gapni jiddiy aytganini o'ylab sekin o'rnidan turdi. - Meni sen bilan ishim yo'q aslida, shunchaki ko'rib qolib Bahorni so'ramoqchi edim u bilan gaplashish niyatim bor edi. Seni ham birortasi yaxshi ko'rarmikin a?! - yigit o'zicha falsafa qilib o'rnidan turib ketdi. Dilshoda unga javob berishni o'ziga eb ko'rmadi aslida ham u birovga gapirib o'tirmas ketgandan so'ng yo ertasi kuni nega gapirmadim deb yurardi.

- U kim edi? - Dilshodani orqa tarafidan kelgan odamni bergan savoli cho'chitib yubordi. Orqasiga qarasa Salohiddin. Dilshoda joyidan sakrab tushgandan so'ng yigit biroz hijolat bo'ldi.

- Uzi qo'ritib yubordimmi?

- Biroz. U yigit bizni kollejda o'qigan bir betayn Bahorni so'rashga o'tiribdi meni yonimga, o'rgildim.

Gapni bu tarzda ketganidan Salohiddin biroz yorishdi. - Aytgancha Tug'ilgan kuniz bilan. Qo'lidagi sovg'a va gulni qizga uzatdi. Dilshoda yigitni dab dursdan keb qolganidan uni qo'lidagi yaltiroq qog'ozga o'ralgan sovg'a va gulga etibor bermagan edi.

- Voy bu nega? - dedi Dilshoda hayrat bilan.

- Tug'ilgan kunizga albatta bugun tug'ilgan kunim dedingizku axir!

- Ha dedim lekin sovg'a olib kelasiz deb o'ylamagandim. - qiz sovg'aga qo'lini cho'zib keyin darrov qaytarib oldi. - Men bularni ololmayman.

- Nega ekan. Ahir chin ko'ngildan beryapman.

- Ha lekin bugun ko'rgan odamimdan savg'a olamanmi? Buni iloji yo'q.

- Agar olmasangiz juda xafa bo'laman. Keyin baribir Bahordan berib yuboraman. - yigit jiddiy tarzda ogohlantirdi.

- O'zi bu nima? - so'radi qiz olishga ikkilanib.

- Kitob!

- Voy unda olaman. Qanaqa kitob?

- Ochib ko'ring. - Salohiddin Dilshodani hursand bo'lganidan jilmayib qo'ydi.

Qiz sovg'a qog'ozini ochib qaradi.

- Jojo Moyes! To seni topgunimcha. Buncha zo'r. Tog'risi gullar ham ajoyib ekan. Betaktor va Bejirim aynan shunaqalarini yoqishini topganizga qarang. Bu kitobni ham eshitgandim lekin olishga mablag'im hozir yo'q edi. Buncha yaxshi. - huddi xo'zor qand olgan bolaga o'xshab quvondi Dilshoda. Salohiddin esa bundan jilmayim qo'ydi.

- Tug'ilgan kunida sovg'a olish kerak, sovg'a beradigan odam kimligi ahamyatsiz hoh tug'ishganlar, hoh do'st, hoh shunchaki yaqinda tanishgan odam bo'lsa ham. Xursand bo'lganizni ko'rganimdan xursandman

14- oktyabr kungi tug'ilgan kun ham uchrashuv ham ko'ngildagidek o'tdi. Bahor o'zini qiynab kelayotgan narsalardan qutildi. Azamat uni yaxshi qarshi oldi. Aytgan paytida ham qandaydir rivoyat aytib boshqacha hislarni tuyishiga sababchi bo'lgan. Bahor endi o'ylab ko'rishga tushdi, hozir faqat aytyapdi lekin bir kun ko'rib qolsachi?! Undan Hazar qilsachi?! Maktabdagi do'stlaridek tashlab ketsachi?! Bahor o'zini kamchiligi qusiri haqida hech kimga aytmagandi kollejdagi, Dilshodadan boshqalar bilmasdi. Bahorni ko'ngli baribir tinchimaydi. Tavakkal qiladi sevgisini izidan boradi nima bo'lsa bo'ldi.

Kunlar asta sekinlikni qo'yib shiddat uloviga mingandek yangi yil ham keldi Azamat va Bahor o'z uylariga masofadan tarbiklabgina bayramni kutib olishdi. Uchrashishni mutloqo imkon bo'lmadi. Azmatni ishlari ko'paygan kuniga atigi bir ikki marta gaplashadi unda ham iloji topilsa.

Ikkinchi kursni o'quv yili ham yakunlandi.

Fevral oyi ohirlari mart oyida Bahorni tug'ilgan kuni. Bahor oilasini yoniga borishni hohlamasdi. Chunki dadasini gaplaridan ancha charchagan, nuqul bosim ostida bo'ladi ham uyga borishni hushlamay tug'ilgan kunini yotoqxonada Dilshoda bilan o'tgazishga qaror qildi.

Mana ikki haftadirki Azamatdan darak yo'q. Na telegramda bog'lanib bo'ladi va na qo'ng'iroq qilib. Izsiz g'oyib bo'lgandek. Bahor har xil hayollarga borib tamom bo'la yozdi. Kimdan nima so'rashini bilmaydi.

- Salohiddin ham yo'q bo'lib ketdi a? - so'radi yonida yotgan Dilshodadan Bahor. Ikkalasi Dilshodani kravatida yotardi.

- Bahor, ming birinchi marta aytyapman yo'q. Saloh bilan ham aloqa yo'q. Yoqolib ketishidan avval hatto shama ham qilmagan, oddiy do'st edikkuya lekin aytsa yaxshi bo'lardi. Ancha paytdan beri do'st sifatida gaplashyapmiz. ~ javob berib ohiri o'zi ham mayuslanib qoldi.

Dilshoda o'zini tug'ilgan kunidan keyin Salohiddin bilan gaplashib turishardi biroz vaqt o'tib ancha yaqin bo'lib qolishdi. Salohiddin Dilshoda bilan bemalol hazil qilar o'zini erkin tutishi Dilshodaga ham yoqqandi. Bundan tashqari Saloh orada shunday gap bilan aylantirib Dilshodani o'zini izmiga solib olar edi. Hullas haqiqiy Diktator hozircha bu diktatorligini 10 dan birini ko'rsatmoqda.

- Bilasanmi Bahor. - biroz surilib gap boshladi Dilshoda. - Xonzoda psixolog opa musiqa biroz stresdan qutilishga yordam beradi degandilar. Ayniqsa sokin musiqa. Menimcha klassika yaxshi menga yoqadi. Kel biroz tinglaymiz. Keyin yotib uxlashimiz kerak.

- Dilshoda qo'ysangchi shu musiqangni battar qilyapdi meni. – Bahor kravatiga o'tirib oldi.

– Ha ho'p mana o'chirdim. Biroz tinchlan kel ertaga Eldor ustozdan so'rab ko'ramiz harbiylar hayoti haqida , qanday topshiriqlar olishi mumkun. Shularni so'raymiz.

– Albatta. Ustozga borib meni yigitim bor edi, harbiy ,anchadan beri ko'rinmayapdi, aloqaga chiqmayapdi hozir qayerdadir ish bilan yurgan bo'lishi mumkunmi? Dilshoda o'ylasangchi. - Bahor asabiylashib o'zini yana qaravayga otdi.

- Ha mayli, shunchaki malumot olamiz degandimda. Yaxshisi ertaga Munira opadan o'zim so'rab ko'raman biroz shama qilsam o'zlari aytib berar ukasini qayerdaligini.

- Ha huddi shunaqa qilamiz. Kel yaxshisi Azamatni uyiga borib qo'ya qolamiz a? nima qilamiz ovora bo'lib ustozdan so'rab. Agar Azamat uyida bo'lsa va o'zi hohlasa mrn shu yerda qola qolsam bo'lmaydimi kelin bo'ib nima deysan??? – Bahorni borgan sari ovozi ko'tarilib borardi. – Nima deb so'raymiz a nima deb Dilshoda? Nimalar deyapsan o'zi

- Sekinroq gapir inson. Hozir * kamendant*imiz keladi bo'lmasam. – Dilshoda ham past trmpdagi po'psa tarzidagi ovozda gapirdi.- Men shunchaki senga yordam berishga harakat qilyapman. Bunaqa otirganingni ko'rishni hohlamayman. Menga qara Azamat ham Salohiddin ham agar o'ta muhim ishlari chiqib qolmaganida albatta biz bilan bog'lanishar edi. Hozir indamayapdimi demak muhim ishlari bor. Hali qaytadi albatta. Endi yotib uxla. Ertaga o'qish.

Dilshoda shunday deb o'rniga chiqib yotdi. Qisqa vaqtdan so'ng bir maromda nafas olishi eshtildi u uxlab qoldi. Bahor esa anchagacha uyqusiz o'tirdi. Dilshoda haq Azamat iloji bo'lgnda aloqaga chiqar edi.indamayapdimi demak muhim ishda. Keyin Bahor ham uxlab qoldi.

Ertasi kuni Dilshoda hech nima bo'lmagandek har kungi narsalarni gapirdi. Bahor ham unga hayron bo'lmay gaplashib o'tirdi. Bu ikki dugona orada tortishib turar lekin bir uxlab turgandan keyin yana opoq-chopoq bo'lib olar edi. Tortishishsalarida bir birini shu paytgacha haqoratlamagan edilar. Ular hazillashib biz balki o'tgan hayotimizda opa singil bo'lmaganmizmi deb qo'yishar edi.

Kunlar o'tib bahor fasli ham eshik qoqib kirib keldi. 2-mart bugun Bahorni tug'ilgan kuni. Uyiga bormasdan shu yerda nishonlashga kelishib olishgan edi. Ertalab birinchi bo'lib Dilshoda tabrikladi. Bugun shanba bo'lganligi uchun qizlar o'qishga borishdi. Bahor hech kimni yotoqxonadagi xonasiga chaqirib mehmon qilishni hohlamadi, hatto Dilshodani ham to'rt olib kelishiga qarshilik bildirgan edi. Lekin Dilshodani qattiy qarori bilan to'rt va ichishga biror narsa(albatta spirtli ichimlik emas) olib kelib ikki kishilik bayram uyishtirishga qaror qildi. To'rt va boshqa narsalar Dilshodani hisobidan edi. Hazillashib shu senga sovg'am bo'ladi mendan boshqa narsa kutib o'tirma dedi qiz. Dilshoda Darsdan keyin yotoqxonaga kirmay to'g'ri bozorga ketdi. Ancha qandolat do'konlarini aylangan bo'lsa ham ko'ngildagidek to'rt topa olmadi. Bazilari juda hashamatli narxiyam shunga yarasha, o'zi ikkalasi bo'lsa buncha katta to'rtni nima qilishadi, buni ustiga ko'llej o'quvchisi bo'lsa unda juda katta pul ham yo'q edi. Aylanib yurib ohiri bitta do'konga kirdi. Peshtahtalarni kuzatar ekan bitta oppoq ustiga atirgul tushirilgan to'rt uni etiborini tortdi. Boshida to'rtga tug'ilgan kunning bilan deb yozdirmoqchi edikuya lekin bu to'rtga hech nima yozdirish kerak emasdi. SHu bilan yana ichimlik va boshqa narsalar oldida yotoqxona tomon yo'l oldi. Bugun ikki para dars o'tilgan tushlik paytida xonasida bo'lishi kerak edi boroz oralab ancha yurgani uchun vaqt ham o'tib ketibdi. Yotoqxonaga kiraverishda to'rt besh qiz yig'ilib turishgan edi, ularni ikkitasi Dilshodani kursdoshi. Ularni ko'rib gapirib o'tay dedi Dilshoda.

- Nima qilib yig'ilib turibsizlar ey. - kulib gapirdi Dilshoda.

- SHunchaki,... - deyotgandi Munisa uni gapini Diyora bo'lib qo'ydi.

- Bahorga jo'natma kelibdi.

- Bahorgami? - hayron qoldi Dilshoda. - To'xta sen hozir shuni ochmoqchimiding?

- Munisaga yovqarash qildi. - Ochmoqchi eding-a. Nimani ko'rmoqchi eding sen qiz farosating joyidami buyoqqa ber, - qo'lidan narsani yulib oldi Munisani. - Yana nima bor edi buni yonida. - ovozi ko'tarib so'radi.

- Hech nima shunchaki maktub va manashu bor edi halos. - dedi Diyora maktub va qutichani berib.

- Rahmat Diyora. Boshqalarga o'xshagan befarosat emassanda. Aytgancha buni kim olib keldi? - doimgidek kestix gaplarini qo'ymadi Dilshoda.
 - Tanimayman. Lekin maktab o'quvchisiga o'xshadi. Kastyum va shimda edi.
 - Mayli. Xayr. Ertagacha. - shunday deb o'ylanib yuqoriga chiqib ketdi Dilshoda.
 - Yetib kelmaganimda nima bo'lardi a ochib ko'rardi Yalmog'iz hali qarab tur bir kun adabingni beraman. - o'ziga o'zi gapirib xonasiga kirib keldi qiz. Kirishi bilan dasturxonlarni tayorlab qo'ygan Bahorga tanbex berdi.
 - Sen qiz qaramaysanmi pastda senga narsa tashlab ketishyapdi boshqalar uni ochib ko'rishga shoshilyapdi diqqatli bo'lmaysanmi?
 - Nima deyapsan? - tushinmadi Bahor.
 - Tushinmaydi. Pastda senga jo'natma kelgan uni esa anavi yalmog'iz ochib ko'rmoqchi bo'lgan Parazit. - dona dona gapirdi Dilshoda.
 - Qaysi Yalmog'iz? - yana so'radi Bahor.
 - Dod! Munisada albatta. Hali qarab tursin kunini ko'rsataman. - o'ylab qo'ydi Dilshoda. Keyin hozir mutloqo boshqa narsa haqida gaplashishi kerakligi esiga tushdi. - Eh Tug'ilgan kun! Seni tug'ilgan kuning. Mana olib keldim to'rt. Mana bular esa boshqa narsalar. - qo'lidagilarni dasturxonga qo'ydi Dilshoda. - Buni esa och kim nima yozibdi bilaylik. Maktub va qutichani Bahorga uzatdi o'zi esa to'rti narsalarni dasturxonga yoyib chiqishni boshladi. Ikki kishilik bayram ajoyibda.
- Bahor esa qutini chetga qo'yib avval maktubni ochdi. Matubda esa quyidagilar bitilgan edi

Qadirligim Bahorim Tug'ilgan kuning bilan tabriklayman. Ota onangni meni baxtinga doim sog' va omon bo'lgin. Olloh bergan umrni mazmunli yashash nasib qilsin. Malagim o'zimni seni sog'inaman.

Bu xatni senga ketmasimdan avval yozib qo'yyapman. Aynan maktub senga yetib borganida men uzoqda bo'laman, afsuski qayerdaligimni va nima qilayotganimni sen bilmasliging kerak. Hatto oilam ham men qayerdaligimni bilmaydi. Ular meni tushinishadi chunki otam harbiy bo'lgan.

Endi senga tanlagan sovg'amni ochib ko'r.(Bahor tezda qutichani ochdi) Ochdingmi? Senga yoqadi degan umiddaman. Uni ehtiyot qil chunki o'rtadagi yuragi meni yuragim. Seni har lahza sog'inuvchi Azamat. Yana bir marotaba Tug'ilgan kuning bilan Jonim.

Maktubga qarab o'ylanib qoldi. Azamat qayerda? Nima qilyapdi? Sog' salomatmikin? Qachon keladi? To'g'risi Bahor Azamatni chindan sevardi va shu qisqa muddat ichida qiz uni juda sog'ingandi. Qancha payt yo'q bo'lib ketib shu birgina xat yozib qoldirganiga biroz xafa ham bo'ldi.

Dilshoda narsalarni dasturxonga qo'yar ekan Bahorga qaradi. Qo'lidagi maktubni o'qib bo'lib o'tirganini ko'rdi.

- Nima ekan? - do'stini qo'lidagi qog'ozni oldi. O'h Azamatmi?! Qadirligim, Malagim, o'hho'o', qani qanaqa sovg'a. Vayvo'o'! Buncha zo'r. Tug'ilgan kuning bilan jonim. O'lib qolamanda. Meniyam unitmabdiya! - maktubni qayta o'qib chiqib Dilshoda hayron qoldi. - Qachon qaytishini aytmabdiku? Nega aytmagan? Yana maktub bormi? - kanvertga qarab bo'sh ekanligini ko'rgach taqinchoqqa etiborini qaratdi. - Buncha ajoyib Bahor taqib olsangchi qo'lingga.

Bahor jimgina taqinchoqni qo'liga taqdi.

- Nima bo'ldi senga Bahorim? - do'stini kayfiyati yo'q ekanligini sezib so'radi Dilshoda.

- Bilmayman. - bu javob berishdan qochish emas rostan nega bunaqa kayfiyati tushib ketganligini bilmasdi Bahor. Negadir ko'ngliga qil ham sig'may qoldi. Tug'ilgan kuni ekanligi ham dasturxondagi to'rt ham esdan chiqdi.

- Bahorim asalim bilaman sog'ingansan bu xati juda qisqalik qilgan senga. SHuning uchun ko'ngling to'lmayapdi shunaqami? Shunaqa. Kel o'zimga jonim meni.

Bu ikki dugona bir birini ancha tushinadigan bo'lib qolishgan hozir ham Dilshoda Bahorni nima qiynayotganini tushindi. Ancha vaqt bir birini quchib turishdi. Dilshoda biroz qimirlab Bahorni quchog'idan chiqdi.

- Bugun seni tug'ilgan kuning tentak yur dasturxonda to'rt turibdi yemasang xafa bo'laman men buni ancha pul sariflab olganman.

Dilshodani qistovi bilan biroz ochilib o'tirdi Bahor. Tug'ilgan kun ham bir amallab o'tib ketdi.

20XX-yil 2-sentyabr. Yana o'sha Pedagogika kolleji yotoqxonasi. Bahor va Dilshoda uchinchi kursga o'tishdi. Iyun oyida imtihonlarni yakunlab ikkalasi ham uy uyiga tarqashgandan keyin o'tgan yildan farqli o'laroq umuman gaplashishmadi. Endigina yarim soat avval diydor ko'rishdi halos. O'qish 4-sentyabr kuni boshlanadi. Ungacha ikkalasi mazza qilib gaplashib olishadi. Butun boshli ikki oydan uzoq muddatda nimalar qilganlari haqida bir biriga aytib berishni boshlashdi. Dilshoda tamonidan berilgan savollarni birinchisi quyidagi bo'ldi:

- Azamat alqaga chiqdimi?

- Yo'q. Umuman qo'ng'iroq qilmadi. - siniq javob berdi Bahor.

- Eh mayli uni buni qo'y. Bilasami men yozni qanday o'tkazdim?! - Bahorga qarab jilmayib turdi qiz.

- Bilmayman albatta.

- Tog'ga dam olgani bordik. SHunaqa ajoyib joylar ekan asti qo'yaverasan. Qara senga rasmlarini ko'rsataman. - deb Dilshoda telefonidan rasmlarni ko'rsatdi. Keyin shaharda tushilgan rasmni ko'rsatib, - Biz yana Toshkentga bordik. - deb maqtanib qo'ydi. Dilshoda aytishicha Dadasi ish sababli borgan lekin qizini ham

ko'zi qiymay olib ketgan emish. SHunda ham atigi bir kunga borishibdi. Hullas Dilshodada yoz juda qiziqarli malumotlarga va tassurotlarga to'la edi. Bahor haqida esa bunday deb bo'lmaydi. U juda siqilgan, shu ikki oy ichida yanada ozib ketgan, rangi ham ancha siniqqan edi. U bilan dildan gaplashadigan va yaxshi maslashat beradigan inson kerak edi. Yoz bo'yi boshidan o'tkazganlarini aytib berish uchun sabir bilan Dilshodani gapirib bo'lishini kutib o'tirdi.

- Ho'sh endi o'zing gapir nimalar qilding shuncha vaqt ichida? - o'zini hikoyasini to'lib to'shib gapirib bergach Bahorga savol berishga tushdi.

- Qiziq narsa bo'lmadi, Dilshoda. Lekin ancha narsalar bo'ldi.

- Aha nima narsalar bo'ldi, qulog'im senda. -qulog'ini uzib olib qo'liga tashlagan bo'lib imo ishora qildi Dilshoda biroz kulgu bag'ishlash uchun. Lekin Bahor kulishga ayni damda xushi yo'q edi.

- Hullas Dilshoda men uyga borganimdan keyin dadam menga hijob o'raysan dedilar. Ko'llejni bahona qilgandim u yoqqa borganingda yechib qo'yishing mumkun dedilar. Shunaqa qilsa ham bo'lar ekan – dedi Dilshodaning hayratlangan yuzini ko'rib.u ham dugonasining gapini davom ettirishi uchun indamay qo'ya qoldi. – Abduvahob amakining aytishicha bu mumkun ekan. Etiborni tortadigan narsalardan saqlanishimiz kerak ekan. Ularning suhbatlari asosan diniy mavzu bilan bog'langan siyosat edi. Yana bitta Abduljalil degan amakining aytishicha biz musulmonlar Suriyaga yordam berishimiz kerak ekan. Bizni mamlakatda ham degan narsa yaxshimas ekan. Butkul diniy mamlakat qilish va boshqa dinlarni chiqarib yuborishimiz yoki o'zimizni dinga qabul qilishimiz lozimligini aytishdi.

Biz uyimiz bilan Jihit amallarini bajarish uchun Suriyaga borishimiz kerak ekan dadam hammmamiz o'sha yoqqa boramiz deb aytilar. Ketishga rozi bo'lmagandim ketmayman degandim shapaloq yedim. Ha Dilshoda shunday bo'ldi. Qo'shnilar uyimizda nima bo'lganini bila olmay mahallaga aytishibdi. O'sha paytda maktabda tatil bo'lgani uchun Farangizni ustoz mahallada ishlayotgan ekan. Mahalla oqsoqollari bilan ular ham keldilar. Farangiz hali maktabni bitirmaganku bu yil 9-sinf bo'ldi. Maktabni bitirmagan o'quvchini uzoq muddatga olib ketishga haqqingiz yo'q deb ruxsat berishmadi.

O'shanda ham Abduvahob amaki dadam bilan ancha vaqt gaplashib bu yil bolmasa kelasi yili Salimlarga qo'shilib borarsizlarda deb tinchlantirdi. Ertasi kuni uyimizda doimgidek o'tirish bo'ladigab bo'ldi. Hamma dadamni va Abduvahob amakining tanishlari uyga kelishdi. o'tirishdagilarning deyerli yarimi Suriyaga ketadigan bo'lishgan edi. Ular gaplashgan asosiy mavzu qanday yo'l bilan Suriyaga borish edi. Dilshodaaa bilasanmi meni tashvishga solayotgan narsalar bu emas Abduvahob amakining ukasi bor ekan deyarli dadam bilan teng, ayali qazo qillgan o'sha erkakka men tenggi qizni xotinlikka olib berishdi. Bechora qiz qanday chiroyli ediya. hazon bo'ldi hazon. Bazan Abduvahob amakining o'zi Farangizga boshqacha qaraydi. Qandaydir qo'rqinchli Dilshoda bular insonlar bo'ldi a? Dadam qancha kitoblarni o'qishimni aytdi. Hammasini o'qishim shart ekan... Nima qilsam ekan a Dilshoda?!

- Kitoblarni o'qiyver. – boyadan beri jim o'tirgan qizdan sado chiqdi.

- Kitoblarni o'qiyver?! Shusiz ham o'qiyman ularni. Anchadini o'qiganman. Lekin o'qib bo'lishim bilan dadam boshqa kitob olib kelib beradi. Men umumiy ma'noda so'radim nima qilsam bo'ladi deb. – tushinmagan dugonasiga qaytardi Bahor.

- Nimayam qilarding, hozir hech nima qila olmaysan. Bizni bu haqda malumotimiz yo'q. Shu dadangnichi yaxshisi bitta masjidta imomlik qiladigan Qori ota bilan uchrashtirish kerakmi deyman.

- Ha yonidagi bilimlarni qayerdan olganini bilmaydigan chala mullalardan yaxshirog'i demoqchimisan? – biroz kinoya bilan Bahor.

- Yo'g'ey unaqa emas. Aytamanda endi masjidta imomlik qilsa bilimi ham shunga yarasha bo'ladi. Etiqodi ham albatta. Endi Bahor ko'zlarim yumilib ketyapdi uxlaylik. Ertaga bobdodga uyg'ot meni ho'pmi. – kravatiga solingan joyga joylashib yotib oldida Xayrli tun deb qo'ydi.

– Xayrli tun senga ham. – Bahor ham hech narsa o'ylashga holi yo'qli uchun o'zini o'rniga tashlabdida uxlab qoldi.

Sentyabr oyi ohiriga yetay deganda Bahorni quvontiradigan sms keldi.

" Bahorim men bir haftada uyimda bo'laman. Qaytyapman" sms jo'natgan raqam noma'lum lekin kim jo'natgani juda aniq edi. Azamat. Azamat qaytyapdi.

Bahor hursand bo'lib bu yangilikni Dilshoda bilan bo'lishgisi keldi. Ko'llejda ertalabki smenada o'qishar edi. Dilshoda esa hozir pastki qavatga tushgandi uni qaytib chiqishini kutmasdan Bahorni o'zi pastga tushdi Dilshodani topip telefondagi smsni ko'rsatdi.

- Azamatmi - dedi Dilshoda smsni o'qib bo'lib.

- Ha qaytyapdi.

SHu payt Dilshodani ham telefoniga habar keldi

- Voy cho'chib kettim tebrangichini(vivratsiya) qattiq qaygan ekanman. - deb cho'ntagidan oldi.

Unga ham begona raqamdan sms habar kelgan ekan. Xabarni ochib qarasa bir haftada uyda bo'lishini bildirib yozilgan habar, pastiga Salohiddin deb yozilgan edi. Dilshoda hayron bo'ldi.

- Buni qara Salohiddin qaytayotgan ekan - dedi Bahorga qarab.

- Ha men ham senga shuni aytgani tushayotgan edim. Azamat qaytayotgan ekan. Mana qara habar jo'natibdi. - deb hursand bo'lib habarini ko'rsatdi.

Ikkala qiz ham qo'llaridagi telefonlariga qarab shirin entikib qo'ysi.

Darvoqe bugun 30 - sentyabr. Bir haftadan keyin 6 - oktyabr bo'ladi yana bir hafta kutishsa Dilshodani tug'ilgan kuni keladi. Demak yana Dilshodani tug'ilgan kunida uchrashishsa bo'ladi. Buning uchun Dilshodani ko'ndirish kerak. Azamat va Salohiddinni ham sharoitiga qarab ko'rish kerak so'ng tug'ilgan kubda to'rttalamiz o'tiramiz deb o'ylardi Bahor kechqurun har doimgidek dorilarini istemol qilib bo'lgach uyquga ketishdan avval. O'zicha rejalar tuzyapdi.

Mana bir hafta ham o'tdida ketdi. Yigitlar kelishdi. Bahor o'ylaganidek 6-oktyabrga emas 8- sanaga uylarida bo'lishdi. Albatta darrov uchrashishni iloji bo'lmadi. Azamatni onasi yana buvisini oldida bo'ldi. Ishdan to'liq ozod bo'lishi uchun hujjatlarni tezlikda yozib bo'ldi. Bungacha esa bir hafta yana o'tib ketdi. Huddi bir avvalgidek Dilshodani tug'ilgan kunida yig'ilishgan edi. Tug'ilgan kun O'qish kuniga to'g'ri kelgani uchun Dilshoda uyiga bormadi o'rniga xonadoshlarimiz bikan o'tkazarmiz deb gapirib qo'ydi.

Tugʻulgan kun ham keldi, hammasi Bahorning rejalariga binoan boʻladigan boʻldi. Ular toʻrttalasi bir joyga borishib oʻtiradigan boʻldi shu joyda toʻrt ham oldirmoqchi edi.

Ikkalasi ikki para darsdan ruxsat olib tayyorlanishga ketishdi. Ikkalasiyam chiroyli boʻlib kiyinib olishdi. Bungayan naqt bir darsni vaqti ketti. Yotoqxonadan pastga tushishda Dilshoda zirak taqmagani esiga tushib qoldi Bahorni pastga tushirib oʻzi yana xonasiga ketdi. Bahor binodan chiqqanida telefoniga qoʻngʻiroq keldi. Azamat ekan.

- Alo

- Alo assalomu alaykum!

- Vaaleykum assalom chiqdinglarmi?

- Ha men chiqdim.

- Biz yoʻlni bu boshida kutyapmiz.

- Hoʻp hozir.

Bahor goʻshakni qoʻyib Dilshoda oʻzi kelaveradi deb Azamatlarni yoniga ketdi. Yoʻlni nargi betiga oʻtgandan keyin ikkalasi gaplashgani chekkaroqqa chiqishdi. Salohiddin ham ularga halaqit bermay yan Dilshoda chiqsa ularnu topa olmay qolmasin deb Yotoqxonaga yaqinroq joyga borib turdi.

Dilshoda ziragini taqib tashqariga chiqib ketayotgan edi yoniga kursdoshi Malik kelib qoldi.

- Dilshoda. Salom. Tugʻilgan kuning bilan.

- Rahmat, Malik.

Tabassum bilan javob berib tashqariga chiqib ketmoqchi edi yana gap bilan toʻxtatdi yigit.

- Dilshoda, senga sovgʻam bor edi. Tugʻilgan kuning bilan.

Orqasidan chiqarib sovgʻa berdi yigit bu voqea eshikni oldida sodir boʻlgan edi bularni Salohiddin ham koʻrib turardi.

Dilshoda tashqariga chiqdi.

- Nima sovg'a ekan? - deb so'radi qiziqib. U o'ylanib qildi olsammikan yoki yo'q. Olmay qaytarib berishdan mani ko'rmadi shuning uchun olib qo'ya qoldi.

- Ochib ko'r.

- Ho'p yur sal nariroqqa o'taylik eshikni tagida turmay meni aslida Bahor kutayotgan edi. - deb yo'l yoqasiga qarab yurdi so'ng Malik yonida yurganu uchun sovg'ani ochib ko'ray dedi. Qarasa ichida bejirim soat bor edi.

- Vooy buncha ajoyib. Rahmat katta.

Minnatdorlik bildirdi qiz.

Bularni chetta kuzatib turgan Salohiddinni ohiri sabri tugadi. SHartta bordida Dilshodani yengidan ushlab tortib ketti.

Voy nima qilyapsiz! Deyish bilan uni orqasidan kelderdi.

- Qo'yvoring qo'limni. Basqiling nimq qilyapsiz? Qo'yvoring deyaqman. - deb qo'lini siltab yubordi. - Nima qilyapsiz o'zi?

- O'ziz nima qilyapsiz? Yigit kishi bilan kulishib? ~ qo'pol tarzida so'radi Salohiddin.

- Nima qilibman? Kursdoshim u! Sovg'a berdi tug'ilgan kunimga. - qo'lidagi qutisi bilan haliyam ushlab turgan soatni ko'rsatdi.

- Nega sizga sovg'a beradi?

- Tug'ilgan kunim ahir! Keyin sizni nima ishiz bor menga sovg'a beradimu yo'qmi. O'g'il bola bilan kulishamanmi boshqa narsa qilamanmi? - Dilshodani ham jahli chiqib ketdi.

- Tushinmadim! Nima qilmoqchisiz yana?! - g'azab bilan so'radi yigit. Qo'llari mushtga aylandi. Uni vajohatini ko'rib Dilshoda qo'rqib ketti. Lekin o'zini yoqotmay gapida davom etdi.

- Bir nima qilaman demadim. Sizga nima dedim.

- Men sizni sevaman. - osongina aytdi qo'ydi.

- Dilshoda gapirishga gap topa olmay qoldi. Ikki daqiqaga cho‘zilgan sukutdan so‘ng Salohiddin gapirdi
- UZR. Qizishib ketdim. - Dilshodaga yana yaxshilab qaradida. - Men ketdim dedi.
- Qayoqqa? - darrov jonlandi Dilshoda.
- To‘g‘ri aytdingiz menga nima? Siz baribir sevmaysizku meni.
- Kim aytdi?
- Nima? Birov aytishi shartmi? Indamaysizku.
- Indamasligim bu ketishingiz kerak degani emasku!

Salohiddin Dilshoda qarab turdi. Dilshodani ko‘zlarida ajib bir narsa ilg‘adi. Salohiddin yana qizni oldiga bordi. VA Sizni sevaman rostan ham dedi.

Dilshoda hali ham gapira olmasdi. Ko‘zlarini pirpiratib qo‘yardi halos.

- Qiziq bidirlab gap bermaydigan qizga shunaqa sevgi izhor qilib turish kerak ekanda a? Jim qiladigan. Salohiddin doimgidek vaziyatdan xazil bilan chiqib ketdi. Salohiddin Dilshoda bilan xazillar qilar harnarsa aytib doim uni kuldirar edi. Dilshoda biroz kayfiyati yo‘q bo‘lsa darrov sezar va uni kayfiyatini ko‘tarishga intilar albatta buni uddalar edi.
- Hoy nima qilyapsizlar? - Dilshoda endi gapirmoqchi bo‘lgandi Azamat va Bahor kelib qolishdi.
- Sizlarni kutyapmizda – deb kulib javob berdi Salohiddin.hammani yurishga boshlab o‘zi ildamlab yurib ketti.

Bahor bir kichikroq restaron topgan ekan ichi ham shinamgina ekan. Torttalasi shu yerda o‘tirib bayram qildi. Ohirida hisobni Azamat bu bayram Bahor ikkimizni nomimizdan deb to‘ab qo‘ydi. Salohiddin esa hayajonlanib Dilshoda uchun olgan sovg‘asini topshirdi (Bu sovg‘a o‘rtasida farishta qanotlari bo‘lgan boyinga taqadigan taqinchoq edi. Manosi esa Farishta misol beg‘ubor va betakrorsan degani edi. Aynan Dilshodaga hos). Qaytishda juftliklar juftliklar bo‘lib suhbatlashib qaytishdi. Azamat Bahorga kelgusidagi rejalarini aytar qaysi vaqtga sovchi jo‘natatishini ham aytib o‘tdi. Azamatni aytishicha opasi Munira opa yaqinda

turmushga chiqadi keyin navbat Azamatga kelar ekan.shundann keyin bemalol sovchi jo'natishini aytdi. Salohiddin va Dilshoda ancha tinch ketishar edi. Salohiddin Dilshodaga qachondan beri sevishini aytib kelardi. Dilshoda ham indamasdan uni eshtardi. Orada hazil ham qilib turardi yigit tushmagur. Tug'ilgan kun ajoyib bo'ldi.

Tug'ilgan kundan keyin anchagacha Bahor o'zini qilganlaridan maqtanib yurdi. Ahir hammasini o'zi rejalashtirgan edida. Dilshodani Salohiddin bilan bo'lgan munosabatlariga chin dildan quvondi. Dilshoda esa Malikka olgan sovg'asini qaytarib berdi. Uning uchun sadoqat birinchi o'rinda edi.

Keyingi kunlar o'qish bilan band bo'lishdi. Kollejning uchinchi kursida ko'proq kasbga oid darslar o'tilardi, shunday bo'lishiga qaramay din tarixi darsi ikki haftada bir marotaba o'tiladigan bo'lib kelmoqda edi. Bugun ham uchinchi para darsi din tarixi o'tiladi. Har doimgidek Ahmad ustoz vaqtida kirib keldi. Hamma bilan salomlashib bo'lgach, bugun biroz charchaganini darsda iloji boricha tinchlik saqlanishi lozimligini va uyga berilgan "O'rta asrlardagi diniy madaniyat" mavzusida birin ketin o'quvchilar malumot berishini aytdi. Hamma o'qib kelgani bo'yincha qisqa qisqa malumot aytdi. Ohirida Bahor savol tashladi o'rtaga

- Ustoz o'rta asr madanyatida cholg'u asboblari, musiqa va rassomlik ham bo'lgan-a?

- Ha. Bu haqda darslikda yozilgan ham.

- Ustoz bir narsaga hayronman rasm chizish harom deyilgan, musiqa tinglash ham shunday aytilgan lekin bular amallarga itoat qilishmaganmi? - yana so'radi Bahor.

- Nega bunday deyapsiz buni qayerda ko'rdingiz? - so'radi ustoz bosiqlik bilan.

- Dadam menga olib kelgan kitoblardan. - Bahor javob berdi.

- Siz aynan qanday kim yozgan asarni o'qiyapsiz. U kitobizda yana nimalar deyilgan?- ustoz so'radi.

- Aynan muallifini bilmayman lekin ko'p narsalar yozilgan. Harom va halolni farqlari aytilgan, Xudoni kalomlari yozilgan, Jihot haqida aytilgan. - Bahor o'qiganlarini bir bir eslab o'tdi.

- Ho'p muallifi yozilganmi, biror joyiga?

- Yo'q ustoz ko'rmadim, muallifi yozilmagan.

- Ho‘p. Muslimova Xudoni kalomi dedingizmi? Nimalar deyilgan u yerda?

- Mumkun bo‘lgan va bo‘lmagan narsalar. Yana ustoz sizdan so‘ramoqchi bo‘lganim. Bizda o‘lim hukmi bekor qilinganku lekin boshqa islom davlatlarida o‘lim hukmi borku. Nega bizda yo‘q, qanchadan qancha odamlar birovni o‘ldirib pushaymonman deb chiqib ketishadi. Avvallari o‘lim hukmi bo‘lganku.

- Biz, yani mamlakatimiz Birlashgan millatlar tashkilotiga qo‘shilganda, butun jahon inson huquqlari va erkinliklari talablariga roiya qilgan holda o‘lim hukmi bekor qilingan. Ho‘sh bu huquqiy jihatdan. Endi diniy jihatdan aytadigan bo‘lsak har bir insonni umrini faqat Yaratgan beradi va yana Faqat ul zotgina umrni olishi mumkin. Bandasi emas. Yana Yaratgan mehribon Tangri nomi bilan Payg‘ambarimiz (S.A.V) aytadilar; Halokatga olib keluvchi yetti gunohdan saqlaning

1.Tangriga shikr keltirmoq yani Olloh birdan ortiq va unu biror makoni bor deyish.

2.Sejr bilan shug‘illanish

3.Birovni nohaq o‘ldirmoq

4.Sutxo‘rlik

5.Yetimni molini yemoq

6.Vatan mudofasi uchun bo‘layotgan jangdan qochish

7.Erli, muslima, iffatli ayollarni yomon otliq qilib tuxmat qilmoq.

Ko‘rdingizmi. Buni barcha o‘quvchilar eshitib olsin. Yana kimdadir savol bo‘lsa marhamat. Savol yo‘q bo‘lsa gap shu.

- Ustoz yana bir gap, - yana savol tug‘ildi Bahorda. – Jihod va Shahidlik haqida nima deya olasiz?

- Biz bu haqida alohida mavzu qilib o‘tganmiz, hatto butun bir bob ham bor edi. Men sizlarga aytgandim esingizlarda bo‘lsa. Jihod ikki turga bo‘linadi ham deganman biz ko‘pinchi ikkinchi yani "buyuk jihod" ga etibor berishimiz kerak. Bu esa o‘z o‘zini ustidan qilingan g‘alabadir, aniqroq aytganda o‘z nafsiga qarshi kurashish buyuk jihod deyiladi. SHahidlik esa buyuk maqsadlar yo‘lida Olloh yo‘lida fido bo‘lganlar buni hozirgi zamonaviy talqin qilinyotgan har hil manolariga etibor bermanglar. SHu orada bir gap aytib ketsam, tanafusga oz qoldi gapimni aytib bo‘lmagunimcha hech kim o‘rnidan turmaydi maylimi. Hozirgi

kunda diniy ekstremizm oqimlari ko'payib ketgan. Bunga sabab nima deb o'ylaysizlar? O'zim javob beraman. Odamlar din haqida aniq taassurot va malumotga ega emas. SHunung uchun ham bazi o'zidan chala mulla yasab olgan shaxslarga ergashishadi. - tashqaridan qo'ng'iroq ovozi eshtildi hech qaysi o'quvchi o'rnidan jilmadi. - Agar o'zlarida mustahkam e'tiqod bo'lganlarida bunaqa har hil gaplarga ergashmasdi. Bularni hammasi bilimsizlikdan. Mayli endi sizlarga ruxsat. Uyga topshiriq bugungi mavzuning ikkinchi qismi.

Bahor biroz to'xtang. - birin ketin chiqib ketyotgan odamlar orasidan Bahorni to'xratdi Ahmad ustoz. Bahor doimgiday Dilshodani o'zi bilan olib qoldi. Qog'ozlari solingan partfelidan kitob chiqarib berdi. - Bu Amina Shenlik O'g'luning Nasroniy Atirgili asari.

- Nasroniy? - Bahor ajablabdi.

- Huddi shunday. Bu kitob mendan sizga men o'qib bo'lganman. Buni hohlang sovg'a deb biling hohlang darsdagi ilmga chanqoqligingiz uchun rag'bat. Nima bo'lsa ham bu kitob sizga o'qib chiqing. ~ deb o'zi sinf xonadan chiqib ketdi

Kelasi hafta Bahor yana Geografiya o'qtuvchisi Abduqodir ustoz bilan gap tortishib qoldi. Nima emish Qur'onda yer tekis deyilgan ekan. Bahor kitobida shunday yozilganini aytib ancha ustozni miyyasini aynitib o'tirdi. Ustoz han erinmasdan hammasin itushibtirdi. Muqaddas kitobda yer tekisligi haqida hech nima deyilmaganini faqat "yoyilgan" degan so'z aytilganini u yoyilgan ham yer nematlari insonlar va barcha mavjudodlar uchun yoyib berilganligini aytib berdi. Abduqodir aka ham geografik jihatdan ham diniy jihatdan barcha gaplarini isbotlab berdi. Geografiyadan boshqa darslarda ham Bahor o'qtuvchilar bilan baxslashib chiqdi. Yana ustozlar aytgan gaplarni isbotini so'rab turib oldi. Kollej o'qtuvchilari sovodli emasmi hammasi isboti bilan ko'rsatdi lekin orasida diplomini oqlay olmaganlari ham bo'ldi bundan Bahor ana meni kitobimda ham to'g'ri aytiladi deb hursand bo'lib qoldi.

Yakshanba kuni kechqurun Bahor tashqariga chiqib ketgandi honasiga keldi. Bu voqea Dekabr oyida bo'lgandi. Bahor kirib kelsa Dilshoda uni kitobini o'qib o'tirgan ekan.

- Ha Dilish meni kitobimni o'qishni boshladingmi - deb so'radi chunki avval Dilshoda bu kitoblarni o'qishni hohlamagan edi. Hozir esa varaqlab o'tirardi. Bundan albatta Bahor hayron qoldi.

Bundan albatta Bahor hayron qoldi.

- Sen meni kitobimni o'qiyapsanmi?

- Ha sen nimalarga aldanib yurganingni biloqchiman. - javob berdi Dilshoda.

- Qanaqa aldanish??? - hayron bo'ldi Bahor.

- Qanaqa bo'lardi Bahor! SHuncha vaqtdan beri tortishmagan o'qtuvching qolmadi. Hamma bilan baxslashib chiqding yana hammasi diniy mavzuda kitobimda unaqa yozilgan bunaqa yozilgan. Hammasini manashu kitobing sabab, shuning uchun uni o'rganib chiqmoqchiman. - deb kitob varaqlashni davom etdi. Ancha vaqtgacha kitob varaqlab o'tirdi. Yana o'zini kitobini ham yoniga olib olgan bir nimalarni o'qib hayron qolar, Astag'firulloh Astag'firulloh deb qo'yardi. Birozdan keyin kitobni yopip qo'ydi.

- Ho'sh? - dedi Bahor, Dilshodani gohida zimdan kuzatib gohida tashqariga chiqib ketib poylagandi.

- Sen bu kitobni yaxshisi tashla. Nimalar yozilgan a tovba tovba. Qara buni 26-varaq. Endi buni qara 143-varaq. Nima deyilgan bu kitobda senikida nima deyilgan? Menikini muallifiga qara Rahmatulloh qori Obidov. Bunisini qara SHayx Muhamma Sodiq muhammad Muhammad Yusuf xazratlarini asarlari qara qanaqa tofovut bor. Bu kitobni senga beraman yaxshilab o'qib ko'r.

Ko'llejga Nayabr oyi shu tariqa o'tdi. Dilshodani qistovi bilan Bahor do'sti aytgan kitoblarni o'qib chiqdi.

Dekabr oyida o'qishga qizlarni kursdoshi Anora to'qish uchun narsalar olib keldi. Negadir Bahor bunga qiziqib qoldi. To'qishni o'rgatishni so'radi. Anora ham rozi bo'lib o'rgatdi. O'rganishiga ikki kun ketdi halos. Anora ham yaxshi o'qtuvchi ekan tez tez o'rgatib tashladi. Bozordan bir hil rangdagi iplarni olib kelib to'qishni ham boshlab yubordi ko'llejga olib kelib Anoradan endi qanday endi qanday deb so'rab turdi. Avvaliga Dilshoda buni o'rganish uchun deb o'yladi keyin ishni yaxshiroq boshlagach kimga to'qiyapsan deb so'radi.

- Kimga bo'lardi Azamatga yaqinda tug'ilgan kuni.

- Yo'g'ey?! Qachon ekan?

- Yanvarni 8chisida.

- Rostanmi? U bu narsa rejalashtiryapdimi? Meni tug'ilgan kunimdak? Salohimdan so'rab ko'rishim kerak ekan. - darrov telefonini olib qo'ng'iroq qilishni boshladi.

- Nima deding Salohim? Voy sen qizey egalik qo'chischasini qo'shishni ham boshladingmi?
 - Ey jim Bahor! Gaplashmoqchiman. Alo Assalomu alaykum yaxshimisiz.
 - Salohiddinim Salohhhiiiiim - qitmirlilik qilib gapirishni boshladi Bahor.
 - Nima? ~ Dilshoda darrov telefonini mikrafonini o'chirdi. - jinni. Tentakmisan?
 - Habaring yo'qmidi? - kuldi Bahor. - nega mikrafonini o'chirding? Salohiddinim deb gapirardim biroz.
 - Bahooooor. Ey sen unaqa qilmasdingku nima bo'ldi?? Tajublanib so'radi Dilshoda.
 - Nima senga mumkin menga mumkinmasmi? Hazillashyapman men ham. ~ hazilini qo'ymadi Bahor.
 - Hozir tashqariga chiqib ketaman orqamdan kelsang ko'rasan nima qilishimni. Hazilingni burningdan buloq qilaman aa. ~ mikrafonni yoqib tashqariga chiqib kettdi Dilshoda.
- Bahor ichkarida biroz kulib turdida eshikka yo'naldi. Eshikni ochib hoooooy dedi. Dilshoda orqasiga o'grildda boshini chayqab pastga tushib ketdi. Bahor mazza qilib kulib yana sharfini to'qishga tushdi.
- Dekabr oyi ham bitdi hamma yangi yil shukihi bilan yuribdi. Ko'llejda yangi yilda niqoblar bazmi bo'ldi. Bizni qizlar ikkinchi kurs ular ham bayramni hamma bilan nishonladi lekin niqob taqib har hil ko'rnishga kirishmadi. Baryamdan so'ng hamma uy uyiga tarqaldi.
- Bahor uyiga Bayram shukuhi bilan qaytdi. Uyida Dadasi esa hech qanday bayram yo'q bu bizni bayramimiz emas deb turib oldi. SHu bilan bayram nishonlanmaydigan bo'ldi.
- SHu bilan Muslimovlar xonadonida hech qanday bayram nishonlanmaydigan bo'lishdi. Bahor dekabr oyining ohirida uyiga kelgan bo'lsa ikki kun dam oldida keyin darslarini qilishga tushdi. Dasr qilib o'tirganda onasi unga yordamlashishini so'rab qoldi. Qiz daftarini yopdida onasini oldiga oshxonaga ketti. Onasiga yordamlashyotganida dadasining qattiq g'azab bilan uni chaqirganini eshitdi. Onasi bilan qo'shib xonaga chiqsa qo'lida Bahorning kitoblarini ushlab dadasi turar edi.
- Qayerdan olding buni? - so'radi dadasi vajohat bilan.

- Dadasi tinchlikmi? - hayron qoldi ona.
- Sen jim tur. Qayerdan olding deyapman senga? Qachondan beri o'qiyapsan buni? Gapir!!! - baqirdi Bahorga.
- Dadasi nima bo'ldi o'zi? - haliyam hechnimani tushinmadi ona.
- Sendan so'rayapman qachondan beri o'qiyapsan? - indamayotgan qiziga taziq o'tgazdi ota.
- Men... men buni yaqinda oldim hali bir varaq ham o'qimadim. - deb qiz yolg'on gapirdi qo'rqib ketganidan.
- Rost aytyapsanmi? O'qimadingmi? - so'radi ota yana.
- O'qimadim - dedi yana ko'zlarini pirpiratib.

Keyin otasi biroz tinchlanib bundan ikki hafta avvalgi bo'lgan voqeani esladi. Ular yani Abdulla aka va uni birodarlari birga to'planib maruza qiladigan joyga yaqinda ularni sefiga kelib qo'shilgan yoshroq yigit kitob ko'tarib kelgandi. Abdulla aka Abduvahob amakiga qo'shilganidan buyon biror bir kitobni o'zicha olmagan bar doim ularga Sayidali domla kitob berardi. Haligi yoshroq yigit Mahmud kitobini olib kelib hammaga ko'rsatmoqchi edi. Yonidagi bittasiga endi ko'rsatyotganini, payqab qolgan Abduvahob Mahmudni sekin chetga olib chiqdida gaplashdi. Bu kitobni qayerdan olganiniva qancha qismini o'qib o'rganganini so'radi. Mahmud bo'lsa kitob kattaligiga qaramasdan qisqa fursatda deyarli yarmini o'qib bo'lganini aytib maqtandi. Abduvahob esa yuz qiyofasini o'zgartirmay Sayidali domlani yoniga kitobni olib chiqib ketdi. Sayidali domlaga gaplarni aytib berdi. Domla maruza aytish uchun hamma toplangan joyga chiqdi. Uni ko'rib Mahmud jonlandi chunki u o'qigan kitobidan domlani maruzalari farq qilayotganini payqagan bugun ham shuning uchun kitobni o'zi bilan olib kelib domlaga ko'rsatmoqchi edi. Mahmud domlaga savol bermoqchi bo'lganida uni to'xtatib qo'ydi va kitobni olib hammaga ko'rsatdi.

- "Bu kitob - dedi qo'lidago kitobni hammaga ko'rsatib. - Bizni sizlarga o'rgatayotgan talimotimizdan farq qiladi. Bilasizlarmi nimaga? CHunki bu kitob Iso Masixga ergashgan musulmon tarafidan yozilgan. - dedi hech kimni javobini kutmasdan. Hammani tajublanganini ko'rib so'zini davom etdi. - Sababi meni bunday gapirganimdan hayron qolyapsizlar shundaymi lekin bu rost gap. Sobiq ittifoq davrida kofirga yaltoqlab men taqvodorman deb bir ikkita hadisni yod olib, mustaqillikga erishgandan keyin ham doim ularni tarafini olib har hil

laganbardorliklar qilib o‘zini nafsini o‘zini hamyonini o‘ylab yashagan odamlarni kitobi bu. Bilasizlarmi bizni dinimiz qanday sof din men sizlarni bunaqa narsalar o‘qib fikrlaringizni buzilishini hohlamayman. Bu kitob bizni talimotga to‘g‘ri kelmaydi. Buni o‘qishni tafsiya qilmayman. - degandi.

O‘sha kuni haligi yigit odamlarni ohirida chiqib ketmasdan turuvdi. Abdulla aka kelasi maruzaga ertaroq keldi. Qarasa doim erta keladigan Mahmud yo‘q. Odamlar yig‘ilib maruza boshlansa ham yigit kelmadi. Ohiri maruza tugab Aduvahobdan so‘rasa u endi kelolmasligini aytib ketgan ekan. Abdullani hayron qolib indamay qo‘yishdan boshqa chorasi yo‘q edi. Uni hech nimadan habari yo‘q. Mahmud o‘tgan safar hamma ketganidan keyin kitobini so‘rab domlaga borgan va uni aytgan gaplariga ishonmayotganini bu kitobda juda bir boshqacha narsalar yozilganini va ular haqiqat ekanligini aytadi. Bu yerdagi odamlar Mahmuddan endi foyda yo‘qligini va uni turgan bitgani zarar ekanligini tushinib, qo‘lidagi odamlar safidan o‘chirib tashlashadi.

Yangi yil ham o'tib. O'qish boshlanishidan bir kun avval dugonalar yotoqxonaga kelishgan. Birinchi kundan Bahorda nimadir boshqacha ekanligini sezgan Dilshoda uni so'roqqa tutib bor gapni bilib oldi. Voqealarni tinglagandan keyin o'zi ham bu haqda fikr bildirdi.

- Bahor bu dadangni qiliqlari senga shubxali tuyilmayapdimi? Ahir ustozlarimiz tafsiya qilgan kitoblar ediku ular. Yoki dadang xato fikrlayapdi yo bo'lmasam umuman dadang ishongan odamlarni hammasini fikrlari xato.

Bu gaplarni aytgandan keyin Dilshodani o'zi ham o'ylanib qoldi dugonasining oilasidagilar qanday tasirga tushib qolgan o'zi? Nimaga bitta kitob uchun bunchalik katta muammo? Dilshoda Bahorni qiynalishini umuman hohlamasdi so'ng bu haqda gaplarni to'xtatib turdi albatta vaqtinchalikka chunki hozir ancha kech bo'lgan uxlash kerak.

- Mayli Bahorim kech bo'ldi sen uzoqroqdan keldingku endi uxlaymiz. - ded dugonasini uxlashga undab Dilshoda.

O'zi esa biroz vaqtgacha uxlamay o'tirdi, birozdan so'ng Bahorni bir maromdagi nafas olishi eshtildi. Uxlabdi. Dilshoda ham uxlashga harakat qilib ertaga Abdulla aka va u qatnab yurgan maruzlar nima haqida bilishni hohladi.

Yangi yildagi tatildan keyin o'qish ham boshlandi. Bahorlar bilan paralel kursda o'qiydigan bir yigitni boshqacha nigohlarini qiz anchadan beri xis qilib yuribdi. Bugun ham tanaffuz paytida tashqaridan yuqori qavatga chiqayotgan Bahor o'sha yigit bilan turtilib ketdi. O'zi Bahorni bo'yi anchagina baland edi Azamat ham undan juda uzun emasdi orada bo'lsa bir 10-12 sm bor edi. Bu yigit esa naqt oq terakni o'zi Bahor uni to'g'ri borib iyagini tagiga kirib ketishiga oz qoldi urikib ketgan zarbdan pastga yumalashiga sal qolgan qizni yigit tutib qoldi. Nima qilishini bilmay qolgan qizdan qo'llarini sekin olib uzurini aytib ketib qoldi.

Ohirgi para darsida Dilshoda ertangi kun uchun Salohiddin ajoyib joy topganini va ular ikkalasi sovg'a ham tanlab qo'yganini malum qildi. Biz Salohiddin bilan u qildik bu qildik Salohiddin unday dedi bunday dedi deb Dilshoda Bahorni quloq miyyasini yedi. Ohirgi kunlarda Bahor juda o'yga tolib yuribdi o'zi Azamat bilan uni munosabatlari qanaqa? Ular nahot bir birlariga Salohiddin va Dilshoda chalik yaqin emas. Bahor Azamat uchun kim o'zi? O'ziga o'zi berilgan savollarda doim

ham ijobiy javob ola olmasdi. Munosabatlardagi chalkashliklar, o'rtaga qo'yilgan masofa, hamma hammasi Bahor uchun bir katta jumboq edi. Bazan yo'q Azamat akam meni sevadi ularni sevgisi shunday biz oila quramiz deb o'zini huddiki yupatib qo'yadi. To'g'ri Azamat uni sevmaydi shunchaki o'yin uchun yuribdi deb umuman ayta olmaymiz Azamatni tabiyati shunaqa sevgisini ovoza qilmaydi nafaqat sevgisini balki boshqa hislarini ham masalan jaxlini, qayg'usini odamlarga maxsimal darajada o'zini hotirjam qikib ko'rsatadi. Uni faqat oila a'zolari va ikkitagina eng yaqin do'sti biladi o'sha do'stini biri bi Salohiddin. Yana Azamatni felini to'liqroq ochib beradigan bo'lsak u biror bir gap aytsang yo ha demaydi yo yo'q lekin o'sha gapni qilib bo'lganingdan keyin bu narsa hato edi deydigab insonlardan. Avval o'zingga qo'yib beradi, so'ng kamchiligingni aytadi. Rashk boradida bir martasini tushinishga harakat qiladi iloji boricha sokin turadi lekin ko'z oldida o'ziga qadimli bo'lgan odamni boshqasi bilan sal yaxshiroq gapirganini ko'rsa ham hamma joyga o't beradi. O'zi avvaldan indamagandan qo'rq deyishgan. Oilasidagilar Azamatni jaxli chiqqanini kamdan kam ko'rishgan lekin o'rtoqlari bu holini yoqqol ko'rishgan edi. O'shanda Azamat 9-sinf bo'lgan edi. Kichik sinfligida Salohiddin uyidagilar bobosini uyidan alohida ko'chib chiqishgandi maktab uzoqroq bo'lgani uchun Salohiddin boshqa maktabga o'tgan, lekin shunda ham har ikki kunni birida o'rtog'ini ko'rushga kelardi. O'sha 9-sinf bo'lgan paytida esa pralel sinfdagi bolalar 8- sinfda o'qiydigan Azamat o'zicha yoqtirib yurgan qiziga gap otishgab ekan. Buni o'sha qizni sinfdoshi bo'lgan Azamatni qo'shni qizi yigitga yetgangan. Yoqtirgaa qiziga gap otayotgan bolalarni dabalasini chiqarish uchun sinfiga borib rosa urishishgan edi. Salohiddin ham o'sha payt maktabda bo'lganligidan ajratishga yordam bergandi. Hali bir og'iz gapirmagan qiz uchun shuncha mashmashada. Keyin uqiz 8-sinfni tugatmasdan ancha bolalar bilan gaplashib tashklagan. SHundan keyin to'g'risi Azamat qizlarga ko'p ham suykalmagan. Bahor uni yuragida unib chiqqan yagona novda bo'ladi.

Allanimalarni hayol qilib o'tirgan Bahorni Dilshoda gapirib chalg'itib yubordi.

- Hoy qiz senga boyadan beri gapiryapman, seni qulog'ing qayerda o'zi?

- Qulog'im?! Joyida.

- Bilaman joyidaligini nega gapimni eshitmaysan deyman senga. Aytyapman hozir darsdan chiqib to'rt uchun masalliqalar olgani boramiz ertaga bayram qilamiz keyin.

- Azamat nima derkinlar?

- U biror narsa deyishi shart emas uni Salohim olib keladi keyin biz ikkalamiz surpiriz qilib oldiga chiqamiz sen o'zingni sovg'angni biz esa o'zimiznikini beramiz ajoyib sovg'a tanladik aniqrog'i men tanladim Saloh pulini to'ladi. - kulib qo'ydi Dilshoda. - Yur!

- Qayerga? - yana savol berdi Bahor.

- Voy qayerga bo'lardi tugadi dars yuuur. - Hali bozorga tushishimiz kerak. Nima bo'ldi o'zi senga oydan tushgandek yuribsan? - Dilshoda Bahorni yuziga biroz qaradi. Keyin nimanidir faximlagandek uni chetga tortib savol berdi.

- Senga nima bo'lyapdi o'zi Bahor? Hayollaring qayerda o'zi? - jiddiylashdi Dilshoda.

- Nima bo'bdi? - yana alangladi.

- Sen o'zi kelganingdan beri boshqachasan? Nimalarnidir o'ylab yuryapsan. Bor gapni aytding deb o'ylagandim. Bugun esa Azamat deyishim bilan yana hayolga cho'myapsan. Yoki Azamat bilan oranglarda gap qochdimi? Lekin bunaqa bo'lganda Saloh meni behabar qoldirmasdi. - o'zicha mulohazalar qilib tashladi Dilshoda.

- Yo'q aslida men sizlarni o'ylayapman qachon bunaqa yaqin bo'lib qoldizlar nega biz sizlardek yaqinmasmiz? Negadir bizdan ko'ra sizlar ancha payt gaplashganga o'xshab ko'rinyapsizlar. Aslida esa biz shunaqa yaqin bo'lishimiz kerak ediku? - gapni to'lig'icha aytmay biroz uchini chiqarib qo'ydi halos Bahor.

- Nima hozir sen bizlarni ko'rolmayapsanmi? - jiddiy qaradi Dilshoda. - Aniq ko'rolmayapsan biz shunaqa zo'rmizda. Ajab bo'sin ho'p bo'lsin. - kulib yubordi qiz. - Demak sen hali Azamatjonni o'ylab ketayotgan ekansanda vayeyy. Ho'sh qayergacha o'ylading? Oila qurganizni ham tasavvur qilasanmi☺?

- E nima deyapsan? Bo'lmagan gap men shunchaki.... eee. - Dilshodani gapidan qizarib ketdi qiz.

- Xaxaxaxa topip qo'ydimmi tentak qiz yur borozga tushishimiz kerak. ~ qo'lidan sudrab pastga olib ketdi.

Bozordan barcha kerakli masalliqnlarni olib kelishdi. Dilshoda Gazetada ko'rgan retsepti bo'yincha to'rt tayorlashni aytsa Bahor qo'shnisidan o'rganganini qilmoqchi bo'ldi. Ikkalasi ham azgincha tortishib ohiri to'rt pishiradigan pazanda kursdoshidan retsept olishdi. To'rt ham tayyor uni birgalikda pishorishdiyu lekin

bezagiga kelganda Dilshoda chetga qochdi bu sening to‘rtinchi aslida o‘zing bezat ertaga yaxshiroq maqtanasan dedi. To‘rtinchi ham tayyorlab bo‘lishdi soat esa 02:45ni ko‘rsatmoqda. SHu payygacha ham o‘tiradimi deb bir biri bioan kulishib to‘rtinchi muzlatgichga qo‘yib uxlashdi. Ertasi darsdan keyin aytilgan joyda chiroyli kiyinib borishdi dasturxonlarni tayyorlab to‘rtinchi sal keyinroq olib kelsin deb ichkariga berib yuborib Azamatni kutishdi. Salohiddin Azamat bilan kirib kelishdi. Ichkariga kirmaslaridan avval bilib bo‘lgan shekilli hayratlanmadi tabassum bilan keldi. Tabriklarni eshitib stol atrofiga jam bo‘lishdi. Biroz hol ahvol so‘rashildi buyurtma qilingan ovqatlar olib kelindi undan keyin to‘rtga navbat keldi to‘rt bilan boshqa sovg‘alar ham berildi Dilshoda va Salohiddin o‘zini sovg‘asini berishdi Bahor hamiymanibgina sovg‘asin berganda sovg‘a tarixini Salohiddin aytib berdi. Albatta buni Dilshoda aytib bergabda avval. Ko‘zlari quvonchda to‘lgan Azamat sharf va bosh kiyimni kiyib oldi. To‘rtinchi ham o‘zlari pishirishganini Dilshoda sotib berdi. Salohiddin sekin Azamatga egilib wizlarga eshitdirib pichirlab gapirdi to‘rtinchi avval o‘zlari tatib ko‘rishsin hech nima qilmasa biz yeymiz dedi. Albatta qizlar buni eshitishgandi birinchi bo‘lib Dilshoda kirdi tilga.

- Salohiddin akaa eee. Solmagandik hech nima, endi yaxshi eslatdiz kelasi safar shunaqa qilamiz. Bir joyini yaxshi qilib qo‘yamizda o‘zimiz shu joydan yeb zaharlangan joyini sizga beramiz. - azarlagan bo‘ldi qiz.

- Voy sizni qo‘lizdan zahar ham yeymiz yaxshi qiz. - ko‘zini qisib qo‘ydi Salohiddin. - Bilaman suluvim agar siz aralashgan bo‘lsangiz pishirishga albatta yaxshi chiqqan.

Bu gaplar hammasi qiqirlab kulib yubordi.

Tug‘ilgan kun ham ajoyib bo‘ldi. Qizlarni yigitlar kuzatib qo‘ydi alohida alohida suhbatlashib ketishdi.

Bugun Bahor Azamatni yana sevib qoldi. Bekor o‘ylangan ekanman u ham meni sevadi nigohlari aytib turibdi deb qo‘ydi ichidan.

Bir hafta ichida Bahor ancha ochilib yurdi

Bir haftadan keyin Azamat uni ko‘rishishga chaqirdi. Azamat ko‘rishmoqshi deb aytsa bu yog‘da Dilshoda ham uchrashuvga taklif olib turgandi. Ikkalasi ham bir joyda yana nimani boshlashgan ekan deb hush kayfiyatda uchrashuvga chiqishdi. Odatda doim ular faqat tug‘ilgan kunlarda yig‘ila olardi boshqa payt faqat telefon bilan cheklanishardi. Tayinlangan joyga borishdi ular jiddiy qiyofada qizlarni kutib turardi. Jilmayib kelayotgan malaklarning ularni ko‘rib ichlariga g‘ulg‘ula

tushishdi. Biror nima bo'ldimikin deb. Holahvol so'rashilgandan keyin aniqlanishicha harbiylar aytilishi mumkin bo'lmagan safarga ketishayotgan emish qachon qaytishlari nomalum.

- Bahor, shunday bo'ldi endi bizni ishimiz shuda - imkoni boricha qizni tinchlantirib ketmoqchi edi Azamat.

- Lekin biz qancha muddatga yo'q bo'lishimizni bilmaymiz. Eng qisqasi bir yil.

- Nima? - ajablandi Dilshoda. Bahor esa hayrobligidan indamasdi....

- SHunaqa suluvim. Bir yarim ikki yilda ham kelishimiz mumkin. - javob berdi Salohiddin.

- Menchi? - yig'lamsirab yubordi Dilshoda. - Yani bizchi?

Uning bu qilg'idan Salohiddin jilmayib qo'ydi keyin uni yupatishga tushdi.

- Sizmi? Siz aqilli qiz bo'lib yurasiz. Kollejni ham tugatishizga ozgina vaqt qoldi uni tugatib oliy oqishga kiring. Ilojini qilsangiz..... bilasiza meni rashkimni? Ho'pmi to'g'ri yuring. - yumshoqlik bilan gapirishga harakat qildi Salohiddin.

- Ho'p. - deyishdan boshqasi qo'lidan kelmadi Dilshodani.

- Bahorim! O'zingni extiyot qil ho'pmi? Kutasana? - umid Bilan so'radi Azamat

- Albatta kutaman. - dadil javob berdi Bahor.

- Biz ketishimiz kerak. - Salohiddin Azamatga yuzlandi. - Suluvim, o'zingizni ehtiyot qiling iltimos.

Gapni ortiqcha cho'zib o'tirmadi Salohiddin.

- Ko'rishguncha. - Azamat Salohiddindan ham qisqa xayrlashdi.

Orqaga o'girilib keta boshlashdi qizlar biroz turdida ular ham endi orqasiga qayrilganida qadam tovushlari sabab o'girlashdi Azamat kelib Bahorni bag'riga bosdi. Seni sog'inaman deb shivirladida qo'yib yubordi. Bahor esa hechnima deya olmasdan qoldi. Salohiddin esa yuzida yorqin tabassum bilan turardi unga ko'zi tushgan Dilshoda ham jilmayib qo'ydi.

Yur Azamat degan ovoz kelgandan keyin shahdam qadamlar bilan qizlardan uzoqlashib ketishdi.

Azamat va Salohiddin ketishganiga ham bir oydan oshdi, Fevral oyi.

- Ha albatta biz shu Dilshoda bilan o'tiribmiz. Ertaga bor darsimiz ha. Uch parada har doimgidek. Yo'q ruxsat olmayman, o'qishku. Yo'q iloj yo'q. Mayli yaxshi dam oling. Ho'p rahmat.

- Ha buncha telefonga yopishib qolding? - go'shakni qo'ygan Bahordan so'radi Dilshoda.

- Bu haligi paralel kursdagi Mustafo. Taniysanku axir. - javob qildi Bahor.

- Ha taniyman lekin uni senda nima ishi bor? O'zi ikki kun avval telefon qilgan bo'lsa endi yaxshi dam olinggg tushdingmi? - basharasini bujmaytirib gapirdi Dilshoda. - Tovba esingni yebsan sen qiz. Yo'q bunga kel yordam beray oilasi bunaqa bo'lib turibdi, yaxshi ko'rgan insoni uzoqqa ketdi, uni qo'llab quvatlay yelkadosh bo'lay desak bu tentak ikki kunda Mustofokuga o'tibdi. U odamga nima bor ekan a o'zi pedagogika kollejida. Bo'yi terakdek basketbolga borsa bo'ladi bemalol lekin, otasini maktab direktorligidan foydalanib pedagogika kollejiga kirvobdi. Endi buyog' kishimni boshini aylantirishga ham ulguribdi. Qachon bunaqa qiz bo'lib qolding hayronman a? ~ Bahorni og'zini ochirib shunga gap gapirdi qiz.

- Dilshoda men hech nima qilmadimku shunchaki so'ragan savollariga javob berdin halos. Bor gap shu. Yaxshi dam oling deganim bu seni sevaman deganimmas har holda. Bo'ldi uxla sen ham indamasa odamni nima deb tashlaysan a. So'ra avval surishtir bir gapga yopishishdan avval. Bo'ldi uxlayman men. ~ jaxil bilan Bahor ham uxlashga yotdi.

Mustafo haqida aytadigan bo'lsak u yangi yildan keyin Bahor zinada qoqilib ketgan yigit. Ko'pchilik uni gapirsa Dilshoda nuqul yoqtirmagan hozir ham Bahorni yaxshi suhbatlashyotgani yoqmagan bo'lsa suxbatdagi odam aynan o'sha Mustafo ekanligini bilib yana asablari buzildi. Bahorni indamasdan yurishi Dilshodaga ham yoqadi albatta.

Mart oyi ham yaqinlashib qoldi.

Bahorni tug'ilgan kuni ham yaqin bu yil 18ga to'ladi. Andijonda qish faslini ohiri ser yomg'ir bo'ldi deyarli har ikki kunni birida osmondan durday yomg'irlar quyilib kelardi. Shunday qishni sovuq kunlari Bahor va Dilshodani orasiga ham sovuqchilik solib qo'ydi. Yo'q bu sizlar o'ylagandek bir biri bilan tortishish qo'pol gapirishlar emas ikkisi ham jim edi. Bahorni Mustafo bilan ozgina muddatli

do'stligi eng yaqin dugonasidan sal kam ayrilishiga olib keldi. Nima uchun u Mustafo Bahorga yopishob olganini bilolmay Dilshoda hayron edi. Nega endi jon dugonamdan aynan shu bitta yigitni deb ayrilishim kerak degan fikr ham Bahorni tinch qo'ymadi. Mustafoga boshqa siz bilan gaplashmayman degan paytda uni qilgan ishini ko'rsangiz yoqa ushlashingiz turgan gap. Tashqi ko'rinish aldamchi bo'ladi deb shuni aytishsa kerak. Bu Mustafo ham yigit kishi bo'lgani bilan xotin kishidan battar ekan. O'zini rad etilgani uchun Bahorga tuxmat qilib yomon otliqqa chiqarib tashlashiga oz qoldi haliyam ko'pchilik Bahorni qanaqa qiz ekanligini biladi bundan tashqari Bahorni o'zi ham ortiqcha gap qilmagan suhbatlar iloji boricha qisqa qilingan edi. SHunda ham unga tuxmat qilmoqchi bo'lgan pandavaqini adabini berib qo'yish vazifanini Dilshoda o'z zimmasiga oldi. Ko'pchilikni ko'z oldida yigitni joyini ko'rsatib qo'ydi. Bo'lib o'tgan voqealardan keyin to'nini teskari kiyib oldi Dilshoda. Bahor bilan faqatgina tug'ilgan kunida yarashmib olishdi. Bunda ham birinchi bo'lib Bahor yon bosishiga to'g'ri keldi. Aslida ham munosabatlar bunday holga kelib qolishiga Bahorni arzimagan odamlar bilan vaqtini o'tgazishga harakat qilgani sababli edi.

SHunday qilib ikkita arazlashgan dugonalar yarashib bunday buyog'iga faqat Davlat test sinovlariga tayyorlanishga ahid qilishdi. Dilshoda har doimgidek gumanitar fanlarni tanlagan bo'lsa Bahor bu fikrdan yiroq edi. Unga ko'pincha aniq fanlar yoqardi. Umuman Bahorni bemalol biror bir o'qishga kitib keta oladi deb aytsa bo'ladi. CHunki bolib darahasi boshqalarga qaraganda yuqori edi.

SHanba kuni tong yorishmasdan Bahor uyg'oq edi Bomdod vaqti bo'lganida Dilshodani uyg'otdi va ikkalasi nomozlarini o'qib choyga haqarat qilishdi. Ko'pincha Dilshoda keyin uxlamoqchi bo'lar edi. Lekin bugun hayajonli kun bundan bir hafta avval barcha imtihonlar nihoyasiga yetgan, ko'llej ma'muriyati o'quvchilarni kuttirmasdan diplomlarini qo'llariga topshirishning mo'njallagan. Hullas bugun Diplom olish kuni. Diplom olib bo'lgandan so'ng hamma uy uyiga tarqaladi. Yotoqxona bo'shatiladi. SHuning uchun hamma narsa yig'ishtirilgan. Aytilgan soatga kollej binosiga borishdi va yig'ilishlar va bayramlar o'tkaziladigan kichik zalga yig'ilishdi. O'quvchilar birin ketin diplom olishga Kollej direktori yoniga oshiqishdi. Zalni ichiga 5 ta guruh yig'ilgan bu yili kollej tugallaydigan faqat 12 ta guruh bo'lib Bahorni guruhi ohirgi beshtalikka qo'chilgan edi. Nihoyat navbat Bahorni guruhiga yetib kelishdi.

- Keyingisi, 10-15 guruh o'quvchisi, Muslimova Bahor, tabriklayman qizim! Diplom muborak!

- Rahmat sizga, rahmat!

Qo'l siqib qo'yish va diplomni qo'lga olib bo'lgandan keyin qiz joyiga o'tirdi.

Uni diplomini shartta ochib ko'rmoqchi bo'lgan Dilshodani guruh rahbarini ovozi to'xtatdi.

- Musabekova!

Dilshoda qarasa Bahor bilan uni o'rtasida turgan kursdosh bola diplomini olib bo'libdi. Navbat o'ziga kelganini bilganqizni ovozi chiqmay borib diplomini olib keldi. Joyiga o'tirgach ayibdorona yelka qisib qo'ydi. Diplomdagi baholar ko'ngildagidek. Endi esa hamma o'z uyi tamon ketadi. Tashqariga chiqqan paytida Dilshodani olib ketgani uyidagilar kelgan ekan. Mashinadan birinchi bo'lib Dilshodni jiyani tushib keldi.

- Nelufaaar. Sen ham keldingmi?

- Assalomu alaykum. Tabriklaymaaan.

- Vaaleykum assalom. Rahmat rahmat. Qizilmas lekin, yaramaslar qizil topshirishmadi.

- Mayli.

- Jinni qiz mayli deydi. ~ kulib qo'ydi Dilshoda. Keyin naryog'dagi otasi bilan ko'rishgani ketdi.

Bahor esa chetta turib qoldi. Atrofda bir hil kursdoshlari va hozirgina bitta zalda o'tirgan o'quvchilarni ayrimlarini yonida otasi, onasi yoki biror yaqinlari bor edi. Ammo Bahorga o'xshab uyidagilari kelmaganlar ham yo'q emas. Dilshoda otasi va jiyani bilan so'rashib bo'lgach dugonasi esiga tushib uni dadasi bilan tanishtirmoqchi bo'ldi. Bahor ham uni otasini faqat rasmlarda ko'rgan edi halos. Salom alikdan keyin Bahorni kuzatib qo'yishmoqchi bo'lishdi. Bahor uyim uzoq shart emas deyishiga qaramasdan dadasi qizimni dugonasini taksida jo'natolmaymiz deb olib jorib tashlashini aytgandan so'ng rozi bo'ldi. Yo'lda uyoq buyoqdan gaplashib ketishdi.

Bahorni uyini eshigigacha olib kelishdida, Bahorni shuncha uyga kiringlar deganiga qaramasdan uyga yana yo'l yurishimiz kerak deb ketib qolishdi.

Bahor ularni orqasidan ancha kuzatib turdida qaytib darvozasi tamon qaradi. Bu darvozalar ortida uni nima kutayotganini bilasdi u...

- Farangiz sekinroq yugur!
- Opa choping bo‘ling bo‘ling!
- Yetib olay. Ozroq sekinlashsangchi!
- Bahor opa qarang!
- Umar, to‘xta pastga yaqin borma!
- Farangiz opa siz ham keling choping qarang.
- Ha nima? Vay opaaa keliing! Qaraang!
- Hoy gaplarimni eshitmaysizlarmi pastga dumalab ketasizlar. Qani nima? Vooyyy.
- Bahor opa zo‘r-a?
- Buncha ajoyib?! Farangiz ko‘rdingmi?
- Ha opa zo‘r juda chiroyli.
- Tog‘ lolasi bu.
- Bahor opa qip qizil ekan a?
- Ular qizil emas Qirmizi bo‘ladi Umar.
- Oyimni ham chaqiraylik.
- Dadamni ham.
- Yaxshi. Oyi?
- Dadaaaa.
- Oyiii? Dadaaaa?
- Qani ular Bahor opa?
- Opa mashinamiz ham yo‘q.
- To‘xtanglar! Biz uzoqqa ketmagandikku. Mashina ho anavi joyda bo‘lishi kerak edi. Qani u?
- Oyiiii? Dadaaaa?
- Balki pastga tusharmiz?
- Yo‘q Farangiz shu yerda bo‘lamiz.

- Oyim bilan dadam qani?
- Bilmayman Umar. Topamiz hozir.
- Pastga tushishimiz kerak.
- Yo‘q dedim shu yerda tur!
- Ko‘rish kerak.
- Qayt Farangiz! FARANAGIIIIIZ!
- OPAAAAA.....
- Farangiz!

Uyg‘onib kettim cho‘chib yonimga qarasam yonimda singlim yo‘q ekan xonaga ko‘z yugurtirib qidirib chiqdim qarasam sal nariroqdagi Jannat xolani orqasiga o‘tib qolibdi. Ong tarafimda esa ukam Umarbek yotardi. Allohimga shukur. Atrofimizda yana birqancha oilalar bor edi. Suriyaga kelib qolganimizga 7oy bo‘lyapdi. Bu yerga kelib dadam aytgan rushnoliklarning birortasini ko‘rgamimiz yo‘q. Hozir qishdan omon chiqib olish payidamiz. Omon qolish payida. Allohim bizni o‘zing qo‘lla. Bizga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsat o‘zing bilguvchi va marhamatlisan. Doim aytadiganim faqat va faqat shu. Allohimdan so‘raydiganim Vatanimga qaytish albatta oilam bilan. Oila azolarimni o‘zing panohingda asragaysan.

Bundan 7 oycha avval iyun oyining o‘rtalarida Diplomimni olib Dilshodalar bilan uyga kelib olgandim. Uyga kirishim bilan esa g‘alag‘ovurga duch keldim hamma ketishga shaylanyotgan ekan. Faqat meni kutishyapdi chamamda. Lekin men ketishni hohlamayman buni kimga aytishim mumkin? Men istamayman, sizlarni bu qiliqlaringizni ham ko‘rishni hohlamayman, otamning bu tarzda o‘zgatishini ham istamaganman, bu mamlakatdan ketishni ham hohlamayman.

Men meni eshitmayotgan bu uydagilarni nima qilishimni ham bilmayman. Bularga qanday tushintiramaan. Bu Islom emas bu bizni muqaddas Dinimiz emas. Nega tushinmaysizlar. Baqirgim kelyapdi. Biz u Allohning qaxriga uchraganlarni aytganini qilishimiz kerak emas. Bu gaplarimni eshtadigan tushinadigan menga quloq soladigan bitta bitta odam ham yo‘q. Xatto onam ham ular doim meni yonimni olib kelgan lekin ular ham otam qatnayotgan darslarni ayollar boradiganiga borgandan keyin o‘zgardi qo‘ydi. Yangi yildan keyin onamdan ham umidim uzildi. Ular ham otamdan qolishmas ular ham "o‘shalar" aytgan so‘zdan

qaytmasdi. Suriyaga ham ularni gaplari sabab ketyapmiz. Qarindosh urug‘imizni tashlab, qo‘ni-qo‘shnimizni tashlab. Nomalum muddatga ketyapmiz....

Qisqa muddat ichida ketishga tayorlandik. Otamni yaqin do‘sti bo‘lib qolgan Abduvahob amaki Turkiyaga bilek olib kelganda juda hayron bo‘lgan edim. Keyin ularni tushintirishi bo‘yicha biz havo yo‘llari orqali avval Turkiyaning Istanbul shahriga borar ekanmiz undan so‘ng esa Turkiyaning Gazintep shaxriga undan so‘ng esa Suriyaning Aleppo yani Halab shahriga o‘ta olarkanmiz. O‘zbekistondan chiqishimizda ham biz nima maqsadda Turkiyaga ketayotganimiz so‘raldi. Oilaviy bir balolarni bahona qilishdi uzoqda turganim uchun eshitmadim lekin meni ko‘rsatishdi menimcha o‘qish bahona qilindi. Biz bilan Abduvahob amaki ham ketdi ular Gazintep shaxridan bizni Suriyaga samalyotga o‘tqazib o‘zlari yana O‘zbekistonga qaytdilar. Halab shaxriga kelganimizda atrof ancha sokindek ko‘ringan edi. Biz Halab shaxridan avtobus orqali Deyr-ez Zor shaharchasiga boradigan bo‘ldik yo‘lni o‘zidayoq bizni har hil ko‘ngilsizliklar kutib oldi. Maskaneh shahrida bizlarni avtobusdan tushirib ikki soat piyoda yurishimizga majbur qilishdi. Aytishlaricha u yerlardan mashinada o‘tib bo‘lmas emish. Yo‘q aslida ular bizni narsalarimizni avtobusda qoldirib obdon tekshirishgan, buni men narsalarimni tartibi buzilganidan sezdim meni narsalarim solingan sumka eng pastda edi qaytib avtobusga chiqqanimizda meniki o‘rtada turganini ko‘rdim. Narsalar titilgami aniq edi.

Maskaneh shaxridan keyin Tabka shahrida biroz to‘xtadik undan keyin esa Abu Tabat shahrida poyezdimizdan yana tushirishdi keyin erkaklarni olib ketishdi hususan dadamni ham nega ketyapsiz deb yig‘lamsiraganimda "Buyuk" ishlar uchun ketishyotganini aytishdi bu Buyuk ishlar nimaligini Alloh biladi edi. Dadam biz bilan xayrlashyotganda qo‘lidan ushlab qolib so‘radim qachon kelasiz deb. Dadam peshonamdan o‘pdida tez orada dedi. Qiziq tez orada bu qanchalik uzoq muddat ekan a?!

Ular hali yo‘lga chiqib ulgurmasidan bizni avtobusimiz yurib ketti. Hech kimda otasi, eri, farzandi, uka, akasini qayta ko‘rmayman degan fikr yo‘q edi. Yo‘lga chiqqanimizdam beri biz bilan yonma yon kelayotgan ismini aytishicha Mahzuna bo‘lgan ayoldan qiziqib so‘radim.

~ O‘g‘lingizmi?

Menga yuzini burib qaradi va tabassum bilan javob berdi. ~ O‘g‘il bolaga o‘xshaydimi? U qiz bola Oisha! Oishabegim.

Adashibman kiyimlari hech qiz bolani kiyimiga o'xshamasdi odatda qiz farzandlar uchun ochiq ranglar pushti yoki qizil qo'llaniladi. Lekin buniki esa kul rangida va qora.

~ Vay qiz bolami bu hali. Qizchamisan seen ~ unga egilib uni erkaladim. Bir ikkita qiliq qildim. Negadir hech kulay demasdi. ~ Menimcha ko'p odamga o'rganmagan shekilli negadir hech yuzi yorishmayapdi.

~ Ha qizim bitta uyda yogona go'dak edi. Hozir bir yoshu yetti oylik doimiy bitta o'zi tarboyalanyotgani uchun ko'p odam bo'lgan joyda unchalik ochilmaydi. Yolg'iz bo'lganimizda esa mazza qilib o'ynaymiz. ~ deb qo'ydi qizini mahr bilan o'pib...

- Siz nega yosh qizchangiz bilan bu yog'larga keldiz? Nima sabab bo'lgan? - menga qiziq bo'lgani uchun og'zimni yopa olmay savol berdim.

- Men erim bilan keldim Alloh oldidagi farzimni bajarish uchun. Er nima desa so'zsiz aytganini qilish ayol vazidasidir. Siz bularni hali bilmaysiz shekilli. Biz hali buyuk maqsadlar yo'lida shahidlikka ham ketishga tayyor bo'lishimiz kerak. Otangiz onangiz o'rgatishmadimi? Bularni hammasi buyuk maqsad yo'lida musulmon birodarlarimizga yordam berishimiz keram shuning uchun kelyapmiz. - hech bir qiyinchiliksiz bunday gapirayotgan ayolga bir daqiqacha tikilib qoldim. SHahidlik dedimi? Qizi nima bo'ladi? Yo tovbaa.

- Kechirasizu lekin qizingizchi? Uni taqdiri nima bo'ladi Xudo ko'rsatmasin Otasi onasidan juda bo'lsachi, hozirgina eringizni olib ketishdi ularni yoqotsangizchi? - ayolga o'zimcha bir narsalarni aytmoqchi bo'ldim.

- Alloh yo'lida fido ketgan bo'lishadi. SHahidlikka.

Tamom bu ayolga gap uqtirib bo'lmas ekan. Bundan ortiq nima deyish mumkin?! Bularni aniq hammasini miyyasi zaharlangan. Aniq!

Atrofimga zimdan qaradim hamma hammasi o'zini Alloh yo'lida qurbon bo'lishga shayman deb atasa bejiz emas bularni yoniga qanday kelib qoldik a?! Yonimda o'tirgan Farangiz mudrab o'tirgandi uni qo'llaridan yaxshilab tutdim. Sekin ko'zlarini ochdi. Unga yaqin borib - Doim meni yonimda bo'l doim! Qo'llarimni qo'yib yuborma! Biz birga bo'lishimiz oilamiz bilan birdam bo'lishimiz kerak! - dedim sekin shivirlab. Bechora hech narsani tushinmay ko'zlarimga qaradi-da bosh chayqab ho'p dedi.

Avtobusda yana ancha yo'l yurdik. So'ng Deyr ez-Zor shahriga ham yetib keldik shaharga kelganimizdan keyin ham ancha ichkarilab bordik. Avtobusdan tushib ko'rgan manzaramdan ochig'i daxshatga tushdim. Shumi Islom?! Atrof harobazordan farq qilmaydi. Tashqarida odam zoti yo'q uylar qulab tushay deyapdi bu yerlarda aniq urush bo'lgan. Avtobusdan tushib anqayib turganimizdan maxalliy tilda bir nimalar deb baqirdi. Buni tushingan bazilar tezroq ichkariga deb aytishdi. Hammamiz tezlik bilan bino ichiga kirdik. Binoni ichi ham rasvo bo'lib yotibdi. Yarmi obrilgan eskidan qolgan bo'yoqlar ko'chgan har hil yoqimsiz hidlari bor. Bu yerda odam yashaydi deb bo'lmaydi. Men bir qo'lib bilan narsalarimni ushlab olganman bir qo'lib bilan Farangizga yaqin yurishga harakat qilyapman. Hamma birdaniga ichkariga kirib tiqilinch bo'lib qolgandan keyin bitta odam yuqoriga ko'tarilib gapirishga tushdi. SHunaqa gapirdiki bizni jangga chorlayotgan qo'mondondek edi. Men undan olisda turganim uchun faqat boshini ko'ra olardim halos. Undan keyin boshqasi o'zbekcha gapirishni boshladi. Ovoz ham o'zgardi boshqa inson edi.

- Musilmonlar, Birodarlar! Sizlarga avvalambor Katta rahmat shu joygacha kelganingiz uchun. Musulmonlarni ustiga balo kelgandir o'sha baloni daf qilish uchun hammangizning birgalikda harakat qilishimiz kerakdir. SHuning uchun ham Otalaringiz, farzandlaringiz, turmush o'rtoqlaringiz, aka va ukalaringiz qolgan birodarlarga yordam berish uchun Qodir Alloh yo'lida haq yo'l uchun kurashga kettilar. Sizlar ham shu yo'lda bizga qo'ldan kelgancha yordam berasizlar deb o'ylayman. Musulmonlik degani nima ekanligini kg'rsatish vaqti yetti. Kerak bo'lsa har biringiz bu yo'lda kurashmog'ingiz darkor eng katta kurash bu ichki zug'imkashlar bilan bo'ladi. Hammamiz birdamlikda bir bo'lib harakat qilamiz. Bizga Alloh madatkor bo'lsin. Alloh yuzimizni yorug' qilsin. O'zi buyuk bilguvchidir, Allohu Akbar.

Gapini ohiriga qadar ovozini ko'tarib gapirdi bu kishi Allohu Akbarni yana baqirib aytdi. Kelasi aytishida unga boshqalar qo'shildi. Hamma birgalikda Allohu Akbar deb bir necha marta baqirib qo'yishdi. Hech kim ortiqcha gapirmasdi huddi bu tabiiy holdek huddi ular yordam bersa va shu yo'lda o'lib ketishsa jannatga kiradigandek hamma tarqalishdi. Oilamni iloji boricha birga olib yurishga harakat qilardim. Onam ukamyosh bo'lgani uchun uni qo'lidan mahkam tutib yuribdi men esa Farangizga yopishib olganman. Hammamizni xonalarga joylashtirishdi.

Albatta yakka tartibdagi luks xonaga emas bir nechta oila bir xonada yotadigan bo'ldik. Bu yerdagi birinchi xaftamiz ancha tinch o'tdi. Endi shu yerda jimgina

yashar ekanmiz deb o'ylayotganimda hammasi barbot bo'ldi. Hukumat odamlari shu yergacha yetib kelishibdi. Bu yerdagi odamlar ham kelishgan. SHaharni hukumat qaytarib olmoqchi bo'lishibdi. Bu yerdagilar esa bizni talabimiz qondirilmaguncha shahar bizda qoladi degan ekan.

Yo Alloh bu Suriyada qancha jinoiy va Ekstremistik guruhlar bor ekan a? Yana allaqanday shaharda qurolli bosqin uyishtirganligi haqidagi habar kelgandan keyin hukumatchilar bu yerdagilarni tinch qo'yib ketishga majbur bo'ldi. Har holda biznikilar qurolli bosqin qilishmagan ekan. Lekin ular hato o'ylashibdi hammasi bitta katta guruh yoki odam tomonidan boshqarilayotgan narsalarku bular. Birbiriga dushmandek ko'rinishadida lekin ularni ildizi bir. SHu bilan g'ala g'ovur kunlar boshlandi. Bizni ishga tashqaridan ham ko'makchilar kelib qo'shildi. Kelganimizga bir yarim oy bo'lganda haqiqiy qurolli bosqin deganlari boshlandi. Hamma har yoqda cho'zilib yotgan, o'liklar, chalajon va yaralanganlar to'lib ketgan ularga esa biz ayollar tibbiy yordam ko'rsatishimiz kerak edi. Garchi bizda tibbiy malaka bo'lmasa ham. Bunaqa vayronagarchilikni ko'rib o'zimni ancha yoqtib qo'ydim. Jannat ismli xola avval xamchira bo'lib ishlagan ekan ancha ishlarga bosh qosh bo'lgan edi. U xola bilan bir xonada yashaymiz. Menga shu oylar ichida yaqin bo'lib qolgan. Yuzimdagi narsalarni ko'rib ham menda nima bor ekanligini bilgan edi. O'sha ayol sog' bo'lsin menga ancha yordam berdi o'zimni o'nglab olishimga ko'maklashdi. Bazan o'ylab qolardim shunday ayol manashularga aldanib harobalarga qanday kelib qoldi ekan a deb. Bir kun o'zidan so'radim bu voqea yaqinda bo'lgandi. Jannat xola o'zi tibbiyot bilim yurtini xamshiralikka bitirgan ekan. Undan keyin turmushga qiqqan...

Bir qancha vaqtdan keyin biz Jannat xolaga qo'shilib Hajin degan vodiya boradigan bo'ldik. Otam o'lgan onam esa boshqa yoqqa ketgandan keyin Jannat xolam bizni butkul o'z qaramog'iga olgan edi. Jannat xolani Hajinga jo'natishyotganda bizsiz ketishni hohlamay erkaklarni bizni ham olib ketishga ko'ndirdi. U joylarga ham uzoq yo'l bosib bordik. Ahvol bu yerda ham chatoq. Qonli to'qnashuvlar sodir bo'lgan. Bizga ancha ish ko'p edi. Bu yerdagi ishlar bilan ham bir oyga yaqin shug'illandik kunimiz bemor qarash bilan o'tardi. Bu yerda bitta qiz bilan tanishdim, u ham O'zbekistondan ekan, o'zimdan bir yosh katta ekan bu yerlarga qanday kelganini aytib berdi ayitishicha u bitta yigit bilan azgina muddat sevishgan keyin uni uyiga sovchi yuborishgan qisqa muddatda to'y bo'lgan. Qonuniy nigohdan o'tishmagan faqat shariy nigohdan o'tishgan. SHunday qilib bir oycha ajoyib yashashgan keyin eri Turkiyaga ishlashga ketgan biroz

vaqtdan keyin eri qizni Turkiyaga chaqirgan unga han ish topganini aytib. Qiz esa borgan Turkiyada

Bugun tush ko'ribman. Uchalamiz yolg'iz qolganmiz sarson sargardonlikda. Bizga doim mehr ulashadigan ota onamizdan darak yo'q. Ularni qidirib yurganimizga singlim pastga tushib ketdi. CHo'chib uyg'onib oilam azolarini. Oilamdan qolganlarini ko'zdan kechirib chiqdim. Hammasi shu yerda.

Suriyaga kelganimizga ham Yetti oy bo'libdi. Fevral oyi. Suriyada qish sovuqroq bo'lar ekan. Asosan yomg'ir ko'p yog'arkan. SHunday kunlarda isitish tizimi yo'q uylarda kun ko'rishimizga to'g'ri keldi. Bir nimalar qilib qishni ham yakunlashimizga oz qoldi.

Bugun doimgiday Jannat xolamga yordam berib yurgandim. Jarohatlanib kelgan bemorlarni bittasi qo'limga narsa tutqazib buni boshliqlarni binosiga olib borishimni aytdi yana o'zini nishonga o'xshash narsasini berib bu ichkariga kirish uchun deb aytdi. Jannat xola o'zi olib borishini ayib narsalarni qo'limdan olmoqchi bo'lganda haligi kishi "Men bu qizga berdim" deb vajohat bilan aytdi. Xolam esa menga extiyot bo'l degandek qarab qo'ydi. SHunchalik bu narsalardan bezgan edimki bo'lgan voqealarni o'ylamasdan qo'limdagi narsalarni olib bosh qarorgoh tomon ketdim. Eshikda meni tutib qolishdi, kirish mumkin emas ekan. Qo'limdagini va ichkariga kirishimni aytdim. Ular darrov kiritishmadi. Ichkaridan odam chaqirib keldi, bu kishi o'rta yoshli bo'lib, eshikdagilarga o'xshab avtomat ko'tarmagan ekan. Qo'limdagij narsalarni obdon tekshirdida. U qayerda? deb so'radi.

- U kishi tibbiy bo'limda. Bu narsalarni olib borib qaytishim kerakligini aytdi. - dedim hech tutilmasdan.

- Men bilan yur. - meni orqasidan ergashtirib ichkariga olib kirdi.

Ichkari biz yashab ishlab yurgan joylardan sal yaxshiroq ekan. Yo'lak bo'ylab olib kelib bir xonani eshigini taqillatmasdan kirib "Mirodildan xabar keldi" dedi. Keyin hammaga meni ko'rsatib ichkariga kiritdi. O'zlarini mahalliy tilida gapirardi. Bu tilda gapira olmasam ham ancha muncha tushinardim. Ular meni ichkariroq kirishimni aytib gapirishdi.

- Mirodil qayerda? - so'radi

- Tibbiy bo'limda - javob berdim o'zbekchalab.

Ular menga qarashib bir biriga imo qildi. Keyin meni olib kelgan kishi ularga o'girilib meni gapimni tarjima qildi.

- U senga nima dedi? - so'radi bittasi aftidan u bu yerdagilarni kattasi edi.

- Hech nima, faqat qo'limdagini shu yerga olib kelishimni aytdi halos. - qo'limdagini meni olib kelgan kishiga berdim u esa boshlig'iga berdi. Xatni o'qib chiqib yuzi o'zgardi va xatni burchakdagi stolda o'tirgan kishiga berdi. Ko'rinishidan bu yerliklarga o'xshamaydigan kishi ekan. Menimcha rus yo ingliz. U kishi ham xatni o'qib chiqdi so'ng qoshini chimirib o'ylanib qoldi. Ingliz tilida bir nimalarni gapirishga tushdi. Gap ohangidan nima deyotgani umuman bilinmasdi. Juda bosiq va bir maromda gapirardi. Gapirishdan to'xtab boshqalarga nazar soldi ular ham rozilik tastig'ini bergach aylanib yuziga ayyorona kulgu yugirtirib yana gapirdi. Gapini tushinish uchun bor diqqatimni jamladim. Gap nima haqidaligini anglashim uchun " Qizlar" va "Qullik" so'zlarini tushinganimni o'zi yetkulikli bo'ldi. Keyin menga qarab ijrg'anish ohangida "Need beautiful girls, not like her" dedi. Basharasi va ohangidan gap nimada ekanligini tushindim. Hozir yuragim qinidan chiqib ketadi. Ular qizlarni qullikka jo'natmoqchi. Xudo biladi bu qullik nimalarni o'z ichiga olarkin?! Aymi damda eng muhimi ularni tushinganimni bilishmasliklari o'zimni iloji boricha oddiy tutishim kerak. Joyimdan qimirlasam yerga qulayman hozir. Hammalari bir qarorga kelishdida endigi etibor menga qaratildi. Meni olib kelgan kishi nima qilishni so'raganda joyiga olib borib Mirolimni o'zi ko'rib kelishini aytdi. Biz tibbiy bo'limga qaytdik.

Tibbiy bo'limga yetib kelgach haligi kishini bemor Mirodilni yoniga kuzatib qo'ydimda chetga chiqdim. Tezroq singlimni va Jannat xolamni topishim kerak. Ularga vaziyat qanday ekanligini tushintirish kerak. Zudlik bilan hammani ketishga tayorlash zarur. SHunday Janbat xolani topib uni chetga olib chiqaman desam ko'zim bemor Mirodil tarafga ketayotgan singlimga tushdi. Singlimni ko'zdan pana qilish men uchun eng mushkul ish edi. U juda chiroyli onamni bor chiroyini olgan farzandi edi. Kelib kelib aynan shu payt u haligi kishi tarafga ketayotgan fojiyani o'zi edi. Jannat xolani ham tashlab singlim taraf o'qday uchdim. Yo'l yo'lakay bir bemorning yonida turgan suv to'la tog'orani ham ko'tarib oldim aynan Mirodilni yoniga yetganda oyog'im chalishim suvni to'kib yubordim. Hodisada Farangizni ayiblab baqirib ketdim.

- Sen nega meni turtasan a?

- Opa nima qildim? - tushinmay so'radi singlim.

- Senga aytyapman nega turing meni? Bu yoqqa yur yashamagur! - qo'lidan maxkam ushlab sudrashga tushdim.

- Kechirasizlar, bu qiz shunaqa axmoq o'zi! - dedim ketayotib bizning tomoshamizga qarab turgan odamlarga.

- Opa nima qildim men? Nima deyapsiz o'zi? - singlim vahimaga tusha boshladi.

Eh singilginam a hayoting uchun qilyapman bularni.

- Hech nima dema yuzingni yashir holiroq joyda gaplashamiz. - ovozimni pastlatib gapirdim unga.

U birdan to'xtadida qo'lini yulqib yubordi.

- Opa deyapman nima qilyapsiz o'zi?

- Jim, Farangiz, jim tur. Gapiraman hozir. SHoshma buyoqqa yur.

Orqasiga ketib qolmoqchi bo'lgan qizni to'xtatdim. Bir chekkaga olib chiqib vaziyatni tushintirdim.

- Farangiz, quloq sol. Biz bu yerdan ketishimiz kerak. Iloji boricha tezroq. Jim tushintiray. - gapirmoqchi bo'lgan singlimni to'xtatdim. - Hozir men bilan kelgan kishini ko'rdingga, o'sha kishi kimgadir ayollarni qullikka topshirmoqchi bu yerdagi yosh va chiroyli ayollarni olib ketmoqchi. Ertaga yoki indinga bu narsa bo'ladi. Bilasanmi, men o'zimdan havotirda emasman chunki menga o'xshagan badbasharalar ularga kerak emas ekan buni o'zlari aytishdi. Ularga senga o'xshagan chiroylilar kerak. Biz bu yerdan ketamiz qancha tez bo'lsa shuncha yaxshi. Bo'ldi tamom hammasi tugaydi hamma hammasi. - unga gaplarni iloji boricha tushintirishga harakat qildim bilmadim tushindimi yo'qmi?

- Qanday qilib? - savol berdi singlim. Sonyalar ichida uni nima haqida gapiryotganini anglamay qoldim. Yuzimni ko'rib o'zi savolini to'g'rladi. - Biz qanday qilib bu yerdan ketamiz. Buni qanday uddalaymiz. Axir atrof nazorat ostida ku.

- Ho'p buni o'zimga qo'yib berasan. Biz hozir ketamiz demayapman. Tondan bomdoddan bir soat bir yarim soat avval hamma eng shirin uyqusida bo'ladi. Hatto qo'riqchilar ham bunday paytda uyqusirab qoladi. Ayna o'sha payt bizning imkonimiz bo'ladi. Hech kimga sezdirmay boshqa odamlar bor joyga yetib olishimiz kerak.

Bir amallab gapimga Jannat xolani ham ishontirdim uni ham o'zimiz bilan olib ketamiz albatta, chunki ular bizga onamizdek bo'lib qolgan. O'z onamizni qayerdan topamiz bilmaymiz u lekin bizga ayni damda ona kerak. Hammaga o'z uylariga tarqalish buyirilganda ichkariga kirib rejamni ularga aytib berdim. Hozir singlim ham ukam ham yonimda. Ukam qayerdandir xartita topip ketibdi. Barakalla o'zimni pahlavonim!

- Ho'sh bizlar hozir manashu yerda, Rakkadamiz. Bu yerni hukumatga qarshi bo'lganlar o'z qo'llariga olishgan. Biz esa Hazimahgacha borishimiz kerak. Ohirgi habarlarga ko'ra u yer hozir ham hukumat odamlarini qo'ldida. Demak bunday manashu yo'l orqali bzi Hazimahgacha yetib olamiz. Bu yog'da qisqa yo'l bor lekin u yerlar doimiy nazoratda bo'ladi. Omadimiz kelsa manzilga 4 soatlarda yetib boramiz. Bu yerdan ketish vaqti yetti.

Rejam mukammal emas kamchiliklari bisyor. Qo'riqllovchilar meb aytgan paytda ham sergag turishga bo'lishi mumkin. Yoki bo'lmasa bu qo'riqchilardan boshqa yana ancha bizga ko'rinmasdan yurgan soqchilar ham chiqib qolishi mumkunligini inkor qilib bo'lmaydi. Yana biroz suhbatlashdik hamma o'zini fikrini bildirib o'tdi. Lekin hechkimdan jo'yali fikr chiqmagach meni aytganim maquk topildi.

SHu bilan ertaroq turish uchun uyquga ketdik. Qisqa vaqt ichida Umarbekning mir maromda pishillab olayotgan nafasi eshtildi. Jannat xolam ham pinakka ketgan edi.

- Opa? - dedi Farangiz - uxlamadizmi? - deb so'radi.

- Yo'q hali. Tinchlikmi? - so'radim ko'zimni ochib.

- Atrofimiz tinch emasku hech qanaqasiga. - dedi u ham kesatib. Javoban hmm deb qo'ydim halos.

- Opa, bizga nima bo'ladi o'zi agar keta olmasak qo'lga tushib qolsak nima bo'ladi?

- Bilmayman. Qo'lga tushmaslikka harakat qilamiz. Endi uxla va erta uchun kuch to'pla.

Unga aytadigan boshqa gapim yo'q. Unga ertakdagi kabi hamma muammoyimiz bartaraf bo'ladi. Hammasi yaxshilik bilan tugaydi deb vada bera olmayman. Umuman hech qanday narsaga umid bera olmayman. Hech nima gapira olmayman. Nima qilishni o'zim ham o'ylab yotganimda singlimning ham uxlaganiga amin bo'ldim. Ko'p narsani o'ylab o'yimga yetolmay ko'zim uyquga ketgan ekan. Kimdir xonaga kirganini sezdim. Bir emas ikkita sekin ko'zimni ochdim ikkita

erkak singlimni tepasida turar edi. Bittasi sekin singlimni ko'rpasini ochdi ikkinchisi atrofga qaradi shartta ko'zimni yumib oldim meni yuzimga ch'iroq tutib g'oldirab qo'ydi. Birinchisi ikkinchisiga "tiss" deb ogohlantirish berdi. Yuzimdan chiroq olingach ular xonadan chiqayotganini ko'rdim. Singlimni ko'tarib olib ketishyapdi. O'rnimdan turib tortmaga ancha avval yashirib qo'ygan pichog'imni oldim. Oyoq uchida ularni ketidan yugirdim. Keyingi hodisalar sonyalarni ichida sodir bo'ldi. Bir sakrab orqada ketayotganni bo'yniga pichoq sanchdim. Yerga gursillab quladi. Nima bo'lganini faxmlamasdan o'ldi. SHovqindan orqaga o'girilgan birinchisi qo'lidagi singlimni yerga qulatdi. Singlim baqirishni boshlagandi bir urib uni xushdan ketkazdi. Meni jaxlim tobora ortib boryapdi shu lanatiniyam birinchisini ketidan jo'natish ishtiyog'i bilan yonyapman. Qo'limdagi pichoq bilan unga tashlandim yaramas epchil ekan chap berdi. Bir musht tushirgandi yerga o'zim gursillab quladim quladimu qimirlamay o'zimni xushsizga soldim yerga yustuban qulaganim uchun u yaqin kelib meni ko'moqchi bo'ldi. Meni ogirganida qo'limdagi pichoq bilan tomog'idan so'yishimga to'g'ri keldi. Lanati bo'ynini ushlab yonginamga quladi.

Yo Alloh hozirgina qotillik qildim. Hech ikkilanmasdan ikkitasini chavaqlab tashladim. Qo'llarim qonga belandi ustim ham qon. Bu yerda yotgandan foyda yo'q hozir ketmasak bizni aniq o'ldirishadi. O'rnimdan turib singlim tomon yurdim oyog'imda mador yo'q o'zimga bo'ysinmasdan dag'-dag' titraydi. Qo'lim ham xuddi shunday pichoq qo'limdan tushib ketmoqchi qancha qattiq ushlaymay qo'llarimdan ozod bo'lishga intilmoqda. Singlimni yoniga borib uni xushiga keltirdim ikkita o'likni ko'rim yana baqirmoqchi edi og'zini bekitdim.

- Jim. Faqangiz baqirma iltimos. Jim. Ketishimiz kerak. Bizni hech kim ko'rmasdan ketishimiz zarur. Yur kettik.

Bir amallab o'zimni tutib xolamva ukamni oldiga bordim ularni o'liklarni yonidan olib o'tishim kerak. Qiziq shuncha shovqin bo'lsa ham ikkalasi uyg'onishmadiya. Avval Jannat xolamni uyg'otdim. Bo'lgan voqealarni aytdim qo'tillikni ham. Ko'zlari kosasidan chiqqudek bo'lib menga qaradi. Xonadan chiqib ularni ko'rgach gaplarimga amin bo'ldi ularga ham ketishimiz kerakligini tushintirdim. Ular Farangizdan farqli o'laroq o'zini tez yig'ishtirib oldi. Endigi navbat Umarga uni uyg'otmasdan ko'tarib ketsammi dedim lekin u endi 4 yoshar bolakay emas uni ko'tara olmayman uyg'otishga majburman. Uni ham uyg'otib ketish vaqti yetganini aytdim. Eng karakli narsalarimizni oldikda yo'lga chiqdik. Xonadan chiqqanimizda o'liklar bor burchakka qo'yilgani uchun Umarbek ularni ko'rmay

qoldi. Jannat xolamga rahmat. Umarni bunday narsalarni ko'rmagani ham yaxshi. Tezlik bilan bir biriga tig'iz binolarni orasidan yurib chiqib ketdik. Men ancha paytdan beri ketish yo'lini qarab chiqardim. Qanday qilib bo'lmasin baribir bu yerdan ketishimiz kerakligimizni bilgan holda doim qochish yo'lini qidirardim. Izlanishlarim foyda berib bir saotlarda shahardan chiqib ketdik. Biror bir mashina olish yaxshi fikr emas ular odam yo'qligidan ko'ra mashina yo'qligini payqashadi va yana mashija olish ortiqcha shovqinni keltirib chiqarardi.

Fevral oyini ohirlari Suriyada bahor nafasi ufirib qolgan osmonda esa yulduzlarning jilvalanishi bilan borgalikda huddi bizga oson bo'lsin degandek oy ham to'lin bo'lib olgan va nurini ayamasdan sochar edi. Uch soat avvalgi voqealarni hisobga olmaganida oydin kecha. Tong ham yorishishiga oz qoldi. Yo'lni yaxshi hisoblamagan ekanman. Yana ikki soatlarcha yurishimiz kerak manzilgacha. SHu bilan biz ulardan qutilamiz. Tong otgandan keyin Hazimah shahriga yetib bordik. Borishimiz bilan bizni tekshiruvdan o'tkazishdi. Pichoqni shaharga kiraverishda tashlab ketganman, chunki yonimdan sovuq qurol chiqishi menga qarshi ishlagan bo'lar edi. Biz O'zbekiston fuqorosimiz deb ularga vaziyatni tushintirdik. Hamma charchagan holdan toygan edi. Dam olishlaridan avval ularni departatsiyaga yozilishiga ko'ndirdim. Ertalabki soat 10 ga yaqin biz hukumat binosiga qo'riqlangan askarlar bilan yetib bordik ular bizni holi qo'yishmoqchi emasdi. Hammamiz departatsiyaga yozilgach maxsus joyga olib borib bizga ovqat va dam olishga joy ko'rsatishdi bu yer ham qo'riqlanmoqda. Biroz dam olib o'zimizga kelib oldik. Tushlikdan keyin yonimga bir yigit keldi jiddiy ovozda

- Muslimova sizga ustozingiz salom aytdilar - dedi.

Uni yuziga sinchiklab qaradim, ko'zlari qanaqadir o'ziga tortadi. Aniq o'zbekning mart o'g'loni mahalliy aholi kabi kiyinib olgan ularga o'xshab soqol ham qo'yib olgan edi.

- Assalomu alaykum salomat bo'lsinlar. Salom ayting siz ham. - u menga qarab turdi keyin o'zini hos raqamlarini aytib malumot berishimni so'radi. Navbat menga men ham unga o'z hoh raqamlarimni aytdim. So'ng hisobot berishga tushdim.

- Men ohirgi marotaba bo'lgan Rakka shahrida jami 68 ta tirik O'zbekiston fuqorolari bor. SHulardan 86%i ayollar bolalardir qolgani esa jarohatlangan erkaklar. SHaharni himoya qilish past darajada hor holda biz osonlikcha qochdik. Ularning hozirda asosiy kuchlarni Hajin shahriga qaratilgan. Vatandoshlarimizni deyarli hammasi u yerdan ketishni hohlaydi.

Hisobotimni yetarlicha aytdim degan umiddaman. Meni vazifam ham shu aslida. Yurdoshlarimizni kuzatish sonini aniqlash va vatanga qaytishiga ko'maklashish.

- Menda u yerda ikkitasi bilan muommo chiqdi.

- Qanaqa muommo? - sezgaklandi yigit.

- Ikkitasi singlimni o'g'irlab ketmoqchi edi. Ularni yo'q qilishimga to'g'ri keldi.

- Qanday qurol bilan?

- Pichoq. Ularni pichoq bilan o'ldirdim. - javob berdim men.

- Hech kim ko'rmadimi? - so'roqqa tutishni davom etdi.

- Havotir olmang biz uyni ichkarisida edik. Pichoqni ham yo'q qildim. Rakkadagi fuqorolarni tezroq qutqarish kerak. Chunki ularni quldorlikka olib ketishmoqchi. Haligi o'g'irlamoqchi bo'lganlar ham singlim u yerdan ketmasidan foydalanib qolmoqchi bo'lgan.

Ha yana u yerda bitta inglizni ham ko'rdim. Har holda inglizcha gapirar edi. Menimcha uni bu yerdagilar bilan aloqasi bor.

- Ho'p. Bu yog'i bizni vazifamizga kirmaydi. Siz o'zizga berilgan topshiriqni yaxshi uddaladingiz. Avval bo'lgan joylaringizdagi malumotlar asosida vatandoshlarimizni u yerlardan ketishga ko'ndirib departatsiyaga yozdirdik. Men sizni ham departatsiyaga yozilganingizni bilib o'zimiznikilarga habar berdim. Ular 48 soat ichida shu yerda bo'ladi. Omadingni bersin.

U o'rinidan turib ketishga chog'langanida uni to'xtatdim.

- Kechirasiz. Yana bir narsa so'ramoqchi edim. - u ho'sh degandek qoshini ko'targanida maqsadga ko'chdim. - Onamdan habar yo'qmi? Ularni tirik yoki o'lik ekanliginiyam bilmayman.

U menga qarab afsus bilan bosh chayqadi. " Iltimos faqat vafot etdi demang iltimos, iltimos " ichimda shularni takrorlardim.

- Undan habar yo'q. Lekin qidiraymiz havotir olmang.

Allohimga shukr o'ldi degan habarni eshitmadim.

Bu razvetkachi ham ketgach oilam yoniga qaytdim. Bizni avval oshxobaga o'xshash joyda saqlashyotgan edi. Keyin maktab sport zaliga o'xshagan keng shitflari ham balandda bo'lgan joyga olib kelishdi. Bu yerda matraslar ancha. Bu

yer aniq sport zali. Meni savolga tutmoqchi bo'lgan oila azolarimga uxlamoqchi ekanligimni aytib yotib oldim. To'g'risi uxlashga biroz erta. Lekin hozir faqat va faqat uxlagim kelyapdi.

Uxlab orom olgim bor. Bizni bu zalda ham tinchgina o'z holimizga qo'yib qo'yishmadi. Zalni ikkita eshigi bo'lsa shu eshiklarda ikkitadan soqchi qo'yilgan yana ikki yonda ikkitadan. Jami 8 ta qurollangan askarlar bizni o'rab olishgan edi. Ko'zimni yumib uxlashga harakat qilar ekanman. Ohirgi 7 oy haqida emas undan avvalgi ko'llej o'quvchisi bo'lgan paytlarimni o'ylab yotdim. Dilshoda bilan birga bir xonada qo'shni bo'lib qolishimiz. Kelishi bilan xonaga ham menga ham fayz kelganligi, kursdoshlarim darsda hamma joyni qizdirib o'tiradigan boshqa qizlar. Bazan dars yo'q paytida qo'shiq boshlab qoladigan bir ikkita yigit. Tug'ilgan kunlarni qanday o'tkazishimiz. Meni tug'ilgan kunim.... Tug'ilgan kunim. Yana bir haftadan keyin tug'ilgan kunim. 19 yoshga to'laman. O'tgan yili bu payt ko'llej yotoqxonasida tug'ilgan kunini rejalashtirish bilan band bo'lgandi Dilshoda hozir nima qilayotgan ekan? O'qishga kirishga harakat qilayotgan edi. U aqilli qiz o'qishga ham kirgan yangi do'stlar qurshovida yurgan bo'lsa kerak. Sevgilisi bilan gaplashib turgandir.

Sevgilisi! Bo'g'zimga nimadir tiqilgandek bo'ldi. Yetti oy ichida shuncha tashvishlar ichida ham o'ylasam entikadigan insonim Azamat. Nima qilayotgan ekan? Qaytib kelgach sovchi jo'natmoqchi edi. To'y haqida aytgan edi. Men endi unga turmushga chiqa olmayman. Endi men avvalgi men bo'la olmayman. Hamma hammasi tamom. Bu jahannamdan chiqib ketganim bilan avvalgi hayotim o'z iziga qayta olmaydi. Hammasi ostun ustun bo'lgan. Sofdil Bahor endi yo'q. SHuncha jang, shuncha qon, shuncha o'lim ko'rgandan keyin hayotim bir maromda davom etishiga ishonmayman.

Hayotim haqida oilam haqida o'ylab o'yimga yeta olmay uxlab qolibman.

Razvetkachi to'g'ri aytibdi. 48 soat ichida O'zbekiston Respublikasidan departatsiyaga yozilgan fuqorolarni olib ketish uchun guruh jo'natilibdi. Buni bizga shu yerdagi hukumat odami aytdi.

- Hamma O'zbekistonliklarning diqqatiga. O'zbekiston Respublikasi hukumati o'z fuqorolarini olib ketish uchun maxsus guruh yubordi. Hozir avtobus keladi va hamma ortiqcha shovqinsiz o'sha avtobusga joylashib bu yerdan ketadi. Qaytaraman. O'zbekiston Respublikasi hukumati o'z fuqorolarini davlatimizdan olib ketish uchun maxsus guruh jo'natgan. O'zbekiston Respublikasi fuqoroligi bo'lgan shaxslar bir chekkaga o'tishilarni so'raymiz. Biz anchagina odam eshik

tarafga yoʻnalib chekkaga chiqdik taxminan 30tacha odam bor edi. Askarlar bizni sanab chiqishdi.

- 26ta. Yoʻq 27 ta ekan bolakay bilan 27ta.

Hammamizni birma bir tekshiruvdan oʻtkazishdi va Oʻzbekiston fuqorosi ekanligimiz tasdiqlangach binodan chiqishimizga ruxsat berildi. Tashqarida katta aftobus boʻlib uni oldi va orqa tomonida oynalari qoraytirilgan qora mashina bor edi. Oʻzbekistonlik askarlar ham qopqora kiyingan yuzlari yopilgan qoʻllarida qurol bilan turishar edi. Ular biz chiqqanimizdan keyin avtobus tomon yoʻl ochib berdi. Ikkita asrak qurolini orqaga qaratib fuqorolarga yordam berishga tushdi. Avtobus oldidagi ikkita askarni bittasi menga qarab qadam tashlayotganida uni boshqasi toʻxtatib qoldi va boshini "yoʻq" ishorasida qimirlatdi. Askar ham joyida qotdi lekin menda qarashni davom etardi. Men uni hamma joyiz yopiq boʻlsa ham his qilib turgan edim.

Avtobusga joylashdik. Ukam va singlimni yonimga opmoqchi edim oʻrindiqlar ikki kishilik ekan singlim meni yonimga ukam esa Jannat xolani yoniga oʻtirdi. Avtobus joyidan qoʻzgʻalib yurgandan keyin besh daqiqalar oʻtgach askarlarni ikkitasi yonimga keldi va niqoblarini ochishdi. Ne koʻz bilan koʻrayki ular Azamat va Salohiddin ekan. Hozirgina katta bololardan qutilib chiqib ketayotganimiz. Ikki kundan beri oʻzimni endi unga loyiq emasman deb takidlayotganim avtobus toʻla odamligi uni ustidagi formalari va quroli ham meni toʻxtatib qola olmadi. Bor kuchim bilan tezlikda uni boʻyniga osimdim. Azamatni quchoqlab yigʻlab yubordim. U meni isimni takrorlar u ham vaziyatni unitib bagʻriga mahkam bosar edi.

- Hammasi oʻtib ketadi yaxshi boʻladi. Hammmsi joyida. - tinmay takrorlardi u ohiri kimdir tamoq qirdi. Avtobus toʻla odam ekanligi shu payt esimga tushib qoldiyu uni oʻzimdanda ajratishimga toʻgʻri keldi.

- Manzur tutasizlar ular unashtirilgan yoshlar. Sevishganlar. Anchadan beri endi koʻrishyapdi. - vaziyatga oydinlik tiritdi Salohiddin. - Avtobusni ichidagi hozir koʻrganlarizning avtobus ichida qoladi degan umiddaman. Harakatlarimiz uchun yana bir bor uzr soʻrayman hammadan.

- Nega uzr soʻraysan oʻgʻlim biz ham tushinamiz. Yigitni ham qizni ham tushinganmiz behijolat. - dedi oʻrta yoshdan sal oshgan ona.

- Biz ham yaqinlarimizni shunday bagʻrimizga bosaylik.

- Haa bizga ham nasib qilsin.

Har har joydan tilaklar eshtildi. Boshida gapirgan xola bizni duo qilib qo'ydilar.

- Ilohim jannatlarda ham birga bo'lish nasib qilsin sizlarga bolalarim. Umringiz ziyoda bo'lsin.

- Aytganingiz kelsin xola. - dedi Salohiddin.

- Rahmat - dedim men Azamat ham men bilan birga aytgan edi ovozimiz baravariga chiqdi. Uyalib Salohiddinga ko'zim tushgandi u jilmayib turardi.

Keyin hol ahvol so'rashishga tushildi nima bo'lgani, qanday bu yerga kelib qolganimiz oilamiz haqida so'radi. Ikkalasi ham yonimizga o'tirib olgan ularga qarab voqealarni aytib berdim. Keyingi navbat menga yetdi ularni o'zlari haqida so'radim. Dilshoda haqida so'radim.

- Ha yuribdi u o'qishga kirdi. - faxr bilan gapirdi Salohiddin. - biz unashtirildik. Yangi yildan avval edi. Bir ikki yil o'qiyman keyin oila quramiz dedi. Rozi bo'ldim nima qilardim. Unga yo'q deb bo'larmidi. - kulib qo'ydi Salohiddin.

- Bular har ikki kunni birida tortishadi. - gapirdi Azamat.

- Yoqadida u bilan tortishish. Aniq aytaman Dilshodaga ham yoqadi bu.

- Albatta. Hech bo'lmasa yo'q joydan muammo chiqaradi. Bo'lmagan narsani ham bo'ldi deb. - men ham qo'shildim uni felini yaxshi bilaman ahir.

- Huddi shunday. - kulib qo'ydi Salohiddin.

Biroz jim qolib atrofni kuzatgan Salohiddin sal yaqinroq kelib past ovozda so'radi.

- Bahor, kamandirni aytishicha bu yerda o'zimizni odam bor ekan, razvetkada ishlar ekan. Bilmasanmi kim u?

- Hozir shunga qiziqayapsanmi? - qovog'ini soldi Azamat.

- Nima qilibdi? Bilishimiz kerakku axir.

- Ha bilaman bor. - Javob berdim men.

- Qani kim u? - atrofga qaradi Salohiddin.

- Men.

- Nima? - savol yengradi ikkalasidan ham.

Andijon viloyati. Pedagogika kolleji yotoqxonasi.

Uchinchi kurs o'quvchilari bo'lgan Bahor va Dilshoda. Yangi yildan keyingi tatildan kelib o'qishni boshlaganlarini ikkinchi yakshanbasida uylariga qaytmoqchi bo'lishdi. Ular doim ikki xaftada bir uylariga qaytar edi. Dilshoda narsalarini olib tayyorligini bildirib eshikka chiqdi. Bahor ham kurtkasini ilgichini ildirib uni ketidan tashqariga yo'l oldi. Yotoqxona oldidagi bekatdan ikkalasi ikki tarafga ketadigan bo'ldi. Ular o'z tumanlarini taksi to'xtash joyiga alphiqiga ketishar edi. Avval Dilshoda ketdi biroz kutib turgandan keyin bitta mashina kelib Bahorga taksi ekanligini aytib qayerga borishini so'radi. Bunday taksilarni ko'p ko'rgan Bahor o'ylanmay narxini kelishib orqa o'rindiqqa o'tirdi. Avval to'g'ri yo'nalish bo'yincha ketayotgan mashina stetaforli chorxaxadan teskari tomonga qayrildi.

- Kechirasiz deb gap boshlayotgan Bahorni to'xtatib. Nargi yo'lda qurilish bo'layotganini aytib uni tinchlantirdi. Biroz yurgach yana boshqa tomonga qayrildi. Bahor bu yo'llardan umuman yurmagan qanaqadir boshqacha yo'llar edi. Ohiri bular noto'g'ri ekanligini bilib to'xtaningga tushib qoldi.

- Amaki to'xtating mashinani siz boshqa tarafga ketyapsiz. Amaki dedim. Qayerga ketyapsiz o'zi? Sizga gapiryapman.

Ovozini ko'yardi Bahor.

- Tinchlaning hurmatli fuqoro. - gapirdi haydovchi.

- Kimsiz siz nima qilyapsiz o'zi? - haliyam shovqin ko'tarardi.

- Hurmatli fuqoro tinchlanning manzilga oz qoldi sizga zarar yetkazmoqchi emasman. Siz bilan shunchaki oilanhiz yuzasidan aniqroq aytganda dadangizni maslasi bo'yincha gaplashmoqchimiz. Tinchlaning. Qaytarib aytaman sizga zarar yetkazmoqchi emasmiz.

Uni gaplaridan biroz o'ziga kelgan Bahor yana savol berdi.

- Ho'sh meni qayerga olib ketyapsiz? - yana savol berdi Bahor.

- Oz qoldi, manzilga yetay deyapmiz.

Rostan ham ular ancha yaqinlashib qolishgan edi. Yana besh daqiqacha yurgach manzilga yetib kelishdi. Atrofda harbiy kiyimdagi boshqalar ham bor edi. Bu yer harbiy zona bo'lib bu yerda ancha harbiy postlar joylashgan. SHlakbaunga o'xshagan darvoza yoniga borib to'xtagach bitta askar kelib mashinani ko'rib chiqdi. Mashina haydovchisi bilan imo ishora qilib olishgach askar unga yo'l ochib

berdi. Darvozadan kiraverishdagi ong tarafdagi mashinalar to'xtash joyiga mashinani qo'yib Haydovchi Bahor uchun eshikni ochib berdi. Ichkariga kirib ketishar ekan Bahor atrofga qaradi darvozadan kirganda chap tarafda anchagina harbiylar bor edi. O'zini bosishga harakat qilayotgan Bahor chuqur nafasolib ichkariga kirdi. Ichkarida ham navbatchi stoldan joy egallagan ikki askarni ko'rdi. Yo'lak bo'ylab harakatlanar ekan yaxshi yoritilmagan binoni ichida negadir hech kim yo'q edi. Bahorni sabri chidamay savol berdi.

- Nega binoda hech kim yo'q?

- Bu yer odamlar bilan to'la faqat binoni bu qismidan hech kim ko'rinmaydi. Bu yoqqa yuring. Marhamat ichkariga kiring. - ichkariga kiritdi Bahorni.

Ichkarida esa yana bitta kishi o'tirar edi.

- Olib keldim. - dedi ichkariga kirib.

- Muslimova Bahor sizmisiz? - so'radi ichkaridagi kishi. Bahordan tasiq ishorasini olgach gapini davom ettirdi. - Marhamat o'tiring. Men Diniy ekstremizm va terorizimga qarshi kurash bo'limidan maxsus hodim To'laganov bo'laman.

Sizni olib kelgan kichi esa Razvetka va kontrrazvetka hodimi Qilichev.

O'tirishing mumkin dedim.

O'zini tanishtirib bo'lgach haliyam o'rnida qoziqdek turgan Bahorni o'tirishga undadi. Qiz kursiga o'tirgach Diniy Ekstremizm va terorizimga qarshi kurash hodimi To'laganov yana gapirdi.

- Otangiz haqidagi bizda bor malumotlarga ko'ra ular eksremistik guruhga aralashib qolgan. Kuzatuvlarimiz natijasida ularni xavfli guruh ekanligi aniqlangan. Bundan biy yarim oy avval Tursunov Mahmud ismli shaxs bedarak yoqolganligi Ichki Ishlarga habar berilgan edi. Qisqa muddatda fuqaroning jonsiz tanasi katta ariqdan topilgan, o'sha fuqaro ham otangiz azosi hisoblangan guruhga qo'shilgan edi. Nima sababdan bunday bo'lganini bilmaymiz. Va ularni ayblashga bizda asosli dalillar yo'q. Ular faoliyatini juda yaxshi bekitishgan.

- maxsus hodim gapirishdan ozgina tanaffus olganda Bahor savol berdi.

- Buni nega menga aytyapsizlar? Men nima qila olaman?

- Bizga yordam berasiz. - Qilichev gapirdi.

Bahor tushinmay turganda To‘laganov tushintirishni o‘z bo‘yniga oldi.

- Otangiz yaqin orada mamkakatdan ketishini aytdimi?

- Ha aytgan. Biz ancha avval ketmoqchi edik. Ammo o‘qishim sabab qoldik.

- Demak otangiz oilaviy ketmoqchi shundaymi?

- Ha. SHunday.

- Tushinarli qayerga va nima maqsadda ketyapsizlar? - To‘laganov savol javobni davom ettirdi.

- Suriyaga. Otam musulmon birodarlarga yordam berishga. Biz ayollar esa madrasada o‘qishga.

- Suriyada urush ketayotganidan habaringiz bormi?

- Qanaqa urish?! - tajublandi Bahor.

- Demak habaringiz yo‘q. Gap bunday Bahor. Siz bizga va vataningizga yordam berishingiz kerak. Gapni aylantirib o‘tirmayman. Siz bizga josuslik qilasiz. Agarda oilangiz bilan Suriyaga ketadigan bo‘lsangiz bizga doimiy malumot berib turasiz. Suriyaliklar haqida emas. Eksremizimga aldanib qancha O‘zbekistonlik fuqorolar borligi ularni tinchligi va salomatligi haqida. Sizni yagona burchingiz va yagona sizdan talab qilinadigan narsa furarolarimizni u yerlardan olib ketishga yordamlashishdir. Siz bunda borgan hududingizda qancha o‘zbekistonlik fuqaro borligi ularni qanchasi vatanga qaytishni hohlashi. Va yana u yerdagu o‘zbekistonlik eksremistik guruh boshliqlari qancha va kimlar ekanligini yetkazish. - To‘laganov gapini yakunlagach, xonaga sukunat cho‘kdi.

- Men bunday qila olmayman. Men oilam u yerlarga borishini hohlamayman.

- Siz buni hohlamasligingiz mumkun lekin baribir otangiz sizni va oila a'zolaringizni mamlakatdan olib chiqib ketadi. CHunki ularni miyyasi allaqachon zaharlangan. - Qilichev vazyatni tushintirdi.

- Sizlar otamni qamab qo‘ya olmaysizlarmi? - Bahor ilojsiz savol berdi.

- Ularni nima deb qamaymiz? Dalil yo‘q. Siz bizga yordam berishingiz kerak.

- Ammo qo‘limdan kelmaydi bu.

SHu payt ular o‘tirgan xonadagi ko‘zgu taqilladi. Butun boshli devoring yarmini egallab turgan ko‘zgu nega bunday o‘rnatilgani va nega taqillaganini bilmay

hayron o'tirgan Bahorni bu maxsus hodimlar yana hayratda qoldirib hozir kelimiz deya chiqib ketishdi. Bahor yana ko'zguda qaradi. Bir daqaqadan so'ng xona eshigi yana ochildi.

- Men baribir uddalay olmayman. - dedi Bahor boshini quyi egib.

- Bahor men G'anisher akangman. - dedi haligi kirib kelgan kishi.

Bahor tanish ovozni eshitib yuqoriga qaradi. Qarasaki ro'parasida Siyosiy fanlardan dars beradigan o'qtuvchisi G'anisher aka turibdi. Bahor ko'zini pirpiratib qo'yib salom berdi.

- Sizni ham olib kelishdimi bu yerga. - tajublandi Bahor. Lekin G'anisher akaga qarab bu yerga olib kelingan odamga o'xshatmadi. To'q rangdagi katyum shim kiygan galstuk taqqan. Huddi shu yerdagi boshliqdek.

- Yo'q Bahor meni olib kelishmagan. Bilasanmi meni aniq kasbim bu o'qtuvchilik emas. Men shu yerda ishlayman. Maxsus hodim. Aniqroq qilib aytganda Kapitan. Meni vazifam mamlakatimizda ekstremizmning oldini olish va menga yordam beradigan bu sensan Bahor. Nega qo'limdan kelmaydi deb o'ylaysan? Men seni ancha kuzatganman senda salohiyat bor. Maqsading sari ildamlash. - G'anisher aka o'zini asl kasbini namoyon qildi.

- Yo'q Ustoz men unaqa emasman. Adashyapsiz. - Bahor gaplarni inkor qildi.

- Yo'q adshmadim. Bahor bizga yordam berishing kerak. Nima kerak bo'lsa senga hammasini o'rgataman. Ajoyib mutaxassis bo'lib yetishasan hali. - G'anisher akani ilhomlantiruvchi so'zlaridan keyin Bahor rozi bo'ldi. SHu kundan boshlab Bahor har hafta maxsus odam bilan olib ketilar va unga harbiy ko'nikmalar o'qitilar edi. Qurol bilan qanday ishlashish, xaritaga qarab yo'l topish dushmanni qanday oson yo'llar bilan yo'q qilish Suriya iqlimi siyosati Xaritasini ancha o'rgatishdi. Bir nechta o'zini himoya qiluvchi kurash usullarini ham esdan chiqarishmadi.

Bahorga ketmasidan avvalgi ohirgi uchrashuvida Soat berishdi G'anisher akani aytishi bo'yincha bu soatga manzilni aniqlovchi uskuna o'rnatilgan bo'lib suniy yo'ldoshdan Bahorni kuzatishlari mumkun ekan. Avvaliga bu kichkina oddiy soat bunaqa hususiyatga ega ekanligiga Bahor ishonmadi keyin ichi ochib ko'rsatilgach amin bo'ldi. "Bu soat bilan seni qayerda yurganingni aniqlaymiz va joy almashgan vaqting seni yoningga o'zimizni odamlardan birini jo'natamiz. Ular senga yangi topshiriq berishadi va sen egallagan malumotlarni bizga yetkazib berishadi. Ularni

o'zlarini bundan boshqa alohida topshiriqlari bor bo'lib ular mahalliy aholiga qo'shib betishgan. Sen bilan uchrashuvda esa ularni tanib olishing uchun maxfiy so'z " Ustozingiz salom aytib yubordilar " degan jumla sen ham ularga javoban salomat bo'lsin deysan va hos raqamlaringni aytasan. Senga alohida harbiy unvon berilmaydi sen hizmatdan tashqaridagi maxsus hodim bo'lasan. Bizda sen haqingda hech qanaqa yozma va elektron malumot bo'lmaydi. Bahor nima bo'lsa ham umidsizlikka tushma. Seni nimalar kutayotganini taxminqilding. O'zingni ehtiyot qil va berilgan vazifalarni bajar. Sog' salomat qaytib kelish nasib qilsin" shu so'zlar bilan kuzatib yuborgandi G'anisher aka. Bahor Suriyaga borgan paytlarida uni yoniga kelishganda boshda dovdirabroq qoldi keyin aybini darrov yuvdi. Shundan song har joy almashganda uni odamlar yo'qlar edi.

Suriya. Avtobus Halep shahriga ketmoqda.

- Shunday qilib men maxsus agentga aylanib qoldim. - Qo'limni qo'shtirnoq shaklida qimirlatdim.

Oldimda o'tirgan ikkala yigit menga og'izlarini ochib turishar edi. Ha men shuncha paytdan beri josuslik qilar edim va buni hech kimga aytmaganman hech kimga.

- Kapitanimiz qanaqasiga o'qtuvchi bo'lgan? - so'radi hayratlanib Salohiddin.

Ha uni tushinyapman shunga gapni hazm qilish oson emas.

- Ularni aytishicha bu shunchaki niqoblanish ekan. Shunday yurib doim ishini bitirar ekan. - tushintirdim ikkalasiga.

- Hech kim ulardan shubhalanmaydida a?

- gapirdi Azamat.

- Ha oddiy o'qtuvchi deb o'ylashadi.

Shunday qilib u yog'dan bu yog'dan gaplashdik. Manzilga 4soat deganda yetib bordik.

Bizni to'g'ri ayraportga olib borishdi u yerda boshqa joylardan kelgan avtobuslar ham bor edi. Tashqariga chiqmasimizdan avval bizni ogohlantirishgan biz to'g'ri borib atrofga alanglamasdan samalyotga o'tirishimiz kerak. Azamat meni yonomda ketishini va biz bir birimizni tanimasdek tutishimizni aytgan edi. SHunga amal

qilib to'g'ri borib samalyotga joylashdik. Mana yaqin soatlar ichida vatanimga qaytaman. Meni kutib ol O'zbekistonim.

Bahorga ketmasidan avvalgi ohirgi uchrashuvida Soat berishdi G'anisher akani aytishi bo'yincha bu soatga manzilni aniqlovchi uskuna o'rnatilgan bo'lib suniy yo'ldoshdan Bahorni kuzatishlari mumkun ekan. Avvaliga bu kichkina oddiy soat bunaqa hususiyatga ega ekanligiga Bahor ishonmadi keyin ichi ochib ko'rsatilgach amin bo'ldi. "Bu soat bilan seni qayerda yurganingni aniqlaymiz va joy almashgan vaqting seni yoningga o'zimizni odamlardan birini jo'natamiz. Ular senga yangi topshiriq berishadi va sen egallagan malumotlarni bizga yetkazib berishadi. Ularni o'zlarini bundan boshqa alohida topshiriqlari bor bo'lib ular mahalliy aholiga qo'shib betishgan. Sen bilan uchrashuvda esa ularni tanib olishing uchun maxfiy so'z " Ustozingiz salom aytib yubordilar " degan jumla sen ham ularga javoban salomat bo'lsin deysan va hos raqamlaringni aytasan. Senga alohida harbiy unvon berilmaydi sen hizmatdan tashqaridagi maxsus hodim bo'lasan. Bizda sen haqingda hech qanaqa yozma va elektron malumot bo'lmaydi. Bahor nima bo'lsa ham umidsizlikka tushma. Seni nimalar kutayotganini taxminqilding. O'zingni ehtiyot qil va berilgan vazifalarni bajar. Sog' salomat qaytib kelish nasib qilsin" shu so'zlar bilan kuzatib yuborgandi G'anisher aka. Bahor Suriyaga borgan paytlarida uni yoniga kelishganda boshda dovdirabroq qoldi keyin aybini darrov yuvdi. Shundan song har joy almashganda uni odamlar yo'qlar edi.

Suriya. Avtobus Halep shahriga ketmoqda.

- Shunday qilib men maxsus agentga aylanib qoldim. - Qo'limni qo'shtirnoq shaklida qimirlatdim.

Oldimda o'tirgan ikkala yigit menga og'izlarini ochib turishar edi. Ha men shuncha paytdan beri josuslik qilar edim va buni hech kimga aytmaganman hech kimga.

- Kapitanimiz qanaqasiga o'qtuvchi bo'lgan? - so'radi hayratlanib Salohiddin.

Ha uni tushinyapman shunga gapni hazm qilish oson emas.

- Ularni aytishicha bu shunchaki niqoblanish ekan. Shunday yurib doim ishini bitirar ekan. - tushintirdim ikkalasiga.

- Hech kim ulardan shubhalanmaydida a?

- gapirdi Azamat.

- Ha oddiy o'qtuvchi deb o'ylashadi.

Shunday qilib u yog'dan bu yog'dan gaplashdik. Manzilga 4soat deganda yetib bordik.

Bizni to'g'ri ayraportga olib borishdi u yerda boshqa joylardan kelgan avtobuslar ham bor edi. Tashqariga chiqmasimizdan avval bizni ogohlantirishgan biz to'g'ri borib atrofga alanglamasdan samalyotga o'tirishimiz kerak. Azamat meni yonomda ketishini va biz bir birimizni tanimasdek tutishimizni aytgan edi. SHunga amal qilib to'g'ri borib samalyotga joylashdik. Mana yaqin soatlar ichida vatanimga qaytaman. Meni kutib ol O'zbekistonim.

Samalyotga joylashib o'tirib olganimizdan keyin yarim soatlar ichida yo'lga chiqdi. Uchoq havoga to'liq ko'tarilib bo'lgach meni yonimga bitta askar keldi.

- Siz Bahormisiz?

- Ha menman. - dedim. Balki u to'g'ri odamni topip kelganiga shubxa qilayotgandir. CHunki hijob o'ragan yuzimni yarmini ro'mol bilan yopip olgan va juda ayanchli ahvolda edim.

- Sizni Kapitan so'rayapdilar. - dedi sal egilib menga samalyotni nargi tarafini ko'rsatib.

Kapitan balki u G'anisher akani aytyotgandir. Ular indamasdan samalyotga chiqishimni va bizni bezotaqilmasliklarini hohlagan. Ho'p deb boshimni qimirlatib uni orqasidan ketmoqchi edim singlim qo'limdan tutdi. Unga hozir kelaman havotir olma deb yo'lga chiqib kettim. Alohida joyda kam odamlar bor edi hususan To'laganov va Qilichevlar va Azamat ham shu yerda edi. G'anisher aka meni o'zini yoniga chaqirib oldi.

- Mana bizni hizmatdan tashqari maxsus hodimimiz. Bunday yopiq tarkibdagi majlis o'tayotganimizni sababi Bahorni shaxsi hammaga tanilishi shart emas. Ho'sh shunday qilib biz Bahorni muvaffaqiyatli amalga oshirgan topshirig'i bilan tabriklaymiz. Qolgan ishlarda ham o'zini ko'rsatadi degan umiddaman.

Bahor bugun biz bir necha soat ichida O'zbekistonda bo'lamiz. Senga o'zingga kelib olishing uchun bir hafta muhlat beraman va bir haftadan keyin yangi topshiriq olish uchun yonimga kelasan. Uchrashuv joyi va vaqtini habar beraman.

"Vay tovba bu odamni? Nimalar deb tashladi. Mendan hatto ruxsatimni so'ramasdan" o'zimni bosishga harakat qildim. Yo'q men bunday hayotga rozi emasman men bunday yashay olmayman. Ularni inkor qilishim kerak. Iloji boricha yumshoqlik bilan.

- G'anisher aka, men bu topshiriqda qatnashib deyarli oilamdan ayrildim. Otam vafot etdi. Onam esa bedarak yo'qolgan. Men topshiriqma topshiriq yuradigan bo'lsam bundan bu yog'iga oilamga kim g'amxo'rlik qiladi. Kechirasiz. Meni hozirdagi katta vazifam oilamni butunligicha saqlab qolish. Meni manzur tutasiz degan umiddaman. - ishqilib hechkimni jaxlini chiqarlayda, deb turibman ichimdan. CHunki menga yordam bergan odamni qo'lini qaytaryotgan bo'laman.

- Mayli seni tushindim Bahor. Oila hamma uchun muhim. Sen avval dam ol biroz undan keyin biz senga tashakurnoma beramiz oilangga ham qo'ldan kelgancha yordam beramiz. Hali sen o'qishing kerak. Oila qurishing deganday. - ohirgi gapini aytib jilmayib qo'ydi G'anisher aka. Qiziq ular nimani bilar ekan a? Men haqimdagi har qanday malumotni to'plagan bo'lsa kerak har holda Razvetka bo'limida Kapitan.

Ularni oldilardan chiqib o'rnimga borib joylashmasdan avval sekin yurishni boshladim odamlarni kuzatdim. CHunki men qisman yordam bergan insonlar shu yerda jahannamdan qutilib uylariga ketishmoqda. Sekin insonlarni kutatib borar ekanman. Tanish chehrani ko'rdim. U odam hushsiz yotardi. Darrov yoniga borib chaqirdim.

- Ona? Oyijon?

Hech nima va hech kimni o'ylashga holim yo'q onamni bag'rimga bosmoqchi bo'ldim. Ularni hidlab hidlariga to'ymoqchi bo'ldim. Lekin bag'rimga bosaman deb ko'tarmoqchi bo'lganimda ingradilar. SHunda yonimizga xamshira keldi.

- Kechirasiz. Siz bu ayolni kimisiz?

- Qiziman - dedim bo'g'zimga nimadir tiqilib.

- Biz ularni shaxsini aniqlamoqchi edik. Yonida hech qanday hujjati yo'q ekan bir ayol ular ham o'zbek o'lib ketamiz uni ham deb turib oldilar. Jarohatlangan ekanlar samalyotga chiqmasimizdan avval qon quydik. Hozir ahvoli barqaror. Siz bu bemorni shaxsini tasdiqlay olasizmi?

Xamshirani tepamda turib aytgan gaplari u qulog'imdan kirib bu qulog'imdan chiqdi.

- Iltimos onamni yonida bo'lsam maylimi birozga?

Hamshira ham hozir mavridi emasligini endi angladi shekilli yonimizdan ketdi. Ahvoli barqaror deb aytgani qulog'imda yangrardi. Demak onam hozir yaxshi. Onamga qarab yuzlarini siladim. Ularga termulib to'ymasdim egilib hidlaridan hidladim. Onam. Onajonim.

Men ularni bezota qildim shekilli uyg'onib ketdilar.

- Onam! - dedim ko'zda yoshimni to'xtatib qola olmay yig'lab yubordim. - Onajon.

- Bahor? - tajublanib qaradilar menga. - Bahor o'zingmisan jonim qizim?!

- O'zimman ona o'zim. - yuzlaridan tinmay silardim, - O'ziman o'zim.

Onam ham qo'lini yuzimga olib kelib silab qo'ydilar.

Ancha payt bir birimizga termulib turganimizdan keyin onam singlim va ukamni so'radi. Voy ularni butkul esdan chiqaribman. Hozir ular shu yerda dedimda singlim va ukamni chaqirishga ketdim. Ular ham kelib onamni bag'rilariga bosishga harakat qildilar. Yonida bo'lib diydorlariga to'ydilar. Ularga qarab turar ekanman. Hamshira ayolni menga qaragan nigohini payqab qoldim. Sal qolsa esimdan chiqardi. Borib onamga nima bo'lganini so'radim. Aytishicha onamga o'tkir tig'li narsa bilan zarba berilgan ekan. Yani pichoqlangan. Kerekli qon quyilgan va hozirda ahvoli barqaror ekanligini aytdi. Men onamni tashlab ketmagan ayol bilan ko'rishmoqchi edim. Ularni so'radim. Hamshira menga u ayolni ko'rsatdi. Ularni yoniga borib suhbatlashdim. Ismlari Muborak ekanlar. Ularni ham bir olam hikoyalari bor edi. Onamdan bir necha yosh kichik ekan. Onamni o'z opasidek ko'rganlar ularga yordam berishni istaganlar ekan.

Aytishicha onam ular va bir nechta yosh ayollar qochmoqchi bo'lgan ekan. Qochayotib onam jarohatlangan bitta ayol o'ldirilgan ekan Muborak opa va onam bir amallab boshqa yo'ldan aylanib qochishgan boshqa ayollar haqida esa bilishmas ekan. SHunday qilib bazor qochib qutilishgan. Ularni avval itday ishlatishgan keyin yoshlarini tanlab jangdan charchab qaytishyotganlarni nafsini qondirish uchun jo'natilishar ekan.

G'irt tubanlik. Hammasi jahannamdan battar. Muborak opaga rahmat aytib ularni yonidan ketdim. Onamni tepasida hammamiz yig'ilib olganimiz uchun hamshiradan gap ham eshitdik. Iltimos qilgandik yonlarida qolishga ko'nmayotgandi onam ham iltimos qilgach kap katta ayolga yo'q deya olmadi.

SHunday qilib samalyot qo'nish vaqtiga yetganigacha onamizni yonida o'tirib ularni diydoriga to'ydik.

Samalyot qo'nish haqida malumot berilganda joy joylarimizga o'rناshdik.

Nihoyat samalyot yerga qo'nyapdi. Ona vatan ona tuprog'imizga qaytyapmiz. Onamni topdik. Otam uchun juda afsusdaman ular ham bo'lganda bu kunlarni unutib yaxshi hayot kechirardik. Lekin otam endi qaytib kelmaydi. Ming bor afsus. Samalyot yerga biroz zarb bilan qo'ndi. Biz ona tuproqdamiz.

Yakun.

8 yildan so'ng.

- Ibrohiiim?! Ibrohiim? Kamronbekni akasii? Qayerdasiz? - Dilshoda o'g'lini yetaklab darvozadan kirib keldi.

Hovlida Saliha bilan o'ynab yurgan o'g'li Ibrohimga gapira ketdi.

- Vay bu bola uyida o'tirsa nima qilar ekan a? CHopqillab qo'shnikiniga chiqib ketadi chopqillab chiqib ketadi. Vay uyda o'ynaydigan hech narsa yo'qmi? Bularni orqasidan Kamronbek ukasi yig'lab yuradi akasini qidirib. Manashu qo'shnidan ham uyat bo'ldi. Tovba tovba.

- Vay bularni qarelar qachondan beri qo'shnilaridan uyaladigan bo'lib qoldiz? Yana menday qo'shnizdan. - ichkaridan uy bekasi chiqib keldi.

- Vay hozirdan boshladim uyalishni hozirdan. - gapini ohirida kulib yubordi Dilshoda Bahorga qarab.

Hovlida esa Dilshoda va Salohiddinni o'g'illari Ibrohim va Kamron. Azamat va Bahorni qizi Soliha o'g'li Muhammadyasin o'ynab ketishdi.

- Bahor bularni qaraya. Bu Ibrohim ikki daqiqa chalg'isam seni uyingga qarab chopadi. Ukasi qidirib yuradi keyin oko oko deb. - Dilshoda o'g'lini mehr bilan kuzatib gapirdi.

- Ha uyinglarda o'yinchoq yo'qdirda biznikiga o'ynagani keladi.

- Bahor bu borada asabimga o'ynay olmayсан dadasi o'yinchoqni boshlaridan uyib qo'yibdi. Bu toy bola bizni Soliha bilan o'ynagani keladi. Dadasidan oshiradigan sho'x yigitda bu. Quda bo'lamizmi deyman Bahor aa?

- Qo'y halitdan boshlama. Avval ulg'aysin bolalarku hali. - Bahor Dilshodani koyib qo'ydi. - Hali katta bo'lishguncha ming hil o'zgarishadi.

- Bahoor. Hozir qizingni olib ketmoqchi emasman. Katta bo'lishganda o'zilariga qo'yib beramiz. O'z o'zlari hal qilishadi.

- Ha shunaqa desangchi.

Bahor ham gapga ko'ndi.

- Qalay uchinchig qiyab qo'ymayapdimi? - Bahor Dilshodani bir necha oydan keyib dunyoga keladigan uchunchi farzandiga ishora qildi.

- Yo'q. Ikkita o'g'limga nisbatan ancha tinch. SHunga aytishsa kerak qiz bola farzand tug'ilmasdanoq g'amxo'r bo'ladi deb. Lekin o'zim juda injiq bo'lib qolganman. Nuqul shirinlik yeyman. Avvalgilarida go'shtdan bosh ko'tarmasdim.

- Kuldi Dilshoda dugonasiga dardini aytib.

- Qiz bola shunaqa bo'ladi o'zi. Salohiddin nima deyapdi.

- Nima desin boshi osmonda. Qizli bo'lyapdi ahir. O'zi ular uchun dunyoga keltiryapman shekilli. Sen ham uchunchingga harakat qilmaysanmi?

- Kichkinaku hali o'g'lim endi bir yoshga yetti. - Bahor o'g'li Muhammadyasiga qarab qo'ydi.

Ular shunday tarizda farzandlarini o'ynashganiga qarab turishar edi.

Bundan 8 yil avval Azamat va Salohiddin maxsus xizmatdan ketib oddiyroq xizmatga o'tishdi. Ularni hizmati Qoraqalpog'iston Respublikasiga tushishdi. Ikkalasi bir amallab bir joyga joylashishdi.

Dilshoda sevgilisi Respublikani boshqa burchagiga ketayotgani sabab indamasdan kuzatishdan boshqasiga yaramadi. Ikkinchi kursda Andijonda qoldiyu uzoq ayriliqqa chiday olmay ikkinchi kursni bitirgach to'yga rozi bo'ldi. O'qishini ham Qoraqalpog'iston Respublikasiga ko'chirdi sirti talimga ham o'zgartirdi. Uni bu qaroriga avval ota onasi sal narozilik qildi chunki uzoq hududga ketayotgani edi. Lekin qizlarining qaysarligi sabab ko'nishdi. Muhimi qizlarini baxtli bo'lishi emasmi?

Jannat xola esa Bahor, Farangiz va Umarni katta iltimoslariga ko'ra ular bilan bir oila bo'lib yashashni boshladi.

Muborak opa esa o'zini qizlik oilasiga qaytdi.

Bahor esa oilasini oyoqqa turg'izib olish uchun harakat qildi. Oilasi bilan avvalgi uyiga keldi. Onasi sog'lig'ini tiklash uchun harakat qilishdi avvaliga davlat tomonidan ajratilgan mablag'ga biroz kun ko'rishdi so'ng Bahor ishga kirish uchun harakat qildi unga onasini avvalgi ish joyi yordam berishdi. Bahor pedagogika kollejida o'qigani uchun bog'chaga ishga kira oldi. SHu ham oilani tebratishga yordam berdi. Singlisini o'zi hohlagan ko'llejga kimgazib qo'yishdi. Ukasi esa yana yettinchi sinfni o'qishiga to'g'ri keldi chunki bir yil maktabga kelmagan o'quvchi kelasi yilga o'ta olmasdida.

Abduvahob va uni xamtavoqlari Diniy ekstremizm va terorizmga qarshi kurash hodimlari tomonidan hibsga olishgan va jazoga torilgan.

Ishga o'rnashib olgandan keyin Bahorga o'qishi ham kerakligini aytishdi. SHunga yozda o'qishni sitqi bo'limiga hujjat topshirdi. Nasib ekan o'sha yili o'qishga kirdi. Endigi ish o'qishni birinchi semestrini kutish edi. Kuz oylarida Bahor ishga borib kelib yurgan odatiy kunlaridan birida uyga ketayotganida orqasidan kimdir kuzatyotganini sezib qoldi. Orqasiga qaramasdan qadamini tezlatmasdan chapdagi domlar orqasiga o'tib kettida bekinib oldi. Kuzatib kelayotgan odam ham uni orqasidan qayrilgandi. Bahor o'sha kishini oyog'idan chalib qoldi. Haligi odam yerga yiqilishiga oz qoldiyu lekin muvozanatni saqladi.

- Qoyil sezib qoldinga - dedi.

- Ustoz?!

Ha bu G'anisher aka edi. U Bahordan yordam so'rab kelgandi. Yana Suriya borasida muammo chiqqan Bahor u yerlarga borib kelgani uchun Razvetka aynan Bahordek hodinga muhtoj edi. Bahor endigina o'qishga kirganini yaqinda birinchi semestrga chaqirilishini aytganda bu operatsiya qisqa muddatga ekanligini aytib uni ko'ndirishdi. SHu bilan Bahor yana bir marotaba bir oyga yaqin Jahannamga borib keldi. U yerda Jahannamga aldanganlar bu botqoqqa bilmasdan kirganlar anchagina edi.

Aperatsiyani muvoffaqiyatli tamomlagan Bahorga yana bir marotaba tashakkurnoma bildirib rahmat aytilishdi.

Bahor ishini yakunlab xisobotini topshirib maxsus xonani tarik etkanda yonidagi yordamchisiga G'anisher aka shunday degandi.

- Bo'ldi endi Bahorni tinch qo'yamiz. U bundan bu yog'iga hayotida bexavotir yashashga loyiq.

Salohiddin va Dilshodani to'ylaridan bir yil o'tar vaqtga yaqinlashganda Bahorni uyiga Azamatdan sovchi keldi. SHu paytgacha Bahorni qarshiligi sabab Azamat oilasini yubormagan edi. Lekin endi bunday yashab bo'lmaydi. Suriyadagi voqealarga ham ikki yildan oshgan hammasi o'z iziga tushib kelgan oila o'zini ancha tiklab olgan edi. Gulnora yanga ham hammasidan habardor bo'lgani uchun qizini hech ikkilanmasdan Azamatga uzatishga rozi bo'ldi. Ajoyib to'ylar bo'lib o'tdi.

To'ydan ozgina vaqt o'tib Azamatni oylik tatili tugagach ular Qoraqalpog'istonga ketishdi. Yosh oila bo'lganliklari uchun ularga namunali uylardan uzoq muddatga kreditga uy berishdi uyni ham Salohiddinlarni uyi yonidan olishdi.

Ikkita do'stlar va ikkita dugona mahalliy aholiga tez moslashishmi bu yerni odamlari juda ochiq ko'ngil va mehribon ekanlar. Qo'shnilarlikiga chiqib bir biridan shirin taomlar retseptlarini o'rganishdi. Bahor va Azamatni to'yi bo'lgan yili Salohiddin va Dilshoda o'g'il farzandli bo'lishdi ismini esa Ibrohim deb qo'yishdi. Bir yildan keyin Azamat va Bahor qiz farzandli bo'lishdi ismi Saliha bo'ldi. Ismi jisminiga mos bo'lsin deb yaxshi niyat qilishdi. Ikki yildan keyin Salohiddinni oilasida yana o'g'il dunyoga keldi. Bir yildan keyin Azamatlarnikidaham o'g'il dunyoga keldi.

Baxtli oilalar tinch hayot kechirish bilan band edi.

Sakkiz yilni ichida askarlarni lavozimlari ko'tarildi. Salohiddin katta letinant Azamat esa Letinant edi.

Farzandlariga qarab kulishib turgan dugonalar u yog'dan bu yog'dan gapirib bo'lib turganida. Dilshoda savol berdi

- Azamat qalay ishlar yaxshimi? - kulib qo'ydi.

- Azamat bilan nima ishingiz bor edi? - tashqaridan ovoz eshitildi. Salohiddin va Azamat o'qishdan keldi. Doimgidek Salohiddin o'ta ketgan rashkchiligini boshlab gapirib kelardi.

- Vay dadajonisi keldizmi? - Dilshoda erini oldiga chiqdi.

- Kelaman albatta. Ovozlariz ko'chaga eshtilyapdiku buncha shovqin chiqarmasangizlar. - koyib berdi Salohiddin.

- Vot dugosh biz uyga ketdik. Aytgancha nima ovqat qilyapsan? - erini felini suv qilib ichib olgan Dilshoda bundan keyingi so'zlarni juda yaxshi bilar. Erini ko'nglini olishni ham o'ylab qo'ygandi.

- Manti qilyapman.

- Voy mantimi meniham yegim keldiya.

- Ha keling unda. - dedi Azamat mezbob sifatida.

- Uyda ham ovqatimiz bor rahmat. - rad etdi Salohiddin.

- Albatta. Albatta. Uyga ketdik biz. O'tinglar sizlar ham. Bolalar yuringlar uyga qaytamiz. Yuring

Bolalarini yo'liga solib eri bilan darvozadan chiqib ketti.

- Huddi uyingda ovqating yoqday. Vay yegim keldj deysan a?

- Dadasi yegim keldida. - ovozini ozgartirdi Dilshoda.

- Nima ovqat qilding o'zi?

- Osh!

- Bugun payshanba emasku - jilmaydi Salohiddin ham.

- Menga hafta kunlarini ahamyati yo'q. Yegim keldi tamom pishirdim. Endi manti ham yegim kelyapdi. Nima qilay endi?

- Dilshoda darrov arazni yoqdi.

- Men birnima dedimmi? Bo'ldi yeging kelsa uniyam yeysan. SHu uchunchi bor farzandli bo'lish senga yoqdi a. To'lishib qilding ancha.

- Nima? - ajablanib eriga qaradi Dilshoda uni jilmayib turganini ko'rib - Ajab bo'bdi maylimi. - deb qo'ydi ikkalasi ham uni qilig'idan kulib uyiga kirib ketishdi.

- Bular hech o'zgararmikan o'zi? - kuldi Azamat.

- O'zgarماسalar kerak. Tinch o'tirdi deguncha o'zlari bir nima topishadi.

- To'g'ri. Ikkalasiyam bir biriga o'xshaydi.

Ovqating pishib qoldimi?

- Ha hozir tayyor bo'ladi siz kiyimizni alishtirib turing men choy tayorlayman. - oshxonaga ketmoqchi bo'lgan rafiqasini to'xtatdi Azamat.
- To'xta choy qochmaydi yur bolalarni bir pas o'ynataylik.
- Hozir ishdan keldizku charchadiz. Dadasi ovqatlanib bo'ling o'ynataylik. - ko'nmadi Bahor.
- Yo'q. Men farzandlarimga och qoldim ular bilan to'yib olay keyin qorinni to'ydiramiz. Kim dadasi bilan o'ynaydi. - farzandlariga qarab quchog'ini ochdi Azamat. Ular ham yugurib dadasiga keldi men men deb. Ularni xonadonlaridan shunday baxtli kulgular arimas edi.

Etiboringiz uchun rahmat.

Muallif: Madiyarova Dilshoda.

So'ngi so'z

So'ngi so'z sifatida shuni aytishim mumkinki ,men bu asarim bilan hechkimni diniy ekstremistik oqimlarga tadbiq qilmoqchi emasman va hammaga hulosa shaxsan o'zlaridan ekanligini yana bir bor eslatmoqchiman. Sizlardan faqat shuni so'rab qolardimki atrofingizdagi voqealarga befarq bo'lmang. Oilangiz, qarindosh urug'ingiz, qo'ni qo'shningiz mahalladoshingiz qanday ahvolda nima qilyapdi nima qo'yyapdi bohabar bo'laylik. Befarqlik siz u bizni ko'zimizni ko'r qilmasin. Asarga qaytadigan bo'lsak Bahor va uni oilasi, baxtli tasodif bilan omon qoldi deb ayta olamiz Maxsus xizmat hodimlari aynan Bahorni tanlashdi shuning uchun u bu jahannamdan qaytib chiqish yo'lini nafaqat o'z oilasiga balki qanchadan qancha vatandoshiga ko'rsata oldi. Lekin siz u biz o'ylayapmizmi Bahor yodram bera olmagan insonlar qancha ekanligini? Hususan uni otasi? Ular endi shu jahannamda u dunyoyu bu dunyo qolib ketishga mahkum. Albatta Diniy ekstremizm va terorizmga qarshi kurash hodimlari yo'ldan adashgan vatandoshlarimizga qurbilari yetguncha yordam berishadi.

Endi asarim bitishi uchun yaqindan yordam bergan yaqinlarimga o'z minnatdorchliklarimni bildiraman. Birinchidan asarga o'z ismidan foydalanishimga ruxsat bergan sinfdoshim,kursdoshim bo'lgan Bahoroyga(asl ismi Bahoroy uni);

Ikkinchidan asarga ismlaridan va harqakterlaridan qo'shayotgan paytimda narozilik bildirmagan barcha yaqinlarimga. Asar yuzasidab bazi fikrga kelishimda ikkilangan paytimda yordam so'rasam og'rinmay javob bergan Forks guruhi adminlari va guruh azolariga. Asar haqida ilk fikrlarimni tinglab meni qo'llab quvvatlagan Eldorga.

Uchinchidan esa butun boshli asarga tub ozgartirish kiritishimga meni va asarimni qutqarib qolgan. Asar shunday yakun bilan yakunlanishiga o'z maslahat va yordamini ayamagan Aleksandr Petersonlarga o'z rahmatim va minnatdorligimni bildiraman.

Asarni ohirigacha o'qiganlarga ham rahmat.asar haqidagi fikringizni esa Qalbsizning qalb quyoshi nomli kanalning muhokamasida kutaman.